

**X. ALIMOVA, YU. XO'JAQULOV,
G. KURBANOVA**

DARIY TILI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

X. ALIMOVA, YU. XO'JAQULOV, G. KURBANOVA

DARIY TILI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha) yo'naliشining talabalari uchun asosiy darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2018

UO'K: 811.221.31 (075.8)

КБК: 81.2

A 50

A 50 X. Alimova, Yu. Xo'jaqulov, G. Kurbanova. Dariy tili. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 248 bet.

ISBN 978–9943–11–876–8

Darslik hozirgi adabiy dariy tili va uning grammatik normalari asosida tuzilgan. Grammatik mavzular, ularga mo'ljalangan mashqlar dariy tili normativ grammatikasini o'zlashtirish, yozma matnni o'qib uning mazmunidan foydalanish, og'zaki va yozma tarjima qilish, o'z fikrini yozma shaklda ifodalash hamda til egalari bilan erkin so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

UO'K: 811.221.31 (075.8)

КБК: 81.2

Taqrizchilar:

A.A. Vohidov – filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat sharq-shunoslik instituti Eron-afg'on filologiyasi kafedrasi dotsenti;

X.M. Maxamadaliyev – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ikkinchı tillarni intensiv o'qitish kafedrasi dotsenti.

ISBN 978–9943–11–876–8



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

KIRISH

Dariy tili (shuningdek, forsiy, forsi-ye kobuliy atamalari ham mavjud) hind-yevropa tillari oilasining eron guruhiga kiradi. Hozirgi zamон dariy, fors va tojik tillari til qurilishi jihatidan qarindosh tillar hisoblanadi. Mazkur tillarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari bir-birlariga batamom mos keladi, ularning eng asosiy yozma manbalari esa umumiydir.

Bu tillar tarixida islom dunyosi fathidan so'ng boshlangan yangi bosqich (X–XV asrlar) arab yozuviga asoslangan. Adabiyot bu davrda kamolot cho'qqisiga chiqdi. Mazkur davr insoniyatning ma'naviy boyliklari xazinasiga katta hissa qo'shilgan klassik davr sanaladi. Ming yillar davomida forsiyzabon dunyoning fan va adabiyot markazi navbatma-navbat goh u, goh bu (ba'zan bir-biridan uzoq) jug'rofiy mintaqalarda mahalliy madaniy va til xususiyatlarini aks ettirgan holda rivojlandi. Yozma yodgorliklarda mahalliy til variantlarining taraqqiyoti o'z aksini topgan. Bu esa pirovardida mustaqil yozma adabiy til huquqiga ega hozirgi zamон dariy, fors va tojik tillarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

O'rta davr fors tilidan yangi davrga va yangi fors tili davridan hozirgi zamonga o'tish jarayonida mazkur tillarning grammatik qurilishida ba'zi ichki va tashqi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu borada Afg'onistonidagi dariy tili o'zining arxaikligi bilan ajralib turadi. O'tmishdagi davr tillariga xos bir qator xususiyatlar dariy tilida saqlanib qolgan¹.

Dariy tili (pashtu bilan bir qatorda) Afg'onistonning rasmiy davlat tili sanaladi. Bu til o'rta asrlardan to hozirgi kungacha aksariyat aholi tomonidan iste'molda bo'lган til maqomini egallab kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat aholisining 49 % i dariy tilini o'z ona tilisi, 37% i esa ikkinchi tili deb hisoblaydi.

Hozirgi paytda dariy tili O'zbekistonda ilmiy va amaliy maqsadlarda o'rganiladi.

Qo'lingizdagi darslik **5120100** – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha) ta'lim yo'naliшining boshlang'ich bosqich va

¹1964- yilda Afg'onistonidagi "forsi-ye kobuliy"ni rasman "dariy tili" deb e'lon qilinishiga shu sabablar asos bo'lган. Chunki eronshunoslikda "dariy" (ba'zan "forsi-ye dariy") atamasi asosida klassik fors-tojik adabiyoti gullab-yashnagan davrdagi (IX-X asrlardan boshlab) Xuroson va Mavarounnahr tili tushuniladi. Hozirgi Afg'oniston sharoitida qadimiy atamaning tiklanishi klassik tildan to hozirgi dariy tiligacha bo'lган davrda adabiy an'analariнing uzlusizligini ta'kidlashdan iborat edi.

dariy tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan yo'nalishlarning talabalariga mo'ljallangan. Shuningdek, undan dariy tilini mustaqil o'rganmoqchi bo'lgan talabgorlar ham foydalanishlari mumkin.

Darslik hozirgi adabiy dariy tili va uning grammatic normalari asosida tuzilgan. Grammatik mavzular va mashqlar dariy tili normativ grammatikasini o'zlashtirish, yozma matnni o'qib uning mazmunidan foydalanish, og'zaki va yozma tarjima qilish, o'z fikrini yozma shaklda ifodalash hamda til egalari bilan erkin so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Darslikni tuzishda B.Ya. Ostrovskiyning "Учебник языка дари" darsligi, Defense Language Institutining "Dari" audiotasmasidan foydalанилди.

Mualliflar darslik ustida bundan buyon ham ish olib borish yuzasidan bildiriladigan tanqidiy mulohazalar va takliflarni mammuniyat bilan qabul qiladilar.

BIRINCHI DARS

درس يكىم

Dariy tilidagi tovushlar tarkibi va urg'u haqida umumiy ma'lumot

Dariy tilida 8 ta unli va 25 ta undosh tovush bor. Darslikda bular quyidagi transkripsiya orqali berilmoqda:

unlilar: *a ā e ē i o ô u*

(bulardan 5 tasi (*ā, ē, i, ô, u*) cho'ziq va 3 tasi (*a, e, o*) qisqa unli);

undoshlar: *b č d f g ğ h j k l m n p q r s š t w x y z ž* ‘

(bulardan 14 tasi jarangli (*b, d, z, ž, g, j, w, q, ğ, l, m, n, r, y*) va 9 tasi jarangsiz (*p, t, k, č, f, s, x, š, h*) tovush).

Dariy tilida **urg**'uni to'g'ri ishlata bilish, so'zlarni to'g'ri o'qish va tushunish uchun katta yordam beradi. Dariy tilida urg'u so'zning oddiy yoki murakkabligidan, o'z yoki o'zlashmaligidan qat'i nazar, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Urg'u tushgan bo'g'indagi unli tovush so'zdagi boshqa unli tovushlarga nisbatan kuchliroq talaffuz etiladi. Masalan: *baccá* 'o'g'il', *čaparkát* 'karavot', *angúr* 'uzum'. Hatto chet tillardan kirgan atoqli otlarda ham urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chiriladi. Masalan: *Amriká* 'Amerika', *Estoniya* 'Estoniya', *Afriqá* 'Afrika'.

So'zga biror qo'shimcha qo'shilsa, odatda, urg'u ana shu qo'shimchaga ko'chadi. Masalan: *dâneš* 'bilim', *dânešmánd* 'olim', *kudák* 'go'dak', *kudakestán* 'bog'cha'.

Quyidagi ikki bo'g'inli bog'lovchi va yuklamalarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Masalan: *likan* 'lekin', *xéyli* 'juda, ko'p', *ágár* 'agar'.

Bulardan boshqa yana bir necha qo'shimcha va yuklamalar borki, so'z oxirida kelsa ham, urg'u olmaydi, urg'u ulardan oldingi bo'g'inda qoladi. Bunday holatlar dars mavzulari davomida ma'lum qoidalar bilan birgalikda izohlanadi.

a unli

a tovushi – qisqa, o'rta qator, quyi ko'tarilish, lablanmagan ochiq unli bo'lib, talaffuzi turg'un emas. Dariy tilidagi qisqa unlilar orasida cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Agar:

a) so'z boshida kelsa qisqa, yopiq bo'g'inli holatda jarangli undoshdan oldin va so'z oxirida kelsa, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Masalan: *abr* 'bulut', *askar* 'askar', *dast* 'qo'l', *bad* 'yomon', *barf* 'qor', *xâna* 'uy'.

b) urg'usiz ochiq bo'g'inli holatda, xususan, jarangsiz tovushlardan oldin kelsa, juda qisqa talaffuz qilinadi. Masalan: *zabân* 'til', *safar* 'safar'.

1-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yod oling:

<i>sar</i>	<i>tab</i>	<i>baks</i>	<i>garm</i>	<i>mard</i>	<i>tang</i>
<i>kam</i>	<i>sag</i>	<i>asp</i>	<i>dars</i>	<i>sabz</i>	<i>sang</i>
<i>zan</i>	<i>bad</i>	<i>raft</i>	<i>barf</i>	<i>zard</i>	<i>rang</i>
<i>pay</i>	<i>gaz</i>	<i>dast</i>	<i>tark</i>	<i>sard</i>	<i>nang</i>
	<i>padar</i>		<i>bačča</i>		
	<i>sarak</i>		<i>Maymana</i>		
	<i>afsar</i>		<i>santara</i>		
	<i>maktab</i>		<i>čaparkat</i>		

l, š, ž, j undoshlari

«*l*» undoshi jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi, o‘zbek tilidagi «*l*» kabi talaffuz qilinadi. Yozuvda «lâm» – й harfi bilan ifodalanadi.

«*š*» undoshi jarangsiz, til oldi sirg‘aluvchi undosh bo‘lib, o‘zbek tilidagi «sh»dan farq qilmaydi. Yozuvda «šin» – ў harfi bilan ifodalanadi.

«*ž*» undoshi jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi undosh bo‘lib, o‘zbek tilidiagi «z»dan farq qilmaydi. Yozuvda «zê» – ј harfi bilan ifoda etiladi. Arabcha o‘zlashmalardagi «zâb» – ѡ «zâ» – ѥ harflari ham oddiy «z» kabi talaffuz etiladi.

«*j*» undoshi jarangli, til oldi, affrikat, portlovchi tovush bo‘lib, o‘zbek tilidagi «javob», «jon» so‘zlaridagi «j» dan farq qilmaydi, Yozuvda «jim» – є harfi bilan ifodalanadi.

2-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yod oling:

A.	<i>lak</i>	<i>galla</i>	B.	<i>šab</i>	<i>dašt</i>
	<i>lab</i>	<i>talab</i>		<i>šal</i>	<i>farš</i>
	<i>nal</i>	<i>kampal</i>		<i>žad</i>	<i>šakar</i>
	<i>bal</i>	<i>mamlakat</i>		<i>žarf</i>	<i>darafš</i>
C.	<i>jat</i>	<i>kaj</i>		<i>baja</i>	<i>ganj</i>
	<i>jang</i>	<i>gaj</i>		<i>raja</i>	<i>ranj</i>
	<i>jalb</i>	<i>darj</i>		<i>majalla</i>	<i>panja</i>
	<i>jangal</i>	<i>falj</i>		<i>daraja</i>	<i>Sanjar</i>

u va i unlilari

u – cho‘ziq, til orqa, yuqori ko‘tarilish, lablangan yopiq unli tovush, turg‘un. Bu tovush o‘zbek tilidagi *u* tovushidan o‘zining cho‘ziqligi bilan farq qiladi (o‘zbek tilidagi *suv*, *yozuv* so‘zlaridagi *u* tovushining talafuziga o‘xshaydi). O‘zbek tilidagi *u* tovushi ba’zi hollarda *i* unlisiga

yaqinlashib boradi (*urush*, *yutuq* kabi), lekin dariy tilida bunday holatni uchratmaymiz. Dariy tilida **u** doimo cho'ziq va to'liq talaffuz etiladi. Masalan: *tufān* 'bo'ron', *kabud* 'ko'k', *nur* 'nur', *jasur* 'jasur' *Musā* 'Muso', *durbin* 'durbin'.

i – cho'ziq, til oldi, yuqori ko'tarilish, lablanmagan yopiq unli tovush, turg'un; *yâ-ye ma'ruf* ham deb ataladi. **i** tovushi talaffuz qilinganida til tanglayga tomon ko'tariladi. Til bilan tanglay orasidagi tor bo'shliqda talaffuz qilinadi: *šir*, *didâr*, *in*. Bu tovush o'zbek tilidagi **iy** tovushlar birikmasiga (*kiyik*, *qariyb*, *siyrak*, *Muqimiy* so'zlaridagi kabi) yaqinlashib boradi.

O'zbek tilidagi **i** unli tovushi ba'zi so'zlarda qattiq **ı** kabi (*qishloq*, *qirg'iz* kabi) va **r**, **z** tovushlari oldidan juda qisqa (*bir*, *biz*, kabi) talaffuz qilinadi. Bu holni dariycha **i** cho'ziq unlisida uchratmaymiz. Dariy tilida **i** unlisi har doim cho'ziq va yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan: *šir* 'sut', *mariz* 'kasal', *mâhi* 'baliq', *Irân* 'Eron', *bini* 'burun'.

3-mashq. O'qing va ajratilgan so'zlarni yod oling:

A.	<i>dur</i>	<i>čuna</i>	<i>janub</i>	
	<i>rus</i>	<i>bura</i>	<i>namud</i>	
	<i>pul</i>	<i>pura</i>	<i>angur</i>	
	<i>but</i>	<i>surat</i>	<i>lablabu</i>	
B.	<i>in</i>	<i>ki</i>	<i>pir</i>	<i>dari</i>
	<i>či</i>	<i>gir</i>	<i>riš</i>	<i>mariz</i>
	<i>šir</i>	<i>kif</i>	<i>tira</i>	<i>zamin</i>
	<i>jim</i>	<i>gič</i>	<i>zina</i>	<i>nazdik</i>

w undoshi

«w» undoshi jarangli, lab-lab tovush, yozuvda «wāw» - **و** harfi bilan ifodalanadi. Dariy tilidagi **w** undoshi talaffuzida til va lablar **u** unlisi talaffuzidagi kabi pozitsiyani egallasa-da, alohida bo'g'in tashkil etmaydi va yonidagi unli tovush bilan diftong hosil qiladi. Masalan, *naw* 'yangi'.

4-mashq. O'qing va ajratilgan so'zlarni yod oling:

<i>way</i>	<i>naw</i>	<i>dawra</i>	<i>nawad</i>	<i>nawin</i>	<i>sarw</i>
<i>wasf</i>	<i>jaw</i>	<i>rawšan</i>	<i>awwal</i>	<i>dawid</i>	<i>dalw</i>
<i>wazir</i>	<i>palaw</i>	<i>čawki</i>	<i>Anwar</i>	<i>tašwiš</i>	<i>badw</i>
<i>watan</i>	<i>Täskand</i>	<i>tawlid</i>	<i>sarwat</i>	<i>Parwin</i>	<i>Marw</i>

Lug'at

سر sar	bosh	مجله majalla	jurnal
زن zan	ayol	پنجه panja	sanchqi
سگ sag	it	دور dur	uzoq
بکس baks	portfel, chemodan	روس rus	rus
اسپ asp	ot	بول pul	pul
دست dast	qo'l	بوت but	oyoq
گرم garm	issiq	بوره bura	shakar
درس dars	dars	جنوب janub	janub
برف barf	qor	انگور angur	uzum
مرد mard	erkak	اين in	bu
سبز sabz	yashil	چى ci	nima?
زرد zard	sariq	شیر sir	sut
سرد sard	sovuq	کى ki	kim?
تنگ tang	tor	پير pir	qari
سنگ sang	tosh	ريش riš	soqol
رنگ rang	bo'yoq, rang	زينه zina	zina
پدر padar	ota	روسي rusi	ruscha
سرک sarak	ko'cha	شيرين širin	shirin
افسر afsar	ofitser	دری dar(r)i	dariy
مکتب maktab	maktab	مریض mariz	kasal
بچہ bacča	o'g'il (bola)	زمین zamin	yer
میمنہ Maymana	Maymana (Afg'oniston dagi shahar)	نزدیک nazdik	yaqin
سنتره santara	mandarin	وطن watan	vatan
چپرکت čaparkat	karavot	نو naw	yangi
لب lab	lab	جو jaw	arpa
مملکت mamlakat	mamlakat	پلو palaw	palov, osh
شب šab	tun, kechqurun	مسکو Maskaw	Moskva
شکر šakar	shakar	چوکى čawki	stul
جنگ jang	jang, urush	انور Anwar	Anvar
جنگل jangal	o'rmon	پروین Parwin	Parvin

IKKINCHI DARS

دروس دوم

Ot-kesimli sodda yig‘iq gap

Dariy tilida gapning kesimi ot, sifat yoki boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalansa, ya’ni ot-kesimli gap bo‘lsa, kesimlilikni ifodalash uchun ular oxiriga *ast* bog‘lamasi qo‘yiladi. *Ast* bog‘lamasi o‘zbek tilidagi kesimlik qo‘shimchasi *-dir* ga to‘g‘ri keladi. Masalan:

In ketāb ast

‘Bu kitobdir’

Ketāb naw ast

‘Kitob yangidir’

O‘zbek tilida kesimlik qo‘shimchasi *-dir* ko‘pincha tushib qoladi va yozuvda ifoda etilmaydi. Lekin dariy tilidagi *ast* bog‘lamasi gapda har doim mavjud va yozuvda ifoda etiladi.

Ast bog‘lamasi talaffuzda urg‘u qabul qilmaydi va o‘z oldidagi so‘z bilan birga qo‘shib talaffuz qilinadi. Kesim vazifasini bajaruvchi so‘z urg‘usi o‘zgarmay, o‘z holicha qoladi. Masalan: *In ketābast* ‘Bu kitobdir’.

Ot-kesim tarkibidagi *ast* bog‘lamasi kesimning ot qismida kelgan so‘zning qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra turli fonetik xususiyatlarda bo‘ladi.

Cho‘ziq unlilar bilan tugagan so‘zdan so‘ng kelsa, bog‘lamaning a tovushi tushib qolib, oldidagi so‘z bilan birga bir so‘z tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

In bačča ast

yoki

In bačča-st

‘Bu boladir’

In čawki ast

yoki

In čawki-st

‘Bu stuldir’

1-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- 1) *In zan ast.* 2) *In jangal ast.* 3) *In bura-st.* 4) *Šir garm ast.*
- 5) *Rang sabz ast.* 6) *Bačča mariz ast.* 7) *Majalla naw ast.* 8) *Santara širin ast.* 9) *Sag pir ast.* 10) *Jangal nazdik ast.*

2-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Bu jurnaldir. 2) Bu erkak kishidir. 3) Bu ottdir. 4) Bu zinadir. 5) Bu stuldir. 6) Bu mandarindir. 7) Portfel jigarrangdir. 8) Ayol qaridir. 9) Ota kasaldir. 10) O‘rmon yashildir. 11) Tufli yangidir. 12) Maktab uzoqdir.

In olmoshining aniqlovchi vazifasida qo‘llanilishi

In ko‘rsatish olmoshi gapda ega vazifasidan tashqari aniqlovchi bo‘lib keladi:

In mard ‘bu kishi’

In mard pir ast ‘Bu kishi qaridir’

3-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A. 1) bu tosh; 2) Bu toshdir; 3) bu it; 4) Bu itdir; 5) bu tuqli; 6) Bu tuflidir; 7) bu dars; 8) bu ayol; 9) Bu jurnaldir; 10) Bu portfel; 11) Bu o'mondir; 12) bu sanchqi; 13) Bu ko'chadir; 14) Bu boshdir; 15) bu pul; 16) Bu palovdir.

B. 1) Bu bo'yoq sariqdir. 2) Bu ot qaridir. 3) Bu maktab yangidir. 4) Bu ayol kasaldir. 5) Bu stul yashildir. 6) Bu portfel yangidir. 7) Bu ko'cha yaqindir.

***ki* va *či* so'roq olmoshlari**

Dariy tilida *ke/ ki* kim? va *če/ či* nima? va so'roq olmoshlari bor. Bu ikki so'roq olmoshidan *ki* inson uchun va *če/ či* qolgan jonli va jonsiz predmetlar uchun ishlatalidi.

ke va *če* so'roq olmoshlari bilan *ast* bog'lamasi birga kelganda, *ke* va *če* olmoshlarining oxirgi e tovushi bog'lama *ast* ning a tovushi bilan qo'shilib, bir cho'ziq i tovushini hosil qiladi:

ke + ast = ki-st? *če + ast = či-st?*

In či-st? 'Bu nima?'

In mard ki-st 'Bu kishi kim?'

4-mashq.O'qing va tarjima qiling:

1) *In či-st? – In baks ast.* 2) *In či-st? – In maktab ast.* 3) *In ki-st? – In bačča ast.* – *In bačča mariz ast.* 4) *In či-st? – In sag ast.* *In sag pir ast.* 5) *In či-st? – In rang ast.* *In rang sabz ast.*

5-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Bu nima? – Bu o'mondir. 2) Bu kim? – Bu zabitdir. 3) Bu nima? – Bu uzumdir. Bu uzum shirindir. 4) Bu kim? – Bu boladir. Bu bola afg'ondir. 5) Bu nima? – Bu jurnaldir. Bu jurnal yangidir. 6) Bu nima? – Bu ko'chadir. Bu ko'cha tordir. 7) Bu kim? – Bu ayoldir. Bu ayol qaridir.

â unlisi

â – cho'ziq, til orqa, quyi ko'tarilish, lablangan ochiq unli tovush. Bu tovushni hosil qilishda og'iz keng ochilib, lablar dumaloqlashadi. Til orqaga tortilib, biroz ko'tariladi. So'zdagi o'midan qat'i nazar sifat o'zgarishiga uchramaydi. Dariy tilidagi **â** unli tovushi *uzoq*, *bosh* kabi o'zbek so'zlaridagi **o** tovushiga yaqinlashib boradi. O'zbek tilidagi **o** unli tovushi ba'zi bir so'zlarda (*ota*, *bola*, *kabi*) qisqa **a** tovushi kabi talaffuz etiladi. Dariy tilidagi **â** unlisi esa har doim cho'ziq va aniq

talaffuz qilinadi. Masalan: *âb* ‘suv’, *xâna* ‘xona’, ‘uy’, *bâzâr* ‘bozor’, *âsmân* ‘osmon’, *âftâb* ‘ostob’.

6-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yod oling:

A.

<i>kâr</i>	<i>sâl</i>	<i>pâk</i>	<i>âb</i>	<i>dâmâd</i>	<i>Âsyâ</i>	<i>fânûl</i>
<i>nâm</i>	<i>pây</i>	<i>mâst</i>	<i>ân</i>	<i>bârân</i>	<i>âsnâ</i>	<i>âbi</i>
<i>nân</i>	<i>çây</i>	<i>tâb</i>	<i>yâ</i>	<i>bâzâr</i>	<i>âsmân</i>	<i>târik</i>
<i>şâm</i>	<i>gâw</i>	<i>kârd</i>	<i>jâ</i>	<i>âsân</i>	<i>âftâb</i>	<i>dâwi</i>

B.

<i>bâr - bar</i>	<i>dar - dâr</i>	<i>rasâ</i>	<i>şamâl</i>	<i>daryâ</i>
<i>çâp - cap</i>	<i>kam - kám</i>	<i>dawâ</i>	<i>sawâr</i>	<i>fardâ</i>
<i>dâm - dam</i>	<i>had - hâd</i>	<i>zabân</i>	<i>darâz</i>	<i>sarmâ</i>
<i>kâf - kaf</i>	<i>mast - mâst</i>	<i>jawân</i>	<i>kabâb</i>	<i>Laylâ</i>
<i>dandân</i>	<i>atrâfi</i>	<i>tâza</i>	<i>âdam</i>	<i>sinamâ</i>
<i>sarbâz</i>	<i>almâri</i>	<i>kâsa</i>	<i>mâdar</i>	<i>kaçâlu</i>
<i>naswâr</i>	<i>tarkâri</i>	<i>mâlta</i>	<i>dâktar</i>	<i>âsuda</i>
<i>maydân</i>	<i>naswâri</i>	<i>jâdda</i>	<i>kârgar</i>	<i>tabâşir</i>
<i>tayyâra</i>		<i>bâlâ – balâ</i>		
<i>samâwâr</i>		<i>zada – zâda</i>		
<i>mazadâr</i>		<i>mâdar – madâr</i>		
<i>darwâza</i>		<i>âmad – âmâda</i>		

7-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- 1) In *gâw* ast. 2) In *maydân* ast. 3) *Kaçâlu mazadâr* ast. 4) *Mâlta şirin* ast. 5) *Tayyâra dur* ast. 6) *Âsmân târik* ast. *Şâm nazdik* ast. 7) In *âftâb* ast. 8) In *zabân* *âsân* ast. 9) In *jâdda darâz* ast. 10) In *nân garm* ast. In *âb sard* ast.

8-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- A. 1) Bu kishi shifokordir. 2) Bu choy shirindir. 3) Bu eshik yashildir. 4) Bu ko‘cha uzundir. 5) Osmon havorangdir. 6) Non mazalidir. 7) Tun qorong‘udir. 8) Bu portsel jigarrangdir. 9) Bu kinoteatr yaqindir. 10) Bu shifokor yoshdir. 11) Bu ish osondir.

- B. 1) Bu nima? – Bu kartoshkadır. 2) Bu kim? – Bu ishchidir. 3) Bu nima? – Bu sutdır. Bu sut mazalidir. 4) Bu kim? – Bu ayoldır. Bu ayol yoshdır. 5) Bu nima? – Bu sabzavotdır. Bu sabzavot yangıdır. 6) Bu nima?

– Bu suvdir. Bu suv sovuqdir. 7) Bu nima?- Bu shkafdir. Bu shkaf yangidir.
8) Bu kim? – Bu yigitdir. – Bu yigit kim? – Bu yigit askardir.

Ân ko'rsatish olmoshi

Dariy tilida *in* ‘bu’ ko’rsatish olmoshi so‘zlovchiga nisbatan yaqin bo‘lgan predmetlarni, *ân* ‘u’ ko’rsatish olmoshi esa so‘zlovchiga nisbatan uzoq bo‘lgan predmetlarni ko’rsatish uchun ishlailadi. Masalan:

<i>in ketâb</i>	‘bu kitob’
<i>ân ketâb</i>	‘u (e’sha) kitob’
<i>In Parwin ast</i>	‘Bu Parvindir’
<i>Ân Anwar ast</i>	‘U Anvardir’

9-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- 1) *Ân tabâsir ast.* 2) *Ân tayyâra-st.* 3) *Ân mard ast.* *Ân mard sarbâz ast.* 4) *Ân daryâ-st.* *Ân daryâ darâz ast.* 5) *Ân Laylâ-st.* *Laylâ jawân ast.* 6) *Ân či-st?* – *Ân nân ast.* *Ân nân tâza-st.* 7) *Ân ki-st?* – *Ân dâktar ast.* 8) *Ân či-st?* – *Ân âb ast.* *Ân âb pâk ast.* 9) *Ân či-st?* – *Ân kačâlu-st.* *Ân kačâlu mazadar ast.* 10) *Ân âdam ki-st?* – *Ân âdam kârgar ast.*

10-maskq. Birinchi ustundan gapning birinchi qismini, ikkinchi ustundan esa ikkinchi qismini tanlagan holda gap tuzing:

<i>Ân âdam</i>	<i>mazadar ast.</i>
<i>In kâr</i>	<i>darâz ast.</i>
<i>Ân sinamâ</i>	<i>tâza ast.</i>
<i>In čây</i>	<i>sarbâz ast.</i>
<i>Ân jádda</i>	<i>âsân ast.</i>
<i>In majalla</i>	<i>târik ast.</i>
<i>Ân zan</i>	<i>âbi-st.</i>
<i>In palaw</i>	<i>dâktar ast.</i>
<i>Âsmân</i>	<i>jawân ast.</i>
<i>Nân</i>	<i>dur ast.</i>
<i>Sab</i>	<i>śirin ast.</i>
<i>Anwar</i>	<i>garm ast.</i>

yâ bog‘lovchisili so‘roq gap

yâ bog‘lovchisi ishtirokidagi so‘roq gapda yâ bog‘lovchisi va undan keyingi so‘z ast bog‘lamasidan so‘ng qo‘yiladi:

In âb ast yâ čây? ‘Bu suvmi yoki choy?’

11-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

1) *In palaw ast yâ kabâb?* – *In kabâb ast.* 2) *Ân asp ast yâ gâw?* – *Ân gâw ast.* 3) *In mälta ast yâ santara?* – *In mälta ast.* 4) *Ân sarbâz ast yâ afsar?* – *Ân afsar ast.* 5) *In âb garm ast yâ sard?* – *In âb garm ast.* 6) *Ân mard jawân ast yâ pir?* – *Ân mard jawân ast.* 7) *In ēaparkat ast yâ almâri?* – *In almâri-st.* 8) *Ân kârd ast yâ panja?* – *Ân kârd ast.*

12-mashq. Savollarni yakunlang va ularga javob bering:

1) *Ân sir ast yâ ...?* 2) *In gâw ast yâ ...?* 3) *In bârân ast yâ ...?* 4) *In dast ast yâ ...?* 5) *Ân mard ast yâ ...?* 6) *In jâdda ast yâ ...?*
7) *Maymana dur ast yâ ...?* 8) *In baks zard ast yâ ...?* 9) *Ân kârd ast yâ ...?* 10) *Anwar kârgar ast yâ ...?*

13-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) U kishi ofitsermi yoki shifokor? – U kishi ofitserdir. 2) U pichoqmi yoki sanchqi? – U pichoqdir. 3) Bu rang sariqmi yoki havorang? – Bu rang havorangdir. 4) U karavotmi yoki shkaf? – U shkafdir. U shkaf jigarrangdir. 5) Bu nima? – Bu choydir. – Bu choy sovuqmi yoki issiq? – Bu choy issiqliqdir. 6) U nima? U sabzavot. U sabzavot yangidir. 7) U nima? – U kinoteatr. U kinoteatr yangidir. 8) U Laylomi yoki Parvin? – U Laylodir. Laylo kasaldir. 9) U (u yer) shimolmi yoki janub? – U (u yer) shimoldir. 10) Bu yomg‘irmi yoki qor? – Bu yomg‘irdir. 11) U maydonni yoki bozor? – U bozordir. 12) Bu kim? – Bu yigitdir. – Bu yigit askarmi yoki ishchi? – Bu yigit askardir.

Lug‘at

کار <i>kâr</i>	ish	جوان <i>jawân</i>	yosh; yigit
نام <i>nâm</i>	nom, ism	شمال <i>şamâl</i>	shimol
نان <i>nân</i>	non, ovqat	دراز <i>darâz</i>	uzun
شام <i>şâm</i>	shom, kechki vaqt	کباب <i>kabâb</i>	kabob
سال <i>sâl</i>	yil	دریا <i>daryâ</i>	daryo
پای <i>pây</i>	oyoq	فردا <i>fardâ</i>	ertaga
چای <i>čây</i>	choy	لیلا <i>Laylâ</i>	Laylo
گاو <i>gâw</i>	sigir, buqa	سریاز <i>sarbâz</i>	askar
پاک <i>pâk</i>	toza	میدان <i>maydân</i>	maydon
کارد <i>kârd</i>	pichoq	الماری <i>almâri</i>	shkaf, bufet
آب <i>âb</i>	suv	ترکاری <i>tarkâri</i>	sabzavot; ko‘kat

آن	<i>ân</i>	u, o'sha, anavi	نسوارى	<i>naswâri</i>	jigarrang
يا	<i>yâ</i>	yo, yoki	تازه	<i>toza</i>	yangi
جا	<i>jâ</i>	joy	مالته	<i>mâlta</i>	apelsin
بازار	<i>bârân</i>	yomg'ir	جاده	<i>jâddâ</i>	ko'cha, xiyobon
بازار	<i>bâzâr</i>	bozor	آدم	<i>âdam</i>	odam
آسان	<i>âsân</i>	oson	مادر	<i>mâdar</i>	ona
آسيا	<i>Âsyâ</i>	Osiyo	داكتر	<i>dâktar</i>	shifokor
آشنا	<i>âsnâ</i>	tanish, oshna	کارگر	<i>kârgar</i>	ishchi
آسمان	<i>âsmân</i>	osimon	سينما	<i>sinamâ</i>	kinoteatr
آفتاب	<i>âftâb</i>	quyosh, oftob	كچالو	<i>kaçâlu</i>	kartoshka
فamil	<i>fâmil</i>	oila	تبشير	<i>tabâşir</i>	bo'r
آبى	<i>âbi</i>	havorang	طياره	<i>tayyâra</i>	samolyot
تاريک	<i>târik</i>	qorong'i	مزه دار	<i>mazadâr</i>	mazali
زبان	<i>zabân</i>	til	دروازه	<i>darwâza</i>	eshik, darvoza

UCHINCHI DARS

درس سوم

e va *o* unli tovushlari

e – qisqa, old qator, o'rtalish, lablangan ochiq unli tovush, turg'un emas. Bu tovush o'zbek tilidagi *e* tovushidan asosan o'zining qisqaligi bilan farq qiladi. Ba'zan urg'usiz ochiq bo'g'inda juda qisqarib, sezilmay ketish darajasiga yetadi. Dariycha *e* tovushi yopiq bo'g'inli holatda *sevdi*, *keldi*, *mendan* kabi o'zbek so'zlaridagi *e* tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan: *del* 'dil', *yurak*, *emrōz* 'bugun', *şägerd* 'shogird', *edära* 'idora', *zemestän* 'qish'.

o – qisqa, til orqa, o'rtalish, lablangan ochiq unli tovush, turg'un emas. Bu tovush ham o'zbek tilidagi *o* dan asosan o'zining qisqaligi bilan farq qiladi. Dariy tilida *o* tovushi *e* tovushi kabi urg'usiz ochiq bo'g'inli holatda juda qisqarib ketadi. Masalan: *bolbol* 'bulbul', *sorx* 'qizil', *omr* 'umr', *gol* 'gul', *şotor* 'tuya', *omēd*, *omaid* 'umid'.

1-mashq. O'qing va ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yodda tuting:

A.

<i>telâ</i>	<i>del</i>	<i>emzâ</i>	<i>gel</i>	<i>kešt</i>	<i>teket</i>	<i>berenj</i>
<i>lebâs</i>	<i>senf</i>	<i>mesgar</i>	<i>gerd</i>	<i>teka</i>	<i>kešti</i>	<i>Gerešk</i>
<i>peyâz</i>	<i>tebb</i>	<i>besyâr</i>	<i>kerm</i>	<i>pešak</i>	<i>setâra</i>	<i>kerâya</i>
<i>peyâla</i>	<i>čerk</i>	<i>delčasp</i>	<i>kelkin</i>	<i>ketâb</i>	<i>ketâbča</i>	<i>berâdar</i>

B.

<i>šoda</i>	<i>zoruf</i>	<i>gol</i>	<i>bozorg</i>	<i>jomla</i>	<i>čop</i>
<i>kojâ</i>	<i>šogum</i>	<i>lok</i>	<i>Kâbol</i>	<i>forsat</i>	<i>gandom</i>
<i>dokân</i>	<i>jowâri</i>	<i>tond</i>	<i>Yusof</i>	<i>longi</i>	<i>mardom</i>
<i>boland</i>	<i>bâzowân</i>	<i>torš</i>	<i>Yunos</i>	<i>moškel</i>	<i>tarjoma</i>
<i>wolja</i>	<i>pošt</i>	<i>dorost</i>	<i>dom - dâm</i>	<i>bâz - boz</i>	
<i>wolos</i>	<i>košti</i>	<i>borut</i>	<i>gol - gâl</i>	<i>lák - lok</i>	
<i>worud</i>	<i>kosuf</i>	<i>dorošt</i>	<i>čop - čâp</i>	<i>gâm - gom</i>	
<i>wojud</i>	<i>şotor</i>	<i>gorup</i>	<i>košt - kâšt</i>	<i>gâdi - godi</i>	

2-mashq. O'qing va tarjima qiling:

- 1) In *peyâla*-st. 2) An *kešti* ast. 3) In *lebâs* now ast. 4) In *senf* bozorg ast. 5) An *jomla* dorost ast. 6) In *ki*-st? – In *Yusof* ast. 7) An *či*-st? – An *gandom* ast. 8) In *asp* ast yâ *şotor*? – In *şotor* ast. 9) An *kâr* moškel ast yâ *üsân*? – An *kâr* moškel ast.

Besyâr ravishining qo‘llanilishi

Besyâr ‘juda’ ravishi odatda sifatdan oldin qo‘yiladi. Masalan:

In ketâb besyâr delčasp ast ‘Bu kitob juda qiziqarli’

Gereşk besyâr dur ast ‘Girishk juda uzoqdir’

3-mashq. Dariy tiliga tajima qiling:

- 1) Bu kitobdir.
- 2) Bu bug‘doymi yoki arpa? – Bu bug‘doydir.
- 3) U til osonmi yoki qiyin? – U til juda qiyindir.
- 4) Bu tarjima to‘g‘ridir.
- 5) U piyola tozami yoki kir? – U piyola juda kirdir.
- 6) Bu deraza juda kattadir.
- 7) U do‘kon yaqinmi yoki uzoq? – U do‘kon juda yaqindir.
- 8) Bu soqolmi yoki mo‘ylov? – Bu mo‘ylokdir. Bu mo‘ylov juda uzundir.
- 9) U otmi yoki tuyu? – U tuyadir. U tuyu juda qaridir.

-o va wa bog‘lovchilar

-o va *wa* bog‘lovchilar ma‘no jihatidan bir xil va o‘zbek tilidagi “va” (ba‘zan esa) bog‘lovchisiga to‘g‘ri keladi.

-o bog‘lovchisi urg‘u olmaydi va fonetik jihatdan o‘zidan oldingi kelayotgan so‘zga birikadi; unliga tugallangan so‘zlarda -wo tarzida talaffuz qilinadi:

zamin-o əsmân ‘yer va osmon’ yoki ‘yer-u osmon’

daryâ-wa jangal ‘daryo va o‘rmon’

-o bog‘lovchisi nafaqat so‘zlarini, balki gaplarni ham bog‘lashi mumkin:

In asp ast-o ân šotor ast ‘Bu ot, u esa – tuyu’.

wa bog‘lovchisi *-o* bog‘lovchisidan farqli ravishda ikkinchi darajali urg‘u oladi va, odatda, pauzadan keyin keladi; fonetik jihatdan o‘zidan keyingi kelayotgan so‘zga birikadi. Masalan:

zamin | wa əsmân ‘yer va osmon’

In ásp ast | wa ân šotór ast ‘Bu ot, u esa – tuyu’.

4-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- A. 1) *tang-o târik*; 2) *Anwar wa Yusof*; 3) *zard wa naswâri*;
- 4) *mâlta-wo santara*; 5) *nân wa čây*; 6) *pir-o jawân*; 7) *garm-o sard*;
- 8) *âftâb-o setâra*; 9) *kabâb wa palaw*; 10) *dast-o pây*; 11) *mâdar wa berâdar*; 12) *torš-o širin*.

- B. 1) *In peyâz ast wa ân tarkâri-st*. 2) *In zan jawân ast-o ân zan pir ast*.
- 3) *In rang âbi ast wa ân rang sabz ast*. 4) *In Parwin ast-o ân Laylâ-st*.
- 5) *In sinamâ nazdik ast wa ân sinamâ besyâr dur ast*. 6) *Bura širin ast wa angur torš ast*.

5-mashq. Dariy tiliga ikki shaklda tarjima qiling (-o va wa bog'lovchilari yordamida):

A. 1) kitob va daftar; 2) qo'l va oyoq; 3) ota va ona; 4) it va mushuk; 5) pichoq va sanchqi; 6) shimol va janub; 7) soqol va mo'ylov; 8) qor va yomg'ir; 9) arpa va jo'xori; 10) eshik va deraza; 11) shkaf va karavot.

B. 1) Bu gul havorang, u gul esa sariqdir. 2) Bu dars qiyin, u dars esa osondir. 3) Kobul uzoq, Toshkent esa yaqindir. 4) Bu ipak yashil, u ipak esa jigarrangdir. 5) Bu arpa, u esa bug'doydir. 6) Bu shifokor yosh, u shifokor esa juda qaridir. 7) Bu piyola toza, u sanchqi esa kirdir. 8) Bu uzum shirin, u uzum esa nordondir.

6-mashq. Gaplarni tugating:

1) *In čaparkat ast-o ân ...* 2) *In berenj ast wa ân ...* 3) *Yosuf afsar ast-o Anwar ...* 4) *Laylâ zan ast-o Yosuf ...* 5) *In šamâl ast wa ân ...* 6) *In longi âbi-st-o ân longi ...* 7) *Maymana dur ast wa Kâbol ...* 8) *In zabân âsân ast wa ân zabân besyâr ...*

O'rinning ifodalanishi

O'rin holi *dar* old ko'makchisi bilan kelgan ot orqali ifodalanishi mumkin. Bu old ko'makchi boshqa sodda old ko'makchilar kabi urg'u olmaydi va fonetik jihatdan o'zidan keyingi so'zga qo'shiladi, masalan:

Ketâb dar bâks ast ‘Kitob potfeldadir’

Old ko'makchili ot ko'rsatish olmoshi bilan kelgan bo'lsa, ko'rsatish olmoshi old ko'makchidan keyin qo'yiladi, masalan:

Majalla dar ân almâri-st ‘Jurnal u javondadir’

O'rin holi *injâ* ‘bu yerda’ va *ânjâ* ‘u yerda’ o'rin ravishlari bilan ham ifodalanishi mumkin. So'roq gaplarda *kojâ* ‘qayerda’ so'roq olmoshi qo'llaniladi, masalan:

Jawâن kojâ-st? – *Jawâن injâ-st*

‘Yigit qayerda? – Yigit shu yerda’

O'rin ravishlaridan oldin *dar* old ko'makchisi qo'yilishi mumkin (lekin bular, odatda, old ko'makchisiz ishlataladi).

O'rin holi ot-kesimli sodda yig'iq gaplarda gapning birinchi yoki ikkinchi qismida (ya'ni fe'ldan oldin) kelishi mumkin, masalan:

Dar senf Laylâ-st ‘Sinfda Laylo bor’

Laylâ dar senf ast ‘Laylo sinfdadir’.

7-mashq. O'qing va tarjima qiling:

1) *Ân baččâ dar maktab ast.* 2) *Dar in dokân tarkâri-st.* 3) *Dar ân mamlakat jang ast.* 4) *Injâ či-st?* – *Injâ jangal ast.* 5) *Ânjâči-st?* – *Ânjâ*

şotor ast. 6) *Ketâb kojâ-st?* *Ketâb injâ-st.* 7) *Injâ darwâza ast-o ânjâ kelkin* ast. 8) *Anwar dar senf ast wa Yusof dar jâdda ast.* 9) *Laylâ dar Kâbol ast yâ dar Tâškand?* – *Laylâ dar Kâbol ast-o Anwar dar Tâškand ast.* 10) *Dar ân peyâla či-st?* – *Dar ân peyâla šir ast.* *Ân šir besyâr garm* ast. 11) *Dar in baks či-st?* – *Dar in baks pul ast.* 12) *Parwin dar kojâ-st?* – *Parwin dar sinamâ-st.* *In sinamâ nazdik ast.* 13) *Injâ kojâ-st?* *Injâ bâzâr ast.* *In bâzâr besyâr bozorg ast.* 14) *Sarak kojâ-st?* – *Sarak ânjâ-st.* *Ân sarak besyâr tang ast.*

8-mashq. Savollarga javob bering:

1) *Injâ Tâškand ast yâ Kâbol?* 2) *Injâ senf ast yâ bâzâr?* 3) *Bura torš ast yâ širin?* 4) *In zabân moškel ast yâ âsân?* 5) *Kelkin kojâ-st?* 6) *Dar in baks či-st?* 7) *Âftâb-o setâra dar kojâ-st?* 8) *Ânjâ šamâl ast yâ janub?* 9) *Čawki kojâ-st?* 10) *Dar ân dokân ki-st?* 11) *Ân sarbâz dar tayyâra ast yâ dar kešti?*

9-mashq. Gaplarga savollar tuzing:

1) *Injâ Tâškand ast.* 2) *Parwin dar ân maktab ast.* 3) *Dar almâri ketâb wa majalla ast.* 4) *Ânjâ kârd-o panja ast.* 5) *Šakar injâ-st.* 6) *Lebâs dar almâri-st.* 7) *Yusof dar Kâbol ast.*

10-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Oyoq kiyimi qayerda? 2) Bo'r shu yerdadir. 3) Anvar qayerda? – Anvar o'rnondadir. 4) U do'konda nima bor? – U do'konda kartoshka va sabzavot bor. 5) Laylo qayerda? – Laylo shu yerdadir. 6) Kiyim qayerda? – Kiyim u shkafdadır. 7) U mushukmi yoki it? – U mushukdir. 8) U piyolada nima bor? – U piyolada choy bor. Bu choy shirindir. 9) Bu yerda kitob, u yerda esa daftar bordir. 10) Bu maydonda kinoteatr, u maydonda esa maktab bordir. 11) U bola Maymanadami yoki Gereshkda? – U bola Maymanada. 12) U yer daryomi yoki o'rmonmi? – U yer daryodir. 13) Chipta va pul qayerda? – Chipta va pul portfeldadir. 14) Shimolda qor, janubda esa yomg'irdir.

ê va ô unlilari

ê – cho'ziq, old qator, o'rtâ va yuqori ko'tarilish orasi, lablanmagan yopiq unli tovush, turg'un; *yâ-ye majhul* ham deb ataladi. *ê* tovushi turli holatlarda kelganda, o'z sifatini o'zgartirmay cho'ziq talaffuz qilinadi. Talaffuzda lablar oldinga harakat qilmaydi, til uchi pastga qayrilib, oldi bir oz orqaga tortiladi va tanglayning o'rtâ qismiga ko'tariladi: *zérâ* 'chunki', *rësmân* 'argon', *dêwâr* 'devor'.

ð – cho‘ziq, orqa qator, o‘rtा va yuqori ko‘tarilish orasi, lablangan yopiq unli tovush, turg‘un; *wâw-e majhul* deb ham yuritiladi: *dôst* ‘do‘st’, *rôza* ‘ro‘za’, *emröz* ‘bugun’, *bôy* ‘hid’.

ê va *ô* cho‘ziq unlilari cho‘ziqlik darajasiga ko‘ra *â* dan qisqaroq, biroq *i* va *u* unlilaridan cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.

11-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yod oling:

A.

<i>zér</i>	<i>safed</i>	<i>mêwa</i>	<i>ferêb</i>	<i>pêšâni</i>
<i>mêz</i>	<i>panêr</i>	<i>kêla</i>	<i>delêr</i>	<i>šérâza</i>
<i>sêb</i>	<i>derêši</i>	<i>zêbâ</i>	<i>rêzeš</i>	<i>bêmaza</i>
<i>nêk</i>	<i>darwêš</i>	<i>dêwâr</i>	<i>bêdel</i>	<i>bêgâna</i>
<i>şir</i> – <i>şer</i>	<i>sel</i> – <i>sêl</i>		<i>bêl</i> – <i>bel</i>	
<i>niz</i> – <i>têz</i>	<i>tebb</i> – <i>sêb</i>		<i>têz</i> – <i>tez</i>	
<i>fil</i> – <i>bêl</i>	<i>bârez</i> – <i>kârêz</i>		<i>safed</i> – <i>wâred</i>	
<i>riš</i> – <i>rêş</i>	<i>jâmed</i> – <i>omêd</i>		<i>bêtâb</i> – <i>ketâb</i>	

B.

<i>nôl</i>	<i>rôy</i>	<i>dôst</i>	<i>dirôz</i>	<i>kôčak</i>	<i>tul</i> – <i>tôl</i>
<i>jôr</i>	<i>môy</i>	<i>gôšt</i>	<i>nâjôr</i>	<i>môtar</i>	<i>dur</i> – <i>zôr</i>
<i>rôz</i>	<i>jôy</i>	<i>gôsfand</i>	<i>emröz</i>	<i>kôdaki</i>	<i>bud</i> – <i>rôd</i>
<i>çôb</i>	<i>bôy</i>	<i>tarbôz</i>	<i>bâlápôš</i>	<i>rôzâna</i>	<i>rus</i> – <i>rôz</i>
<i>gor</i> – <i>gôr</i>		<i>rôz</i> – <i>boz</i>		<i>nâk</i> – <i>nôk</i>	
<i>çop</i> – <i>tôp</i>		<i>nôk</i> – <i>lok</i>		<i>jâr</i> – <i>jôr</i>	
<i>šoda</i> – <i>rôda</i>		<i>tôla</i> – <i>kolang</i>		<i>lâla</i> – <i>lôla</i>	
<i>kojâ</i> – <i>kôčak</i>		<i>môtar</i> – <i>şotor</i>		<i>râzi</i> – <i>rôzi</i>	

12-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

A. 1) *mêz-o çawki*; 2) *mêwa wa tarkâri*; 3) *bozorg-o kôčak*, 4) *derêši-wo bâlápôš*; 5) *emröz wa fardâ*; 6) *gâw-o gôsfand*; 7) *dôst-o âsnâ*; 8) *şab-o rôz*; 9) *gôšt wa berenj*; 10) *jôr-o nâjôr*; 11) *riš-o môy*.

B. 1) *In mêwa ast*. 2) *Ân mêz kôčak ast*. 3) *Şir safed ast*. 4) *In jawân besyâr delér ast*. 5) *Ân tarbôz şirin ast*. 6) *In asp ast-o ân môtar ast*. 7) *In ki-st? – In zan ast*. *In zan besyâr zêbâ-st*. 8) *Ân ci-st? – Ân dêwâr ast*. *Ân dêwâr boland ast*. 9) *Derêši kojâ-st? – Derêši dar in almâri ast*.

13-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Bu pichoq juda o‘tkirdir. 2) Bu yerda stol va stul bor. 3) Bu olma nordon, u uzum esa shirindir. 4) Bu salla oq, u salsa esa sariqdir. 5) Bu eshikmi yoki devormi? – Bu devordir. 6) Bu qo‘ymi yoki sigir? – Bu qo‘ydir. 7) Bu go‘sht yangi va mazalidir. 8) U splash jigarrangmi yoki

yashil? – U plash jigarrangdir. 9) Bu auditoriya katta, u auditoriya esa kichikdir. 10) Mashina qayerda? – Mashina ko'chadadir. 11) Bu kostyum yangi va chiroylidir. 12) Bu bola sog', u bola esa kasaldir.

Ast bog'lamasining bo'lishsiz shakli

Ast bog'lamasining bo'lishsiz shakli bog'lamaga *na-* inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi va o'zbek tiliga *emas* tarzida tarjima qilinadi. *Ast* bog'lamasi bilan *na-* inkor yuklamasi bir-biri bilan qo'shilganda, *ast* dagi va *na-* dagi qisqa a unlilari yozuvda tushib qoladi va ular o'mnini bir cho'ziq unli *é* egallaydi.

In | ketâb | nêst

'Bu kitob emas'

Môtár | náw | nêst

'Avtomobil yangi emas'

Agar gapda ega ikkita kesim bilan ishlatilgan va kesimlardan biri bo'lishli, ikkinchisi bo'lishsiz shaklda bo'lsa, bu kesimlar bog'lovchisiz birikadi, masalan:

In | čawki nêst ↗ | mêtz ast ↘ | 'Bu stul emas, stoldir'

14-mashq. O'qing va tarjima qiling:

- 1) *In tarbóz nêst.* 2) *An dokân bozorg nêst.* 3) *In teka zêbâ nêst.* 4) *In tarjoma dorost ast-o an tarjoma dorost nêst.* 5) *In şir tâza nêst wa an şir besyâr tâza ast.* 6) *In ketâb nêst, ketâbça ast.* 7) *In gâw nêst, gôsjand ast.* 8) *In môtar pâk nêst, čerk ast.* 9) *An sinamâ bozorg nêst, kôčak ast.*

15-mashq. Birinchi ustundan gapning birinchi qismini, ikkinchi ustundan esa ikkinchi qismini tanlagan holda gap tuzing:

Injâ

mazadâr nêst

Bura

moškel nêst, âsân ast.

Âsmân

môtar nêst.

In mêwa

mêtz-o čawki nêst.

Barf

naw nêst.

In dars

boland nêst.

Dar an jâdda

zard nêst, safed ast.

An mamlakat

torş nêst, širin ast.

In bâlâpoš

dar Âsyâ nêst.

An dêwâr

naswâri nêst, âbi-st.

16-mashq. Gaplarni namunadagi kabi tugating:

A. Berilgan: *In sēb mazadār ast-o . . .*

Bajaring: *In sēb mazadār ast-o ān sēb mazadār nēst.*

- 1) *Ān zan dāktar ast-o . . .* 2) *In čāy širin ast wa . . .* 3) *In almāri naw ast wa . . .* 4) *In gōšt tāza-st-o . . .* 5) *In dēwār boland ast-o . . .*
- 6) *In kārd tēz ast wa . . .*

B. Berilgan: *In āb garm nēst . . .* ;

Bajaring: *In āb garm nēst, sard ast.*

- 1) *In mard mariz nēst . . .* 2) *Ān sēb torš nēst . . .* 3) *In teku zēbā nēst . . .* 4) *Ān zan pir nēst . . .* 5) *In gol zard nēst . . .* 6) *In zabān moškel nēst . . .*

17-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Bu uzum shirin emas. 2) U olma mazali emas. 3) Bu jurnal qiziqarli, u jurnal esa qiziqarli emas. 4) Bu stol yangi emas, u stol esa yangidir. 5) U kishi qari emas, yoshdir. 6) Uplash yashil emas, jigarrangdir. 7) U oila katta emas, kichkinadir. 8) Bu bola sog'lom emas, kasaldir. 9) Yusuf vatanida emas, Toshkentdadir. 10) Bu do'kon kir emas, tozadir.

So‘roq gapning tuzilishi

Dariy tilida so‘roq gap asosan so‘roq olmoshlari, intonatsiya va so‘roq yuklamalari orqali tuziladi.

1. *ke/ki* va *če /či* so‘roq olmoshlari orqali tuziladi. Masalan:

In kist ‘Bu kim (dir)?’

In čist ‘U nima (dir)?’

2. Intonatsiya orqali savol anglashiladi.

Ot-kesimli sodda yig‘iq gapdan so‘roq gap tuzish uchun, gapning oxirgi qismini kuchli so‘roq ohangida talaffuz qilish kerak. Masalan:

In qalam ast? ‘Bu ruchkami?’

Ān sēb širin ast? ‘U olma shirinmi?’

3. Ko‘pincha gap boshiga *āyā* va *magar* so‘roq yuklamalarini keltirish orqali tuziladi. Masalan:

Anwar injā-st? yoki *Ayā Anwar injā-st?* ‘Anvar shu yerdami?’

Āyā ān doxtar dāktar ast? ‘U qiz shifokormi?’

Magar so‘roq yuklamasi so‘roq gapda aytilgan fikrga nisbatan shubha, ishonchsizlik ma’nolarini bildirgan hollarda ishlataladi va o‘zbek tilidagi nahotki so‘ziga to‘g‘ri keladi. Masalan:

Magar ān doxtar dāktar ast? ‘U qiz shifokormi? (Nahotki, u qiz shifokor bo‘lsa?)’

Magar in qalam ast? ‘Bu qalamimi? (Nahotki, bu ruchka bo‘lsa?)’

Talaffuzda *âyâ* va *magar* yuklamalari gapning boshqa bo‘laklaridan kichik pauza bilan ajratib talaffuz qilinadi. Undan so‘ng esa gap so‘roq intonatsiyasi bilan o‘qiladi.

So‘roq gapdagagi javob ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. So‘roq gapning javobi ijobiy bo‘lsa, gap boshiga tasdiq ma’nosini anglatuvchi *bâle* so‘zi qo‘yiladi va o‘zbek tiliga “ha” deb tarjima qilinadi. So‘roq gapning javobi salbiy bo‘lsa, gap boshiga inkor ma’nosini anglatuvchi *na* (yoki *naxayr*) so‘zi qo‘yiladi va o‘zbek tiliga ‘yo‘q’ deb tarjima qilinadi; bunda inkor so‘zidan tashqari, gap kesimi ham bo‘lishsiz shaklda keladi.

Bâle va *na* so‘zлari *âyâ* yuklamasi kabi gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqada bo‘lmaydi. Talaffuzda esa bu yuklamalardan so‘ng kichik pauza hosil qilinib, so‘ng gapning boshqa bo‘laklari o‘qiladi.

- (*Âyâ*) *Laylâ mariz ast?* – *Laylo kasalmi?*
- *Bâle, Laylo mariz ast.* – *Ha, Laylo kasal.*
- *Na, Laylâ mariz nêst.* – *Yo‘q, Laylo kasal emas.*

18-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- 1) *Âyâ ân mard kârgar ast?* – *Bâle, ân mard kârgar ast.* 2) *In kabâb ast?* – *Na, in kabâb nêst, palaw ast.* 3) *Ân sinamâ naw ast?* – *Bâle, ân sinamâ naw ast.* 4) *Âyâ in tarbôz kôčak ast?* – *Na, in tarbôz kôčak nêst, bozorg ast.* 5) *Ân ketâb delčasp ast?* – *Bâle, ân ketâb besyâr delčasp ast.* 6) *Âyâ in asp ast?* – *Bâle, in asp ast.* – *In asp safed ast?* – *Na, in asp safed nêst.*

19-mashq. Birinchi ustundan gapning birinchi qismini, ikkinchi ustundan esa ikkinchi qismini tanlagan holda gap tuzing:

<i>In či-st?</i>	<i>Na, šakar torš nêst, şirin ast.</i>
<i>Ân ki-st?</i>	<i>In gol safed ast.</i>
<i>Ketâbča kojâ-st?</i>	<i>Bale, Parwin besyâr zêbâ-st.</i>
<i>Ânjâ tabâšir ast yâ kêtâb?</i>	<i>Dar ân dokân nân ast.</i>
<i>Šakar torš ast?</i>	<i>In mewa-st.</i>
<i>Dar ân dokân či-st?</i>	<i>Bale, in gôşt tâza ast.</i>
<i>Âyâ âsmân âbi-st?</i>	<i>Na, ân bačča dar senf nêst.</i>
<i>In kârd têz ast?</i>	<i>Ân afsar ast.</i>
<i>In gol zard ast yo safed?</i>	<i>Ânjâ tabâšir ast, ketâb nêst</i>
<i>In gôşt tâza ast?</i>	<i>Na, in kârd têz nêst.</i>
<i>Ân bačča dar senf ast?</i>	<i>Bale, âsmân âbi-st.</i>
<i>Âyâ Parwin zêbâ-st?</i>	<i>Ketâbča dar almâri-st.</i>

20-mashq. Savollarga tasdiq yoki iñkor shaklda javob bering:

- 1) Áyâ in gôsfand ast? 2) Áyâ ân jöy ast? 3) In jawân dalêr ast?
- 4) In derësi naw ast? 5) Ân mëwa tâza ast? 6) Áyâ in jomla darâz ast?
- 7) Yusof sarbâz ast? 8) Ân dokân bozorg ast? 9) Áyâ in âb pâk ast?
- 10) Áyâ in peyâla zêbâ-st?

21-mashq. Antonimlarni yozing:

mard, mâdar, zamin, janub, šab, jawân, mariz, dur, kôčak, garm, pâk, moškel, in, fardâ, injâ, balê.

22-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Bu tuyami? – Yo‘q, bu tuya emas, buqadir. 2) Bu yer bozormi? – Yo‘q, bu yer bozor emas. Bu yerda odamlar yo‘q. – Bozor qayerda? Bozor u yerda. 3) Bu maktabmi? – Ha, bu maktabdir. – Bu maktab yangimi? – Ha, bu maktab yangidir. 4) Bu eshikmi? – Yo‘q, bu eshik emas, devordir. – Bu devor oqmi? – Yo‘q, bu devor oq emas, havorangdir. 5) Bu nonmi? – Ha, bu non. – Bu non yangimi? – Ha, bu non yangidir. 6) Bu mandarinmi? – Yo‘q, bu mandarin emas, apelsindir. – Bu apelsin nordonmi? – Yo‘q bu apelsin nordon emas, u apelsin esa nordondir. 7) U piyoladagi sutmi yoki choy? – U piyoladagi choydir. – U choy issiqmi? – Ha, u choy juda issiqdir. – U choy shirinmi? – Yo‘q, u choy shirin emas. 8) U mamlakat qayerda joylashgan? – U mamlakat Osiyoda joylashgandır. – U mamlakat kattami? – Yo‘q, u mamlakat katta emas. – U mamlakat chiroylimi? – Ha, u mamlakat juda chiroylidir. 9) U guruchmi yoki jo‘xori? – U jo‘xori emas, guruchdir. – U guruch mazalimi? – Ha, u guruch juda mazalidir. 10) Bu kitobmi? – Yo‘q, bu kitob emas, jurnaldir. – Bu jurnal qiziqarlimi? – Yo‘q, bu jurnal qiziqarli emas. 11) U nima? – U do‘kondir. – U do‘konda nima bor? – U do‘konda meva va sabzavotlar bor. U do‘konda go‘sht yo‘qmi? – Yo‘q, u do‘konda go‘sht yo‘q. 12) U guruh qayerda? – U guruh auditoriyadadir. U guruh kattami? – Yo‘q, u guruh katta emas, kichkinadir. 13) Bu ko‘chami? – Ha, bu ko‘chadir. – Bu ko‘cha torini? – Yo‘q, bu ko‘cha tor emas. – Bu ko‘cha uzunmi? – Ha, bu ko‘cha uzundir. – Bu ko‘chada nima bor? – Bu ko‘chada kinoteatr bor.

Lug‘at

لباس <i>lebâs</i>	kiyim	پياله <i>peyâla</i>	piyola
پياز <i>peyâz</i>	piyoz	دل <i>del</i>	yurak
صنف <i>senf</i>	sinf	شتر <i>şotor</i>	tuya
چرك <i>čerk</i>	ifles, kir	درست <i>dorost</i>	to‘gri

بسیار	<i>besyâr</i>	juda	بروت	<i>borut</i>	mo'ylov
دلچسب	<i>delčasp</i>	qiziqarli	گروپ	<i>gorup</i>	guruh
کلکین	<i>kelkin</i>	deraza	و	<i>-o, wa</i>	va, esa (bog'lovchi)
تکه	<i>teka</i>	mato	در	<i>dar</i>	...da
پشک	<i>pešak</i>	mushuk	اینجا	<i>injâ, injâ</i>	bu yer
كتاب	<i>ketâb</i>	kitob	آنجا	<i>ānja,</i> <i>ānja,</i>	u yer
تکت	<i>teket</i>	bilet	کجا	<i>kojâ</i>	qayer
کئشى	<i>kešti</i>	kema	مېز	<i>mêz</i>	stol
ستاره	<i>setâra</i>	yulduz	سېب	<i>sêb</i>	olma
كتابچە	<i>ketâbčâ</i>	daftar	سفید	<i>safed</i>	oq
گرشك	<i>Gerešk</i>	Girishk	دریشى	<i>deresi</i>	kostyum
برادر	<i>berâdar</i>	aka (yoki uka)	مېوه	<i>mêwa</i>	meva
کجا	<i>kojâ</i>	qayer	زېبا	<i>zêbâ</i>	chirolyi
دکان	<i>dokân</i>	do'kon	دیوار	<i>dêwâr</i>	devor
بلند	<i>boland</i>	baland	دلیر	<i>delér</i>	qo'rqmas, jasur
حوارى	<i>jowâri</i>	jo'xori	تىز	<i>têz</i>	tez, o'tkir
گل	<i>gol</i>	gul	جور	<i>jôr</i>	sog'
ترش	<i>torš</i>	nordon	روز	<i>rôz</i>	kun
بىزىرگ	<i>bozorg</i>	katta	روى	<i>rôy</i>	yuz
كابل	<i>Kâbol</i>	Kobul	موى	<i>môy</i>	soch
يوسف	<i>Yusof</i>	Yusuf	جوى	<i>jöy</i>	ariq
جمله	<i>jomla</i>	gap	دوست	<i>dost</i>	do'st
لنگى	<i>longi</i>	salla	گوشىت	<i>gošt</i>	go'sht
مشكل	<i>moškel</i>	qiycin	گوسفند	<i>goſfand</i>	qo'y
گندم	<i>gandom</i>	bug'doy	تاربوز	<i>tarbôz</i>	tarvuz
مردم	<i>mardom</i>	xalq	ديروز	<i>dirôz</i>	kecha
ترجمه	<i>tarjoma</i>	tarjima	ناجور	<i>nâjôr</i>	kasal
پشت	<i>pošt</i>	orqa	امروز	<i>emrôz</i>	bugun
كوجى	<i>kôčak</i>	kichik	بالاپوش	<i>bâlâpoš</i>	palto, yoping'ich
موتر	<i>môtar</i>	avtomashina, mashina	آيا	<i>âyâ</i>	mi
			بلى	<i>bâle</i>	ha
			نه	<i>na</i>	yo'q

TO'RTINCHI DARS

درس چهارم

Alifbo

الفبای دری *alefbâ-yé dari*

Afg'onlar (forsiyzabon xalqlar) VII asrdan boshlab to shu kunga qadar o'z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush sistemasini to'la aks ettira olgan arab alifbosi dariy tilidagi tovushlarini to'la ifodalay olmadi. Bunga sabab, birinchidan, dariy tili fonetik sistemasiga tamoman yot bo'lgan bir necha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, dariy tilining xususiyatlarini ifoda etuvchi spetsifik tovushlarning arab tili tovushlari sistemasida bo'lmasligi va ularni yozuvda ifodalovchi ma'lum harflarning arab alifbosida yo'qligi bo'ldi.

Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, dariy tilining o'z spetsifik tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda quyidagi 4 harf kiritilgan: پ p, ڇ ڙ, ڇ ڻ, گ ڱ g.

Harflar o'ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o'qiladi. Atoqli otlar, gapning boshlanishi uchun maxsus bosh harflar yo'q.

O'zidan oldingi harfga qo'shilib keyingisiga qo'shilmaydigan harflar 7 ta bo'lib, 2 shaklga ega va dariy grammatisida حروف منفصلة *horuf-e monfasela* (ayrilgan harflar) deb ataladi. Bular quyidagilar:

ا alef د dâl ذ zâl ر râ' ج zê ڇ ڻ ڻ ڻ و wâw.

O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladigan harflar 25 ta bo'lib, 4 shaklga ega va dariy grammatisida حروف متصلاه *horuf-e mottasela* (qo'shilgan harflar) deb ataladi. Bular quyidagilar:

ب ب ت ث ج ڇ س ش ص ض ط ڻ ع ڻ ف ق ک ڱ ل م ن ه ڻ ڻ

Shunday qilib, dariy alifbosidagi 32 harfdan 25 tasi yozuvda 4 ta, 7 tasi 2 ta shaklga ega. Bu harflar asosan 16 ta belgidan iborat bo'lib, ularning ost yoki ustiga bir, ikki va uchtadan nuqta qo'yish orqali harflarning soni ko'paytirilgan.

Unli tovushlar yozuvda harf ustki va ostki belgilardan foydalananilgan holda ifodalananadi.

Z, s, t, h tovushlarini yozuvda ifodalash uchun alifboda 2, 3, 4 tadan harf mavjud. Dariy yozuvida odatda (*) «madda»dan boshqa hamma qo'shimcha belgililar tushib qoladi, ular o'quv qo'llanmalari va omograf so'zlarda qo'llanishi mumkin.

O‘zidan keyingi harflarga qo‘silmaydigan harflar

Alef – satr usti harfi. So‘z boshida I ustiga $\text{madd} \ll \sim \gg$ belgisi qo‘ylisa a tovushini ifoda etadi. So‘z o‘rtasi va oxirida *madd* belgisi qo‘yilmaydi va a tovushini beradi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>alef</i>	â, a, e, o	l	-	-	l

Däl – satr usti harfi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>däl</i>	d	ʌ	-	-	ʌ

Zäl – satr usti harfi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>zäl</i>	z	ɔ	-	-	ɔ

Rê – satr osti harfi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>rê</i>	r	ɔ	-	-	ɔ

Zê – satr osti harfi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>zê</i>	z	ɔ	-	-	ɔ

Žê – satr osti harfi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>žê</i>	ž	ɔ	-	ɔ	ž

Wâw – satr osti harfi bo‘lib, u, ô, w tovushlarini ifodalaydi. So‘z boshida *alef* harfidan keyin yoki so‘z o‘rtasi va oxirida undoshdan so‘ng kelsa, cho‘ziq u, ô tovushlarini ifodalaydi. So‘z boshida w tovushini, so‘z o‘rtasi va oxirida unlidan so‘ng kelsa, w tovushini ifodalaydi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alovida shakli
<i>wâw</i>	u, ô, w	ɔ	-	-	ɔ

1-mashq. O'qing:

راز - زار - دار - داد - ودار - ژاڙ - دارا - واو
نو - دود - دور - زود - دارو - دو (u)
روز - زور - رود (o)

2-mashq. Ko'chiring:

راز دار راڙ روز ذو دارو

3-mashq. Quyidagi so'zlarni grafikada yozing:

dâr, wâz, zud, râz, žâž, zâd, dâru, wâdâr, dârâ, wâw, dud, râd, dâdâr, rôz, râ, zâr, du, zôr, dâd, wâr, rôd, dâw, râdâr, rô, žâd.

ب، پ، ت، ث، ټ، ټ، ټ، ټ harflari

Bê harfi satr usti harfi bo'lib, 4 shaklga ega. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alovida shakli
bê	b	ب	ٻ	ٻ	ٻ

ٻ = ٻ + ٻ = bâ (old ko'makchi) 'bilan', بابا bâbâ 'ota'



برگ بکس

Pê harfi satr usti harfi bo'lib, 4 shaklga ega. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alovida shakli
pê	p	پ	ٻ	ٻ	ٻ

ٻ = ٻ + ٻ = pâ 'oyoq'



پشк



Tē harfi satr usti harfi bo'lib, 4 shaklga ega. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladi. Masalan:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtaida	So'z boshida	Alovida shakli
<i>tē</i>	t	ت	ت	ت	ت



توب



تلفون



Sē harfi satr usti harfi bo'lib, 4 shaklga ega. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtaida	So'z boshida	Alovida shakli
<i>sē</i>	s	ث	ث	ث	ث

ثبات *sabāt* 'barqarorlik', ثبت *sabt* 'qayd qilish', ثروت *sarwat* '



ثروت

4-mashq. O'qing:

با - ئا - باد - تار - پاو - باز - بازار - بادар - تاتار
 تاب - باب - پاپ - ذات - وات - بازتاب
 بود - پور - باروت - توت - تابوت (u)
 تور - بور - توب - بازو (ö)

5-mashq. Ko'chiring:

بَادَّارَ بَادَّارَ تَابَ نَاتَ بُودَ تُوبَ

6-mashq. Grafikada yozing:

bâzâr, tâbut, bâbâ, tôp, bârut, tôr, tâb, bâdâr, bud, tâtâr, wât, tut, bâb, tâb, pâw, târ, bâzô, bôr.

Qisqa unlilarning yozuvda ifodalanishi

Dariy tilida qisqa unlilar harflarning osti va ustiga qo'yiladigan **harakat** deb ataluvchi **diakritik belgilar** orqali ifodalanadi. Harakat qaysi harfning ustiga yoki ostiga qo'yilsa, avval harakat qo'yilgan undosh o'qilib, so'ngra harakat talaffuz qilinadi.

1. So'z boshida qisqa a unlisi **alef** harfining ustiga satr ustki -ö— belgisini qo'yish orqali ifoda etiladi. Dariy tili grammatikasida bu belgi **zabar** (*ustida, tepasida degan ma'noda*) deyiladi. Bunda **alef** butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi. Masalan: اثر *asar* ‘asar’, پوئل *abr* ‘bulut’, اندر *anâr* ‘anor’.

Qisqa a unlisi so'z o'rtasida o'zidan oldin kelayotgan undosh harfning ustiga **zabar** belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan: در *dar* ‘...da’ (*old ko'makchi*), تر *zar* ‘tille’, ‘zar’.

2. So'z boshida qisqa e unlisi **alef** harfining ostiga satr ostki -ö— belgisini qo'yish orqali ifoda etiladi. Dariy tili grammatikasida bu belgi **zér** (*ostida, tagida degan ma'noda*) deb ataladi. Bunda **alef** butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi. Masalan: ارث *ers* ‘meros’, انبات *esbât* ‘isbot’.

Qisqa e unlisi so'z o'rtasida o'zidan oldin kelayotgan undosh harfning ostiga **zér** belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan: دز *dež* ‘qal'a’, وارث *wâres* ‘voris’.

شماره روزنامه نسبت به آن شماره تازه تر است. ۵) پدر علی از مادرش ده
سال پیرتر است. ۶) اتاق موسی نظر به اتاق شما پاکتر است. ۷) این درخت
از آن درخت دو متر بلندتر است. ۸) آن راه نظر به این راه پانزده کیلومتر
کوتاهتر است. ۹) موترما از موتر شما جدیدتر است. ۱۰) شهر من نسبت به
شهر تو از تاشکند دورتر است. ۱۱) این تربوز از آن خربوزه سنگینتر است
۱۲) میدان هوای کابل نظر به میدان هوای تاشکند کوچکتر است. ۱۳)
زمستان ازیکستان نظر به زمستان افغانستان سردتر است. ۱۴) این جاده
نمیبدت، به آن کوچه عریض تر است.

9-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Bu olma nordondir. Shirinroq olma qani? 2) Men sening
opangdan yoshman, lekin akangdan kattaman. 3) Bu yaxshi lug‘atdir.
Bundan yaxshiroq lug‘at menda yo‘q. 4) Kuz yozdan şovuqroq, qish esa
yanada sovuqroqdir. 5) Bu eron filmi u hind filmidan qiziqarliroqdir.
6) Bu daryo kengdir, u daryo esa yanada kengroq. 7) Bugun tun kundan
ikki soatga uzundir. 8) Kandahor shahri Chorikordan kattaroq, ammo
Kobuldan kichikroqdir. 9) Sen mendan necha yosh kichikroqsan? – Men

sendan 5 yosh kichikroqman. 10) Qodirning oylik maoshi Ibrohimnikidan ikki baravar ko‘p. 11) Bu yo‘l unisidan uch baravar qisqaroq. 12) Sizning chamadoningiz menikidan ikki baravar og‘irroq.

21 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar

۲۰	سی	<i>si</i>	‘o‘ttiz’
۴۰	چهل	<i>čehel, čel</i>	‘qirq’
۵۰	پنجاه	<i>penjâh</i>	‘ellik’
۶۰	شصت	<i>šast</i>	‘oltmish’
۷۰	هفتاد	<i>haftâd</i>	‘yetmish’
۸۰	هشتاد	<i>haštâd</i>	‘sakson’
۹۰	نود	<i>nawad</i>	‘to‘qson’
۱۰۰	صد	<i>sad</i>	‘yuz’

Yigirmadan yuqori bo‘lgan barcha miqdor sonlar bir-birlari bilan *wa* bog‘lovchisi orqali bog‘lanib, murakkab son hosil qiladi. Bog‘lovchi talaffuzda o‘z oldidagi songa qo‘silib, -o tarzida (*wa emas!*) talaffuz qilinadi, yozuvda esa ajralgan holda yoziladi. Kuchliroq urg‘u ikkinchi komponentga tushadi, masalan:

سی و دو *sì-wo-dú* ‘o‘ttiz ikki’
چهل و چهار *čehèl-o-čahár* ‘qirq to‘rt’

10-mashq. Sonlarni dariy tilida o‘qing:

۱۰۰ – ۳۲ – ۵۴ – ۸۲ – ۷۰ – ۴۸ – ۲۵ – ۶۳ – ۳۷ – ۹۱
۳۵ – ۸۹ – ۷۶ – ۴۸ – ۶۴ – ۸۱ – ۲۳ – ۹۰ – ۵۰ – ۷۸ –

Son va ot birikmasining kesim ot qismi vazifasida qo‘llanishi

Son va ot birikmasi gapda kesimning ot qismi vazifasida fe‘l bog‘lamasi oldida keladi, masalan:

سن من بیست و يك سال است *Senn-e man bist-o-yak sâl ast*

‘Mening yoshim 21 da’

قیمت این کتاب شصت افغانیست *Qimat-e in ketâb šast afğâni-st*

‘Bu kitobning qiymati 60 afg‘oniydir’

Kesimning ot qismiga savol چند *čand* ‘necha?’, ‘qancha?’ olmoshi orqali beriladi:

سن شما چند است؟ *Senn-e şomâ čand ast?*

‘Sizning yoshingiz nechada?’

Bu kabi gaplar *dâstan fe'li* ham ifodalanadi, masalan:
 دوست من بیست سال دارد *Dôst-e man bist sâl dârad*
 ‘Do’stim 20 yoshda’
 شما چند سال دارید؟ *Šomâ čand sâl dârêd?*
 ‘Siz necha yoshdasiz?’
 این کتاب چند قیمت دارد؟ *In ketâb čand qimat dârad?*
 ‘Bu kitobning narxi qancha?’ (‘Bu kitob qancha turadi?’)

11-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

(۱) قیمت این مجله ۳۵ افغانیست. (۲) پدرم ۴۸ و مادرم ۴۶ سال دارد. (۳) آن کشور تقریباً ۶۳ میلیون نفر نفوس دارد. (۴) رخصتی شما چند روز است؟ – رخصتی ما ۲۴ روز است. (۵) گروپ تان چند نفر است؟ – گروپ ما ۲۱ نفر است. (۶) این سرک چند کیلومتر است؟ – این سرک ۷۷ کیلومتر است. (۷) آن کتاب چند صفحه است؟ – آن کتاب ۹۴ صفحه است. (۸) یک درس شما چند دقیقه است؟ – یک درس ما ۸۰ دقیقه است.

12-mashq. Savollarga javob bering:

(۱) یک ساعت چند دقیقه است؟ (۲) یک روز چند ساعت است؟ (۳) یک هفته چند روز است؟ (۴) یک ماه چند روز است؟ (۵) یک سال چند ماه است؟ (۶) سن شما چند است؟ (۷) فامیل شما چند نفر است؟ (۸) پدرتان، (مادرتان، برادرتان، خواهرتان) چند سال دارد؟ (۹) اپارتمن شما چند اتاق است؟ (۱۰) عمارت شما چند منزل است؟ (۱۱) نفوس شهر شما چند است؟ (۱۲) تعمیر فاکولتة تان چند طبقه است؟ (۱۳) گروپ شما چند نفر است؟ (۱۴) لیلیه شما چند منزل است؟ (۱۵) هر منزل لیلیه تان چند اتاق است؟ (۱۶) رخصتی تابستانی تان چند ماه است؟ (۱۷) رخصتی تابستانی تان چند روز است؟

13-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Men 18 yoshdaman, mening akam esa 23 yoshdadir. 2) Bu binoda 9 ta qavat va har bir qavatda 8 tadan xona bor. 3) Bizning institutda 54 ta auditoriya bor. 4) Bu oyda necha kun bor? – Bu oyda 31 kun bor. 5) U kitob necha pul turadi? – U kitob 95 afg‘oniy turadi. 6) Sizning o‘qituvchingiz necha yoshda? – Bizning o‘qituvchimiz 43 yoshdadir. 7) Bu viloyat aholisining soni qancha? – Bu viloyat aholisini taxminan 2 million kishidir. 8) Bu jurnalda necha bet bor? – Bu jurnalda 24 ta bet bor. 9) Dariy tili alifbosida (القبا) nechta harf bor? – Dariy tili alifbosida 32 ta harf bor. 10) Aeroportga necha kilometr bor? – Aeroportga 25 kilometr bor. 11) Sening o‘g‘ling necha yoshda? – Mening o‘g‘lim 6 oylikdir.

Tartib sonlar

عدد ترتيبی یا وصفی *a'dâd-e tartibi yâ wasfi*

Tartib sonlar predmetning sanoq jihatdan tartibini bildiradi. Dariy tilida tartib son sanoq songa م -om (o'zbek tilida -/i/nchi) affiksini qo'shish orqali yasaladi; urg'u -om affiksiga tushadi, masalan:

پنج *panj* 'besh'

هشت *hašt* 'sakkiz'

ده *dah* 'o'n'

پنجم *panjóm* 'beshinch'i'

هشتم *haštóm* 'sakkizinch'i'

دهم *dahóm* 'o'ninch'i'

du, سے *se*, سی *si* sonlaridan tartib son yasashda quyidagi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi:

دو *du* – دوم *dowwóm* 'ikkinch'i',

سوم *so(w)wóm*, *sewwóm* 'uchinch'i',

سی ام *siyóm* 'o'ttizinch'i'.

Dariy tilida يک *yakom* 'birinchi' tartib soni bilan bir qatorda, shu sonning arabcha shakli اول *awwal* ko'p qo'llanadi.

Murakkab sonlarda م -om affiksi sonning oxirgi qismiga qo'shiladi: هزار و نهصد و بیست و پنج *hazâr-o-nohsad-o-bist-o-panjom* 'bir ming to'qqiz yuz yigirma beshinch'i'.

Dariy tilida يک *yakom* 'birinchi' tartib soni bilan bir qatorda, shu sonning arabcha shakli اول *awwal* ko'p qo'llanadi. Biroq murakkab sonlarda oxirgi son يك *yak* 'bir' bo'lsa, faqat يک *yakom* ishlatalidi, masalan:

سی و يک *si-wo-yakom* 'o'ttiz birinchi'

Tartib sonlar aniqlanmishdan keyin kelib, u bilan izofa orqali bog'lanadi:

سال اول *sâl-e awwal* 'birinchi yil'

درس چهارم *dars-e čâhârom* 'to'rtinchi dars'

درس چند؟ *dars-e čandom?* 'nechanchi dars?'

Agar tartib son raqamni bildirsa, sanoq songa almashtirish mumkin, masalan:

صفحة نود و يک *safha-ye nawad-o-yakom* } صفحه نود و يک *safha-ye nawad-o-yak* } 91- bet

14-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Men Kobul universitetining birinchi bosqich talabasiman. 2) Biz yigirma beshinch'i xonadamiz. 3) Bugun bizning birinchi darsimiz dariy tili darsidir. 4) Ularning xonadoni beshinch'i qavatdadir. 5) Dovudning katta

о‘г‘ли Kobul maktabining to‘qqizinchi sinf о‘quvchisidir (شلگىد).
 6) Mening akamning oilasi 1-mikrorayonning о‘ttiz uchinchi korpusida yashaydi. 7) Hozir nechanchi dars? – Hozir uchinchi darsdir. 8) Siz nechanchi bosqich talabasisiz? – Men ikkinchi bosqich talabasiman. 9) Sening opang nechanchi xonada yashaydi? – U oltmisbirinchi xonada yashaydi. 10) Bu mashq nechanchi betda? – Bu mashq qirq ikkinchi betda.

Qarindoshlik terminlari

برادرزاده	<i>berâdarzâda</i>	‘jiyan’ (aka yoki ukaning farzandlari)
خواهرزاده	<i>xâharzâda</i>	‘jiyan’ (opa yoki singilning farzandlari)
همشیره زاده	<i>hamşirazâda</i>	
کاکا	<i>kâkâ</i>	‘amaki’
ماما	<i>mama</i>	‘tog‘a’
عممه	<i>'amma</i>	‘amma’
خاله	<i>xâla</i>	‘xola’
پدركلان	<i>padarkalân</i>	‘buva’
مادركلان	<i>mâdarkalân</i>	‘buvi’
نواسه	<i>nawâsa</i>	‘nabira’
کواسه	<i>kawâsa</i>	‘evara’
خسر	<i>xosor</i>	‘qaynata’
خشو	<i>xošu</i>	‘qaynana’
داماد	<i>dâmâd</i>	‘kuyov’ (qizning eri)
عروس	<i>'arôs</i>	‘kelin’ (o‘g‘ilning xotini)
اور	<i>êwar</i>	‘qaynag‘a’, ‘qayni’ (erning aka-ukasi xotiniga nisbatan)
ننو	<i>nanô</i>	‘qaynegachi’, ‘qaynsingil’ (erning opa-singlisi xotiniga nisbatan)
خسیره	<i>xosorbora</i>	‘qaynag‘a’, ‘qayni’ (xotinining aka-ukasi eriga nisbatan)
خیاشنه	<i>xeyâšna</i>	‘qaynegachi’, ‘qaynsingil’ (xotinining opa-singlisi eriga nisbatan)
خاشنه	<i>xâšna</i>	

Amakivachcha va *xolavachcha* tushunchalari dariy tilida kimning о‘г‘ли yoki qizi ekanligidan kelib chiqib izohlanadi, masalan:

بچه کاکا	<i>bačča-ye kâkâ</i>	‘amakivachcha’ (amakinining о‘г‘ли)
دختر خاله	<i>doxtar-e xâla</i>	‘xolavachcha’ (xolaning qizi)

15-mashq. Qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlarning qisqa ekvivalentlarini bering:

خواهر شوهر؛ پدر مادر؛ براذر پدر؛ دختر خواهر؛ براذر زن؛
خواهر پدر؛ مادر زن؛ بچه براذر مادر؛ مادر پدر؛ زن پسر؛ دختر
خواهر پدر؛ شوهر دختر؛ براذر شوهر؛ پدر زن.

Matn

Фамил

- اسم تан چیست؟
- اسم من محمد. انور است.
- سن شما چند است؟
- من سی و پنج سال دارم.
- وظیفه تان چیست؟
- من انجنیر فایریکه خانه سازی هستم.
- شما زن و اولاد دارید؟
- بله، من زن و سه اولاد دارم، یعنی دو بچه و یک دختر.
- خاتم تان چه وظیفه دارد؟
- خانم فعلاً بیکار است.
- بچه کوچکتر شما چند سال دارد؟
- بچه کوچکترم خورد است و سنس فقط پنج سال است.
- دختر تان هم خورد است؟
- نه، دخترم نسبتاً کلان است. او ده سال دارد و متعلمہ صنف سوم لیسه ملالي است.
- بچه کلانتر شما چند سال دارد؟
- بچه کلانترم دوازده سال دارد. او متعلم لیسه استقلال است.
- شما براذر و خواهر دارید؟
- بله، من دو براذر و دو خواهر دارم.
- آنها نسبت به شما کلان هستند یا خورد؟
- یک براذر و یک خواهرم نسبت به من خورد هستند و یک براذر و یک خواهرم از من کلانتر هستند.
- براذر خورد تان چه مصروفیت دارد؟
- براذر خوردم محصل پوهنتون است. رشته اش اقتصاد است.
- او محصل صدف چند است؟
- او محصل صدف چهارم است.
- براذر کلان تان چه وظیفه دارد؟

- برادر کلام مدیر مکتب است.
 - او از شما چند سال کلانتر است?
 - برادرم از من سه سال کلانتر است. او سی و هشت سال دارد.
 - او هم اولاد دارد؟
 - بله، او یک دختر دارد.
 - من برادرزاده تان چند است?
 - برادرزاده ام همسن دخترم است. هر دوی شان در یک صنف هستند.
 - زن برادر تان کجا وظیفه دارد?
 - زن برادرم معلمہ مکتب است.
 - هر دو خواهر تان با شما یکجا هستند؟
 - خواهر خورنم با ما یکجاست، ولی خواهر کلام شوهر دارد و خانه اش علیحده است.
 - خانه اش کجاست?
 - اپارتمانش در بلاک سی و دوم مکروریان اول است.
 - خواهر خورد شما کجا وظیفه دارد?
 - او مأموره وزارت مالیه است.
 - خواهر کلام تان هم مأموره است؟
 - نه، خواهر کلام در خانه است. او پنج اولاد دارد و کار خانه اش زیاد است.
 - شوهر او چه مصروفیت دارد?
 - شوهرش افسر است.
 - پدر و مادر تان در خانه شما هستند؟
 - بله، پدر و مادرم و بچه کاکایم با ما یکجا هستند. فامیل ما سیزده نفر است.
 - پدر تان چه وظیفه دارد?
 - حالا چون سنش زیاد است وظیفه ندارد، متقاعد است.
 - بچه کاکای تان جوان است?
 - بله، او نزده سال دارد. او محصل پولی تذنیک است.
 - او هم زن و اولاد دارد؟
 - نه، او هنوز مجرد است، اما نامزد دارد.

Matnga sharh

1. Dariy tilida otlar jins kategoriyasiga ega emas. Biroq arab tilidan kirib kelgan *mozakkar* (*erkaklar uchun*) va مؤنث *moannas* (*ayollar*

uchun) rodga taalluqli otlarda ayollarning ismi, kasb-hunari otlaridagi urg‘uli ◦ -a jinsning morfologik belgisi hisoblanadi, masalan:

فرید	<i>Farid</i>	‘Farid’ (o ‘g’il bola ismi)	-
فريده	<i>Faridá</i>	‘Farida’ (qiz bola ismi)	-
نجيب	<i>Najib</i>	‘Najib’ (o ‘g’il bola ismi)	-
نجيبة	<i>Najibá</i>	‘Najiba’ (qiz bola ismi)	-
معلم	<i>mo ‘allem</i>	‘muallim’, ‘o‘qituvchi’ (erkak, ayol)	-
معلمه	<i>mo ‘allemá</i>	‘muallima’	-
محصل	<i>mohassel</i>	‘talaba’ (o ‘g’il, qiz)	-
محصلة	<i>mohasselá</i>	‘talaba qiz’	-
متعلم	<i>mota ‘allem</i>	‘o‘quvchi’ (o ‘g’il, qiz)	-
متعلمه	<i>mota ‘allemá</i>	‘o‘quvchi qiz’	-
مامور	<i>ma‘mur</i>	‘xizmatchi’ (erkak, ayol)	-
ماموره	<i>ma‘murá</i>	‘xizmatchi ayol’	-
أمر	<i>âmer</i>	‘boshliq’ (erkak, ayol)	-
أمره	<i>âmerá</i>	‘boshliq ayol’	-

2. *har* ‘har’ belgilash olmoshi gapda aniqlovchi vazifasida keladi va doimo aniqlanmishdan oldin qo‘yiladi; dariy tilida **هار** *har* umuman izofa qabul qilmaydi:

هر روز	<i>har rôz</i>	‘har kun/i/’
هر دو شختر	<i>har dô doxtar</i>	‘har ikki qiz’
هر پنج اتاق	<i>har pánj otâq</i>	‘har beshta xona’
هر دوی شما	<i>har du-ye şoma</i>	‘sizning har ikkingiz’
هر دوی تان	<i>har du-yetân</i>	‘har ikkingiz’
هر محصل فاكولته	<i>har mohassel-e fâkulta</i>	‘fakultetning har bir studenti’

3. Matnda qayd etilgan ba’zi muassasalarining nomi:

ليسه ملالي	<i>lisa-ye Malâlay</i>	“Malolây” litseyi ⁶ (<i>ayollar uchun</i>)
ليسه استقلال	<i>lisa-ye Esteqlâl</i>	“Istiqlol” litseyi’ (<i>erkaklar uchun</i>)
وزارت مليه	<i>wezârat-e mâleyya</i>	‘moliya vazirligi’

⁶ Litsey nomi afg‘on xalqining Mayvand jangida jasorat ko‘rsatgan milliy qahramon qizi Malolay sharafiga qo‘yilgan.

16-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Najiba politexnika instituti talabasidir. 2) Latifa iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisidir. 3) Faridaning xonodonida 4 ta xona bor va har to‘rtalasi ham yorug‘ va kengdir. 4) Parvin va Zaynab qani? – Ularning ikkovi ham matabda. 5) Uning opasi moliya vazirligi xizmatchisidir. 6) Mening bog‘imda 35 ta olma daraxti bor va ularning barchasida meva bor. 7) Siz uchovingiz tengdoshsizlar. 8) Yoqubning 5 nafar aka-ukasi bor va ularning besholovi ham Kobulda yashaydilar. 9) Mening oilam 7 kishidan iborat va yettovimiz ham uydamiz. 10) Sening jiiyaning Sharifa “Malolay” litseyining 11- sinf o‘quvchisidir.

17-mashq. matni bo‘yicha savollarga javob bering:

(1) Сен محمد анор چанд амст? (2) محمد анор кяа и озифе дард? (3) Айа анор зен и اوлад дард? (4) анор چанд бече и چанд дхтер дард? (5) Зен анор چе мснрофит дард? (6) Айа ھр до پиср анор мтглум мстнди? (7) Сен дхтер анор چанд амст? (8) Дхтер анор мтглуме кдам лисе амст? (9) Айа анор хواхер и брадр дард? (10) Айа Сен шан нспбт бе анор км амст я зияд? (11) Брадр куҷктер анор мхслу мтнф چанд амст? (12) и озифе брадр клан анор چосст? (13) анор нспбт бе брадр клантиш چанд сал хоринт амст? (14) Айа дхтер и брадр зиаде анор мхслу мтнф мстнди? (15) ھмишре ҳаман анор кяа и озифе дард? (16) Айа ھр до хвахер анор ба او یкяа мстнди? (17) Ҳане ھмишре клантиш анор кжасст? (18) анор چанд ھмишре зиаде дард? (19) Айа хвахер куҷктер анор мтглуме мктб амст? (20) فамил محمد анор چанд нф амст? (21) Пдр анор چра бикар амст? (22) بече қакай анор зен дард я мжрд амст?

18-mashq. Dariy tilida o‘z oilangiz va qarindoshlaringiz haqida hikoya tuzing.

19-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A. Baryolay (Барилай) asli Faroh (فراء) viloyatidan, ammo Kobulda yashaydi. U o‘qituvchi va Politexnika institutida ishlaydi. Baryolay 32 yoshdadir. U uylangan va 4 nafar farzandi bor. Uning xotini ishlamaydi, chunki uning uy ishlari ko‘p. Baryolayning qaynata va qaynanasi qishloqda yashaydilar va ular dehqondirlar. Lekin uning qaynisi Kobulda yashaydi va universitetning filologiya fakulteti 3-bosqich talabasidir.

Baryolayning 2 nafar akasi va bir singlisi bor. Uning ikkala akasi ham uylangan va Baryolayning 6 nafar o‘g‘il va qiz jiyanlari bor. Baryolayning otasi xizmatchi, lekin u hozir keksa va nafaqadadir. Baryolayning buvasi va buvisi Kobulda yashamaydilar, ular Faroh

viloyatining bir qishlog‘ida yashaydilar. Ularning ikkovi ham keksa. U yerda ular bilan Baryolayning 2 amakisi ham yashaydi. Baryolayning bir necha amakivachchalar bor.

Baryolayning to‘ng‘ich o‘g‘li “Amoniy” (امانی) litseyining 10-sinf o‘quvchisidir, kichik o‘g‘li esa hali yosh. Baryolayning ikkala qizi ham maktab o‘quvchisidir. Baryolayning qizi va uning amakivachchasi tengqur va sinfdoshdirlar. Baryolayning to‘ng‘ich qizi 16 yoshdadir va uning qallig‘i bor. Baryolayning bo‘lajak kuyovi Aliobod (على اباد) kasalxonasining shifokoridir.

B. Rahima G‘azni shahrida yashaydi. U 28 yoshda, turmushga chiqqan va erining uyida yashaydi. Uning erining oilasi 8 kishidan iborat. Rahimaning eri ofitserdir. Rahima va uning erining bolalari bor – 2 nafar o‘g‘il va 3 nafar qiz. Rahimaning qaynatasi maktab o‘qituvchisidir. Rahimaning 2 nafar qaynag‘asi va 1 nafar qaynsinglisi bor. Uning ikkala qaynag‘asi ham undan kattadirlar va alohida yashaydilar (ularning uyi alohidadir). Rahimaning qaynsinglisining ismi Najiba va u Rahimaning tengdoshi, ammo u hali turmushga chiqmagan.

Lug‘at

استقلال	<i>esteemâl</i>	mustaqillik	فَعْلًا	<i>fe‘lan</i>	hozir, hozirda
افغانی	<i>afġāni</i>	afg‘oniy (pul birl.)	فَقَاتٍ	<i>faqat</i>	faqat
اقتصاد	<i>eqtesâd</i>	iqtisod	كِيلُومِتر	<i>kilômetr</i>	kilometr
القبا	<i>alefbâ</i>	alifbo	لِيسَه	<i>lisa</i>	litsey
انجینیر	<i>enjenyar</i>	injener	مِتر	<i>metr</i>	metr
بدخشان	<i>Badaxšân</i>	Badaxshon	مَعْلُوم	<i>mota‘alleм</i>	o‘quvchi
برابر	<i>barâbar</i>	barobar, baravar	مَتَّعَادِد	<i>motaqâd‘ed</i>	nafaqaxo‘r, pensioner
پولی تکنیک	<i>pôlitaxnik</i>		مَجْرَد	<i>mojarrad</i>	bo‘ydoq
politexnika (<i>institut</i>)					
ثانیه	<i>sâneyya</i>	soniya	مَدِير	<i>modir</i>	direktor
جديد	<i>jadid</i>	yangi	مَصْرُوفَةٍ	<i>masrufeyyat</i>	band
خاتم	<i>xânom</i>	ayol; xonim	نَظَر	<i>nazar</i>	nazar
خانه سازى	<i>xânasâzi</i>	uy qurilishi	نَفَر	<i>nafar</i>	nafar
درجه	<i>daraja</i>	daraja	هَمْشِيرٌ	<i>hamšira</i>	singil
رشته	<i>rešta</i>	soha	هَمْسَنْ	<i>hamsenn</i>	tengdosh
سن	<i>senn</i>	yosh	هَمْسَنْفِي	<i>hamsenfi</i>	sinfdosh
شاگرد	<i>šâgerd</i>	o‘quvchi	يَكْجا	<i>yakjâ</i>	birga

O'N IKKINCHI DARS

درس دوازدهم

Otlarda ko‘plik son.

-hâ va **-ân** ko'plik affiksları

Otlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Dariy tilida otlar ko'plikda -ha yoki -an affikslari yordamida yasaladi, urg'u ko'plik affikslariga tushadi.

لـ-ha affiksi universal hisoblanib, ham jonli, ham jonsiz predmetlarga qo'shiladi: مکتبها maktabha 'maktablar', دخترها doxtarha 'qizlar'.

ла -*hā* affiksi birlik shakldagi so‘zga, odatda, qo‘sib yoziladi, lekin ajratib yozish ham kuzatiladi:

زنهما	yoki	زن ها	<i>zanhá</i>	'ayollar'
چوکيها	yoki	چوکى ها	<i>čawkihá</i>	'stullar'
راهها	yoki	راه ها	<i>râhhá</i>	'yo'llar'

Birlik shakldagi so'z \diamond a qisqa unlisiga tugallangan bo'lsa, **ла -ha** affksi doim ajratib yoziladi, masalan: **ла خانаха́** 'uylar'.

ان زنان زانان suffiks ko'proq jonli predmetlarga orttiriladi: *zandān* 'ayollar', *mardān* 'erkaklar', 'kishilar' (bular bilan bir qatorda, زنها *zanhā*, مردها *mardhā* shakllari ham ishlatila beradi). Shuningdek, bu affiks ba'zi hayvonot, juft a'zolar va ayrim otlardan ko'plik shaklini yasaydi:

گوسفند	<i>gōsfand</i>	'qo'y'	-	گوسفندان	<i>gōsfandān</i>	'qo'ylar'
درخت	<i>daraxt</i>	'daraxt'	-	درختان	<i>daraxtān</i>	'daraxtlar'
چشم	<i>čašm</i>	'ko'z'	-	چشمان	<i>čašmān</i>	'ko'zlar'

-*an* suffiksini jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llash kitobiy hamda she'riy uslubga xosdir.

-ان -yân, -گان -gân suffiksining يان-، گان- shakllari quyidagi hollarda ishlatalidi:

a) birlik shakldagi so'z *â*, *i*, *u*/*ô* cho'ziq unlilariga tugallangan bo'lsa, ko'plik affiksi -*ân* orttirilganda, -پان -*yân* shaklida qo'llanadi:

dānā ‘donishmand’—دانیان **dānāvān** ‘donishmandlar’ دانا

köči 'ko'chmanchi' – كۆچان *köciyan* 'ko'chmanchilar'

سیاهمویان *siyahmō* 'bryunet' - سیاهمویان *siyahmōyān*

'bryunetlar', 'qora sochlilar'

ان - آن *i* cho'ziq unlisiga tugallangan so'zlarga ko'plik affaksi ortitirliganda, *i* cho'ziq unli e tarzida aytilishi mumkin, masalan: موجى موجىن *mōči* 'etikdo'z' - *mōčeyân* 'etikdo'zlar';

b) birlik shakldagi so'z - *a* qisqa unlisiga tugagan bo'lsa, ko'plik affksi ان - آن *-an* shaklida qo'shiladi va *a* unli ba'zan yozuvda tushib qoladi:

تشنه	<i>tašna</i>	'tashna'	-	تشنه گان	<i>tašnagân</i>	'tashnalar'
ستاره	<i>setâra</i>	'yulduz'	-	ستاره گان	<i>setâragân</i>	'yulduzlar'
نویسنده	<i>nawisenda</i>	'yozuvchi'	-	نویسنده گان	<i>nawisendagân</i>	'yozuvchilar'

مژه *meža* 'kiprik' so'zining ko'plik shaklida *a* qisqa unli yozuvda va talaffuzda tushib qoladi: مژگان *mežgân* 'kipriklar'.

ابروان *abru* - آن *-an* ko'plik affksi qo'shilganda, *u* tovushi *ow* kabi talaffuz qilinadi: ابرو abru - ابرو abrowân 'qoshlar', آهوان *âhu* - آهوان *âhôwân* 'ohular', گيسو *gisu* - گيسو *gisowân* 'sochlar'.

Eslatma. دست *dast* 'qo'l', پاي *pây* 'oyoq', گوش *gôš* 'quloq'dan tashqari, juft a'zolarni ifodalovchi otlarga ko'plikda ان - آن affksi ortiriladi: لب *lab* *labân* 'lablar', چشم *çaşmâ* - چشم *çaşmân* 'ko'zlar'.

Insonning toq a'zolari faqat ها *-hâ* ko'plik affksi orqali yasaladi: بینى *bini* - بینى *binihâ* 'burunlar', گردن *gardan* - گردن *gardanhâ* 'gardanlar'.

1-mashq. Berilgan otlarning ko'plik shaklini yasang va ularning ma'nosini yozing:

A) ها suffiksi bilan:

قلم، سنگ، ماہ، قصه، کلان، باغ، کلار، سیب، دریا، کشور، خاته، دکان، روز، کوه، ماما، دروازه، گلو، میز، جاده، نیوار، زینه، زبان، پیله، اولاد، شهر، شفاخانه، کاکا، کتابچه، عکس، نواسه، پشتون، روزنامه.

B) suffiksi bilan:

کارگر، دوست، مژه، مادر، بازو، نویسنده، مالدار، پسر، عروس، سرباز، شوهر، رحمتکش، آشنا، مدیر.

C) ها suffikslari bilan:

بچه، برادرزاده، دختر، همسایه، درخت، مسلمان، هزاره، ابرو، مهمان، ستاره، جوان، برادر، داکتر، پدر، تاجک، زن، موجى، شاگرد، خواهرزاده، چوپان، گو، فلد، مرغ، شتر، ازىك، افغان، مرد، کوچى، لب، همشيره، چشم، مريض، خواهر، انجنير، افسر.

Ot bilan ifodalangan ega va kesimning sonda moslashuvi

Dariy tilida ot bilan ifodalangan ega va kesimning sonda moslashuvida quyidagi o'zbek tilidan farqli holatlarni yodda saqlang.

Мардум mardom 'xalq' со'зи, одатда, ко'плик шаклидаги кесим билан келади, масалан:

مرдум مازھмәткеш ھستед Mardom-e mā zahmatkaš hastand

'Bizning xalqimiz mehhatkashdir'

Ko'plik shaklidagi ega hayvonot va umuman, jonsiz predmet otlarini ifodalasa, gapning kesimi birlikda ham, ko'plikda ham ishlatala oladi, масалан:

Айн گөсфандека аз ки ھستенд? In gōsfandhâ az ki hastand?

Айн گөсфандека аз кист? In gōsfandhâ az ki-st?

'Bu qo'yalar kimniki?'

Хане ھاي آنجа يرق ندارند Xānahâ-ye ânjâ barq nadârand

Хане ھاي آنجа يرق ندارд Xānahâ-ye ânjâ barq nadârad

'U yerdagi uylarda elektr toki yo'q'

2-mashq. Gaplardagi egani ko'plik shaklida yozing (va kerakli o'rnlarda gaplarga tegishli o'zgartirishlar kiriting):

- (1) Айн қитаб бисиар длечіп аст. (2) Брадер то зен ндард. (3) Аин شهر бзрк ңист. (4) Дроазе аин атақ сиаҳ ңист. (5) Бже шма چнд сал дард? (6) Дуост غفور انجنир аст. (7) Аин тоғиснде роис бисиар معروف аст. (8) Зен ағсан аинجا ңист. (9) Пср нжіп др шехр фрах аст. (10) Аин ашнаят چе وظیفه дард? (11) Хواхер шма дхтер зибаст? (12) Кақайм дактүр швакане аст. (13) Ҳемсаия ма қарғар фабрика ҳане сази аст. (14) Ҳемшире зәдә ам тб дард. (15) Аң мрд айженир лаїқ аст.

3-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) U yoshlar – mening tanishlarimdir. 2) Sening daftarlaring stolning ustidadir. 3) Bu olmalar hali kichkinadir. 4) Sizning qo'shnilaringiz uylaridami? 5) Bu qizlarning ko'zlari moviyidir. 6) Sizlarning talabalar turar joyingizdagи xonalar kattaroq va yorug'roqdir. 7) U kishilar – Ibn Sino nomidagi shifoxonaning shifokorlaridir. 8) Sening akalaring kim bo'lib ishlaydi? – Mening akalarim ofitserdirlar. 9) Bu zavod ishchilari yangi qurilgan uylarda yashaydilar. 10) U auditorianing stol va stullari yangi va tozadir. 11) Mening o'g'llarim maktab o'quvchilaridir. 12) Bu kichik qishloqning odamlari – tojiklardir. 13) U yosh qizlar – Ahmadning opasingillaridir. 14) Bu kishilar – taniqli afg'on yozuvchilaridir. 15) Faridaning

jiyanlari (*akasi tomonidan*) Kobul universitetining talabalar turar joyida yashaydilar. 16) U ayollar oyimning mehmonlaridir. 17) Bu Osiyo davlatining aksariyat aholisi – chorvadorlardir. 18) Sening amaki-vachchalaring Badaxshon viloyatida yashaydilar.

Arab ko'plik affikslari.

-ât / -jât affiksi

ات / -*jât* affiksi dariy tiliga arab tilidan o'zlashgan ko'plik affikslari orasida ancha mahsuldor bo'lib, ham arab, ham arabcha bo'limgan so'zlarga qo'shiladi va ko'plik yasaydi, masalan:

اطلاع ettela'	'xabar', 'ma'lumot'	اطلاعات ettelâ'ât 'xabarlar', 'ma'lumotlar'
تعمیر ta'mir	'bino'	تعمیرات ta'mirât 'binolar'
جنگل jangal	'o'rmon'	جنگلات jangalât 'o'rmonlar'
ده deh	'qishloq'	دهات dehât 'qishloqlar'

Agar ot ¹ alef harfi bilan ifodalangan -ât unlisiga tugallangan bo'lsa, o'zak va affiks o'rtasiga ' undoshi orttiriladi, affiks esa yozuvda ات shaklida beriladi.

افترا eftera'	'tuhmat'	افتراات eftera'ât 'tuhmatlar'
اجرا ejra'	'ijro'	اجرآت ejra'ât 'tadbirlar', 'amallar'

Agar ot i yoki ى orqali ifodalangan â unlisiga tugallangan bo'lsa, o'zak va affiks orasiga bir y undoshi orttiriladi, o'zak oxiridagi -i unli -e ga aylanadi, masalan:

ترقى taraqqi	'yuksalish', 'yutuq'	ترقيات taraqqeyât 'yutuqlar'
تمنى tamannâ	'istik', 'orzy'	تمنيات tamanneyât 'istiklar', 'orzyalar'

Agar so'z ۋ -a yoki ئ -at bilan tugagan bo'lsa (arabcha muannas affiksi shakllari), ات -ât ko'plik affiksi bevosita so'z o'zagiga qo'shilib, so'z oxiridagi ۋ -a yoki ئ -at tushib qoladi. Masalan:

مجله majalla	'jurnal'	مجلات majallât 'jurnallar'
اداره edâra	'idora'	ادارات edârât 'idoralar'
مقاله maqâla	'maqola'	مقالات maqâlât 'maqolalar'
ولايت welâyat	'viloyat'	ولايات welâyât 'viloyatlar'

Agar ot CVCCa yoki CVCCat modelida (bu yerda C – undosh, V – 3 ta qisqa unli: a, e yoki o dan biri) bo'lsa, bulardan ko'plik CVCaCât

modelida (ya'ni -a yoki -at tushib qoladi, o'zakdag'i oxirgi undoshdan oldin esa a ortitiladi) hosil qilinadi. Masalan:

صفحه	safha	'sahifa'	-	صفحات	safahât	'sahifalar', 'bet'
خدمت	xedmat	'xizmat'	-	خدمات	xedamât	'xizmatlar'

• a yoki i unlisi bilan tugagan ba'zi jonsiz predmetni bildiruvchi otlarga ات -at ko'plik affiksining fonetik varianti جات -jât ni qo'shish orqali ko'plik hosil qilinadi. Bu affiks o'zakka qo'shilib yoki alohida yozilishi mumkin, masalan:

میوه	mêwa	'meva'	-	میوجات	yoki	میوه جات
					mêwajât	'mevalar'
پرзه	porza	'detal'	-	پرజات	yoki	پرزه جات
					porzajât	'detallar'(tex.)
سبزى	sabzi	'sabzavot', 'ko'kat'	-	سبزیجات	yoki	سبزى جات
					sabzijât	'sabzavotlar', 'ko'katlar'

Eslatma. ات -at affiks so'z yasashda alohida rol o'ynaydi:

کار	kâr	'ish'	-	کرات	kârât	'harakat', 'harbiy operatsiya'
معلوم	ma'lum	'ma'lum'	-	معلومات	ma'lumât	'ma'lumotlar', 'informatsiya'

4-mashq. Berilgan otlarning ko'plik shakllarini yasang va ularning ma'nosini yozing:

A) ات suffiksi bilan:

درجه، تمرین، طبقه، تعمیر، خدمت، متعلم، دفعه، ولايت، ده،
معلمه، جلسه، معاش، صفحه

B) va ات suffiksleri bilan:

مجله، جنگل، ساعت، طیاره، نمره، فابрикاه، کلمه، جمله، حیوان.

5- mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Bu qishloqlarda mevali bog'lar ko'p. 2) Bizning kurs talabalarining baholari yaxshi (*ayman* yaxshi baholarga ega). 3) Bu jurnallarning sahifalarida qiziqarli fotosuratlar bor. 4) O'lkanning janubiy viloyatlari o'rmonlarida turli xil (مختلف) hayvonlar bor. 5) Bu yosh ayollar bizning o'qituvchilarimizdir. 6) O'sha samolyotlar aeroportdami? 7) Bu mashqlar juda ham qiyin, gaplari esa uzundir. 8) Bu qizlar – "Malolay" litseyining 5-sinf o'quvchilaridir. 9) U zavod ishchilarining maoshlari qancha?

Jamlash olmoshi **همه hamá** va **háma** ‘hamma’ predmet va shaxslar o‘rnida qo‘llanib, ot vazifasida: **جور هستد Hama jör hastand** ‘Hamma sog‘-salomat’; predmet belgisini ko‘rsatib sifat vazifasida aniqlanmishdan oldin yoki keyin keladi: **همه کتابها نو است Hama ketâbhâ naw ast** va **كتابها همه نو است Ketâbhâ hama naw ast** ‘Barcha (hamma) kitoblar yangi’.

Dariy tilida aniqlovchi vazifasida kelgan **همه hama** olmoshi o‘zidan keyin kelgan otga izofa orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri (so‘zlashuv tilida) birikadi:

همه مردها hamá-ye mardhâ yoki **همه مردها hama mardhâ** ‘hamma erkaklar’.

Kishilik yoki ko‘rsatish olmoshlari oldida kelgan **همه hama** olmoshi ular bilan faqat izofa orqali birikadi:

همه آنها hamá-ye ânhâ ‘ular hammalari’

همه این زنها hamá-ye in zanhâ ‘bu ayollarning hammasi’.

همه hama olmoshidan keyin kelgan ot, odatda, ko‘plik shaklida (**مودم mardon** kabi jamlovchi otlardan tashqari) qo‘yiladi. Biroq **kas** ‘kishi’, **čiz** ‘çiz’ ‘narsa’ va **جا jâ** ‘joy’ kabi otlar birlik sonda izofasiz qo‘llanadi, masalan:

همه کس hamá kas ‘barcha (kishilar)’

همه چиз hamá čiz ‘hamma narsa’

همه جا hamá jâ ‘hamma yerda’, ‘har yerda’

Dariy tilida **همه hama** olmoshining ekvivalenti sifatida jamlik ma’nosini ifodalovchi arab so‘zları: **تمام tamâm** ‘hamma’, ‘butun’, **کل koll** ‘hamma’, **جمله jomla** ‘barcha’, ‘hamma’ ishlatalidi. Ular aniqlanmish bilan izofa yordamida birikadi: **تمام دنیا tamâm-e donyâ** ‘butun dunyo’, **کل مردم koll-e mardon** ‘hamma odamlar’ kabi.

تمام tamâm olmoshidan keyin kelgan ot ko‘plik sonda bo‘lsa, ‘hamma’, birlikda bo‘lsa, ‘butun’ deb tarjima qilinadi. Qiyoslang:

تمام اتقها پاک است

Tamâm-e otâqhâ pâk ast ‘Hamma xonalar toza’

تمام اتق پاک است

Tamâm-e otâq pâk ast ‘Butun xona toza’ (butunlay toza)

همه hama va **تمام tamâm** olmoshlari birikuvchi olmoshlar bilan birga keladi, masalan:

همه تان	<i>hamá-yetān</i>	yoki <i>háma-tān</i> (<i>so'zl.</i>) ‘hammangiz’
همه شан	<i>hamá-yešān</i>	yoki <i>háma-šān</i> (<i>so'zl.</i>) ‘hammalari’
тамам тан	<i>tamám-etān</i>	‘hammangiz’
тамаш	<i>tamám-aš</i>	‘hammasi’

6-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

(1) Форда ҳеме Рхусти дарнед. (2) Айнажа Тамам Табистан Бисиар گорм аст. (3) Ҳеме ҷизз дурмит аст. (4) Айн атак аз ҳеме шенасист. (5) Тамам Аң Волайт дар Ӯрб Қушор аст. (6) Тамам Шан Қарған Ҷабрийке یوت ҳенде. (7) Амроуз дар Тамам Қушор ҷашн аст. (8) Ҳеме айн Рузҳа ယаран аст. (9) Ҳеме ма ھар Руз се یا چهар дарс дарим. (10) Тамам Аң Мердан Мембантан ма ھастид. (11) Ҳеме җа бирф аст.

7-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling. Kerakli o‘rinlarda turli variantlardan foydalaning.

1) Siz hammangiz afg‘onsizlar. 2) Hammaning lug‘ati bor. 3) Rahmon kun bo‘yi (butun kun) instituttdadir. 4) Ularning hammalari sog‘-salomatmi? 5) Bu yerda hamma yoq suv. 6) Butun bir qishloqda shifokor yo‘q. 7) Bu darslikning hamma mashqlari qiyindir. 8) Bu uy to‘laligicha uning amakisiga tegishlidir. 9) U yerda hamma binolar eskidir. 10) Bu odamlarning hammasi ishchilardir. 11) Ularning xonadonlarida hamma narsa yangidir.

Arab ko‘plik affikslari (davomi) -in, -un affikslari

-in ko‘plik affiksi shaxs otini bildiruvchi arab so‘zlaridan ko‘plik yasaydi, masalan:

منقد	<i>monaqqed</i>	‘tanqidchi’	—
متقدین	<i>monaqqedin</i>	‘tanqidchilar’	—
متخصص	<i>motaxasses</i>	‘mutaxassis’	—
متخصصین	<i>motaxassesin</i>	‘mutaxassislar’	—
مالک	<i>mâlek</i>	‘mulkdor’	—
مالکین	<i>mâlekin</i>	‘mulkdorlar’	—
مورخ	<i>mowarrex</i>	‘tarixchi’	—
مورخین	<i>mowarrexin</i>	‘tarixchilar’	—

-un ko‘plik affiksi ى i unli bilan tugagan shaxs otini bildiruvchi ba’zi arab so‘zlaridan (ijtimoiy-siyosiy xarakterdagи) ko‘plik

yasaydi. O'zak va affiks orasiga bir y undoshi orttiriladi, o'zak oxiridagi -i unlisini -e ga aylanadi, masalan:

روحانى	<i>röhâni</i>	'ruhoniy'	-
	روحانيون	<i>röhâneyun</i>	'ruhoniylar'
افراطى	<i>efrâti</i>	'ekstremist'	-
	افراطيون	<i>efrâteyun</i>	'ekstremistlar'
اعتصبى	<i>e'tesâbi</i>	'ish tashlovchi'	-
	اعتصبيون	<i>e'tesâbeyun</i>	'ish tashlovchilar'
ارتجاعى	<i>ertejâyi</i>	'reaksioner'	-
	ارتجاعيون	<i>ertejâyeyun</i>	'reaksionerlar'

Eslatma. Ba'zida arabcha -ayn ikkilangan son affiksi ham uchrab turadi: مملکتىن *mamlakatayn* 'ikki mamlakat'.

8-mashq. Berilgan otlarning ko'plik shakllarini yasang va ularning ma'nosini yozing:

A) ان va بىن affikslari bilan:

علم، محصل، متعلم، منقاد، حاضر، مأمور

B) va la affikslari bilan:

ميوه، پرزا، سبزى، قريه

9-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Birinchi bosqich talabalarida dariy tili darsidir. 2) Institutimizning barcha o'qituvchilari shu yerda. 3) Bozorda yangi sabzavot va mevalar bor. 4) Bu yosh xodimlar moliya vazirligida ishlaydilar. 5) U Kobul litseyining barcha o'quvchilari mehnatsevar va qobiliyatlidirlar. 6) Bu do'konda avtomobil ehtiyoj qismlari sotiladi (mavjud). 7) U qishloqlarda kimlar yashaydi? 8) Yig'ilganlarning barchasi uning hikoyasidan mamnun.

Matn گروپ ما

من محصل صنف اوول انسټитوت شرقشناسى دولتى تашкенд ھستم. انسټيتوت ما در مرکز شهر تашкند است و تعمیر آن نو امст. اين انسټيتوت تقريباً هشتاد اتاق درس دارد و در هر اتاق چند ميز و چوکى و يك تخته دیاه موجود است. همه اتاقها پاک و روشن است.

حالا درس زبان درى است. تمام جوانان و دختران گروپ ما در صنف حاضر ھەتند. معلم زبان درى در برابر محصلان ايسنايده است و در دست او

کتاب درسی است. یک محصل پهلوی تخته سیاه ایستاده است و تباشیر در دست دارد و محصلین دیگر پشت میز هستند.

گروپ ما هشت نفر است، از آن جمله دو نفر دختر است. سه محصل گروپ ما از شهرهای دیگر هستند. هر سه شان در طبقه پنجم لیلیه بزرگ انسستیتوت شرقشناسی آتاق دارند. دیگران همه از تاشکند هستند و با فاهیلهای شان یکجا هستند. من چهار نفر از بیست بیشتر است و از چهار نفر دیگر کمتر است.

همه ما به کشور افغانستان و زبانهای مردم آن علاقه زیاد داریم. تمام درس های مان، مخصوصاً درس های زبان دری دلچسب است چون این زبان بسیار شیرین است. همه محصلین و محصلات گروپ ما استعداد دارند و زحمتکش هستند و به این سبب نمرات همه خوب است. معلم زبان دری و دیگر معلمین و معلمات از ما راضی هستند.

10-mashq. O'qing va tarjima qiling. دیگر digar olmoshining qo'llanilishiga e'tibor bering:

۱) یک برادر شما در کابل است و برادر دیگر شما در مزار شریف است. ۲) این متعلمین در صنف هستند و دیگر متعلمین در صحن مکتب هستند. ۳) بوت دیگرت کجاست؟ ۴) این آتاق از پدر و مادرم است و دیگر آتاق از من است. ۵) پدر این بچه من هستم و پدر دیگر بچه اسحق است. ۶) این زن ابراهیم نیست، زن دیگر کس است. ۷) خانه ما در این جاده است و خانه های دیگران دورتر است. ۸) در بازارهای کابل و شهرهای دیگر افغانستان میوه چات و سیزیجات فراوان است. ۹) در دو ماه بهار باران زیاد است و در ماه های دیگر سال کم است. ۱۰) دختر پریالی متعلمه صنف پنجم است و دختران دیگران متعلمات صنف های بالاتر هستند. ۱۱) نمرات شما خوب است اما از دیگران بهتر است. ۱۲) این مرد معلم است و دیگران شاگردان او هستند.

11-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- A. 1) Sening guruhing talabalari boshqa auditoriyadadirlar.
- 2) Boshqa kitoblar qayerda? – Boshqa kitoblar javonning ichidadir.
- 3) Ikki kishi – hazora, qolganlar esa pashtunlardir. 4) Senda boshqa ruchka bormi? 5) Bu do'konda uzum va boshqa mevalar bor. 6) Bu kishi – xodim, qolganlar esa – nafaqaxo'r. 7) U viloyatda qish nisbatan iliqroq, boshqa joylarda esa sovuqdir. 8) Sizning boshqa do'stlaringiz kim? – Boshqa do'stalarim - talabalardir. 9) Bu kitob pashtu tilida, qolganlari esa dariy tilidadir.

B. 1) Bizning uyimiz yaqin, sizlarniki esa uzoqdir. 2) O'rtog'imning qizining ismi – Latifa, meniki esa Laylodir. 3) Bu o'quvchining baholari yomon (qoniqarsiz), boshqalarniki esa yaxshidir. 4) Bu xonaning derazasi katta, unisiniki esa kichkina. 5) Qandahorning havosi issiqdir, Kobulniki esa nisbatan salqindir.

12-mashq. Savollarga javob bering:

1) Шما محصل кадам فакултети ҳастид? 2) Факултет шما дар кҷаи شهر
аст? 3) Айатумир факултет тан ну аст? 4) Факултет тан ҷанд атак дарси
дарад? 5) Дар атак ҳай дарси چе ҷиззҳа موجود аст? 6) Атакҳай дарси
рошн аст یا тарик? 7) Шма محصل санф ҷонд ҳастид? 8) Шма аз кадам
ѓруп ҳастид? 9) ѓруп шма ҷанд нер аст? 10) Дар ѓруп ма ҷанд ٻچه و
ҷанд дхтер аст? 11) Сен محصلан ѓруп шма ҷанд аст? 12) Ая амроз
тамам محصلан ѓруп шма حاضр ҳастид? 13) حالа кадам дрес аст? 14) Ая
мعلم шма рос аст یا افغان? 15) Мعلم шма кجا аистаде аст? 16) Ая шма
бе кշор افغانستان و مردم آن علاقе дарид? 17) Ая زبان دری شирин аст?
18) Ая محصلин ѓруپ шма استعداد даранд? 19) نمرات شما خوب аст?
20) نمرات ديگر محصلان ѓруپтан خوب аст? 21) معلمان аз شما راضى
ҳастид?

13-mashq. Dariy tilida o'quv guruhingiz va institutdag'i dars mashg'ulotlaringiz haqida hikoya tuzing.

14-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A. Biz – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti talabalarimiz. Bizning institutimiz katta yangi binoda joylashgan. Bu bino Toshkentning markazidadir. Institutimizning orqasida katta saylgoh bor. Institutda taxminan 80 ta auditoriya bor. Har bir auditoriyada stol, stullar va bitta (qora) sinf doskasi bor. Shuningdek, institutda kutubxona bor, bu kutubxonadagi kitoblar sharq tillaridadir.

Bizning guruhimiz o'n bir kishidan iborat, ulardan uchtasi qiz boladir. Hozir guruhimizning talaba og'il va qizlari auditoriyadadir. Bir talaba betob, shu sababli bugun u darsda yo'q. Ayni vaqtida bir talaba qiz doskaning yonida turibdi, uning qo'lida bo'r bor, boshqalar esa stol atrofida o'tirishibdi va ularning qo'llarida ruchka bor.

Dariy tili o'qituvchisi ham auditoriyadadir. Bizning o'qituvchimiz – afg'on va kobullikdir. Uning hamma mashg'ulotlari juda qiziqarlidir. Biz Afg'oniston va dariy tiliga qiziqamiz. Bizning baholarimiz yaxshi va ustozlarimiz bizdan xursand.

B. Sizlar kimsizlar? – Biz talabalarımız. – Qaysi institut talabalarisizlar? – Biz O'zbekiston milliy universiteti talabalaridirmiz. – Universitetingiz shaharning markazida joylashganmı? – Yo'q, universitetimiz markazdan nisbatan uzoqda joylashgan. – Universitetning binosi eskimi yoki yangimi? – Universitetimizning binosi yangi va juda chiroylidir. – Fakultetingiz binoning nechanchi qavatida joylashgan? – Bizning fakultetimiz oltinchi qavatda joylashgan. Talabalar turar joyi universitetdan uzoq emasmi? – Bizning talabalar turar joyi universitetga juda yaqin joylashgan. Guruhingiz necha kishidan iborat? – Guruhimiz to'qqiz kishidan iboratdir. – Sizlarning hammangiz o'zbekmisizlar? – Yo'q, guruhimizda bir kishi rus, ikki kishi tojik, qolganlar o'zbekdir. – Baholaringiz yaxshimi? – Ha, guruhimizning barcha talabalari qobiliyatli (qobiliyat egalari) va mehnatsevar bo'lganlari uchun, hammamizning baholrimiz yaxshidir.

Lug'at

ابرو <i>abro</i>	qosh	فريه <i>qarya</i>	qishloq
استعداد <i>este 'dâd</i>	qobiliyat	كس <i>kas</i>	kishi, odam
ايستаде <i>istâda</i>	turibdi	مختلف <i>moxtalef</i>	har xil
بازو <i>bâzu</i>	bilak	محصوص <i>maxsus</i>	maxsus, o'ziga hos
پرزو <i>porza</i>	detal (tex.)	محصوصاً <i>maxsusan</i>	xususan
ترقى <i>taraqqi</i>	yuksalish	مركز <i>markaz</i>	markaz
تمام <i>tamâm-e</i>	butun, barcha	مزه <i>meža</i>	kiprik
چيز <i>ciz</i>	buyum, narsa	موجود <i>mawjud</i>	mavjud
حيوان <i>haywân</i>	hayvon	موچى <i>möči</i>	etikdo'z
خدمت <i>xedmad</i>	xizmat	نمره <i>nomra</i>	baho; raqam
راضى <i>râzi</i>	xursand	نويسنده <i>nawisenda</i>	yozuvchi
روحانى <i>ruhâni</i>	ruhoniy	همه <i>hama</i>	hamma
علاقه <i>'alâqa</i>	qiziqish		

Sifatlarda orttirma daraja

Orttirma daraja bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiqligini chog'ishtirib ko'rsatadi. Ortirma daraja sifatning oddiy darajasiga urg'uli -*tarin* affiksini (o'zbek tilida: sifat oldidan *eng*, *hammadan* kabi so'zlarni keltirish bilan) qo'shish orqali yasaladi. ترین -*tarin* affiksi o'zakka qo'shib yoki ajratib yozilishi mumkin, biroq qisqa -*a* unlisiga tugallangan o'zak bo'lsa, faqat ajratib yoziladi, masalan:

خورد <i>xord</i>	'kichik'	- خورترين <i>xordtarin</i>	'eng kichik'
کلان <i>kalân</i>	'katta'	- کلانترین <i>kalântarin</i>	'eng katta'
تازه <i>tâza</i>	'yangi'	- تازه ترین <i>tâzatarin</i>	'eng yangi'

خوب *xub* 'yaxshi' sifati orttirma darajada ikkita shaklga ega:
خوب *xubtarin* (so 'zl.) va بهترین *behtarin* 'eng yaxshi'

Orttirma darajadagi sifat gapda aniqlovchi vazifasida o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin keladi va u bilan izofasiz, bitishuv yo'li bilan birikadi. Aniqlanayotgan so'z birlik shaklida ham, ko'plik shaklida ham bo'lishi mumkin. Masalan:

بهترین محصل <i>behtarin mohassel</i>	'eng yaxshi talaba'
روشن ترین آنالار <i>rawşantarin otâqhâ</i>	'eng yorug' xonalar'
پروین و احمد بهترین محصلین شعبه ما هستند	

Parwin wa Ahmad behtarin mohasselin-e šo 'ba-ye mâ hastand
'Parvin va Ahmad bo'limimizning eng yaxshi talabalaridir'

Ba'zi vaqtarda orttirma darajadagi sifat o'zidan keyingi so'z bilan izofa orqali bog'lanadi. Bu holda sifat aniqlanmish vazifasini bajarib, o'zidan keyin kelgan so'zning, ya'ni aniqlovchining ko'plik shaklida kelishini talab qiladi va bir jinsdag'i predmetlardan birini yoki bir nechtasini ajratib ko'rsatadi. Masalan:

حسيني است بهترین انگورها *Behtarin-e angurhâ husayni ast*
'Uzumlarning eng yaxshisi – husaynidir'

Shunday qilib, orttirma darajadagi sifatdan so'ng kelgan so'z ko'plik shaklida bo'lsa, ikki xil o'qilishi va ikki xil ma'noda bo'lishi mumkin, masalan:

این زیباترین جاده های تاشکند است

In zébâtarin jâddahâ-ye Tâskand ast

'Bu – Toshkentning eng chiroyli ko‘chalari'

این زیباترین جاده های تاشکند است

In zébâtarin-e jâddahâ-ye Tâskand ast

'Bu – Toshkent ko‘chalarining eng chiroylisi'

Ko‘pincha bir xil sifatga ega bo‘lgan bir jinsdagi predmetlardan bir yoki bir nechtasini ajratib ko‘rsatish uchun orttirma darajadagi sifat oldida j̄az ko‘makchisi yoki يكى از *yaki az* birikmasi kelishi ham mumkin. Bu holda orttirma darajadagi sifatdan keyin kelgan so‘z ko‘plik shaklida bo‘ladi va ular izofa orqali emas, bitishuv orqali bog‘lanadi. Masalan:

سعدي و حافظ از برج سنه ترين شعر اي قرن چهاردهم

Sa’di wa Hâfez az barjastatarin šo‘arâ-ye qarn-e cahârdahomand

'Sa’diy va Hofiz XIV asrning eng mashhur shoirlaridandir'

شهر سمرقند يكى از بزرگترین شهرهای ازبکستان است

Šahr-e Samarqand yaki az šahrhâ-ye bozorgtarin-e Ozbakeshân ast

'Samarqand shahri O‘zbekistonning eng katta shaharlaridan biridir'

Shuningdek, orttirma daraja oddiy va qiyosiy darajadagi sifat oldidan به دیگران از همه *az hama* ‘hammadan’, ‘barchasidan’، ‘boshqalarga qaraganda’ birikmasini keltirish bilan ham ifodalaniishi mumkin: از همه خورد *az hama xord* ‘hammadan kichik’، از همه بهتر *az hama behtar* ‘barchasidan yaxshiroq’.

این کتاب از همه بهتر است *In ketâb az hama behtar ast*

'Bu kitob hammasidan yaxshi (a‘lo)'

1-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- ۱) اين مشکلترين تمرин است. ۲) رذوف بهترین محصل اين گروپ است. ۳) Ташкенд بزرگترین شهر وطن ماست. ۴) دريای نيل درازترین دريای افريقا است. ۵) اين جدیدترین تعميرات شهر تاشکند است. ۶) زلمى و یوسف جوانترین محصلان صنف، اول فاکولته شمامست. ۷) پوهنتون ملي ازبکستان بزرگترین و قدیمترین پوهنتون ازبکستان است. ۸) این نویسنده افغان نظر به دیگران مشهورتر است. ۹) اسم خوردنترین پسر دوستم غفور است. ۱۰) اين راه از همه کوتاه تر است.

2-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Bu eng yangi gazeta (soni)dir. 2) Bu ko'chada shaharning eng chiroyli uylari joylashgan. 3) Bizning xonamiz talabalar turar joyida eng tozasidir. 4) Bugun yilning eng qisqa kunidir. 5) Bu gullar eng chiroyli gullardir. 6) Guruhimizning eng yoshi katta talabasi - Alidir. 7) Bizning kutubxonada eng yangi kitoblar bor. 8) Afg'onistonning eng katta shahri – Kobuldir. 9) Anavi askarlar hammadan jasurdirlar. 10) Baryolayning do'konida eng nordon limonlar bor.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan sifatlarga mos sifat darajalarini qo'yib gaplarni ko'chiring.

Шеҳр сурғанд иккى аз (зияя) шеҳрларини азбекистонин иштаган. Зиан дри иккى аз (ширинген) зиблаҳий танилган. Пироин иккى аз (хуб, бе) мушчинин санф ма иштаган. Дрияйи амо иккى аз (бизрган) дрияларини азбекистонин иштаган. Мен چанд бурадан дарм, (ко'чек) آннаа факт 7 сал дард. Др. шеҳр ташкентин атрава иштаган. Нечие وجود дард, (мем) آннаа метро иштаган.

Arab siniq ko'plik shakli

Dariy tilida arab tilidan kirib kelgan so'zlar arab siniq ko'plik shakllarini saqlab qolgan. So'z o'zagini tashkil etuvchi undoshlar orasi-dagi unlilarning o'zgarishi, umuman, so'z ichki tarkibining o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik siniq ko'plik deyiladi. Bu yo'l bilan yasalgan ko'plik shakldagi so'zlar dariy tiliga tayyor holda, o'zlarining ko'plik shakllarida kirib kelgan. Arab siniq ko'plik shakllarining yasalishi birmuncha murakkab bo'lgani uchun, odatda, lug'at va o'quv qo'llanmalarda so'zning birlik shakli bilan bir qatorda, uning ko'plik shakli ham beriladi.

Siniq ko'plikning shakllanishida ma'lum qonuniyat yo'q. Shu sababli har bir so'z o'zining ko'plik vazni bilan birga o'r ganilgani maqsadga muvofiq.

Мфакул *mafā'il* vaznida:

مسايبات – *mosibat* مسیبۃ masâyeb yoki مسیبۃ masibathâ 'musibatlar'

مملکت – *mamlakat* ممالک mamâlek yoki مملکتها mamlakathâ 'mamlakatlar'

Мфакул *mafā'il* vaznida:

مكتوب – *maktab* مکتب makâtib yoki maktubhâ 'xatlar'

مسکین meskin – مسکینان masâkin yoki meskinân ‘bechoralar’

تفاعيل tâfi‘ il vaznida:

تکلیف taklîf yoki تکلیفها taklîfîhâ ‘tashvishlar’,
‘qiyinchiliklar’

تصویر tasvir – تصاویرها tasâwir yoki tasvirhâ ‘tasvirlar’,
‘portretlar’

افعال af‘âl vaznida:

خبر xabar – اخبار xâbâr yoki xabarhâ ‘xabarlar’

شخص şaxs – اشخاص ašxâs yoki şaxshâ ‘shaxslar’

فعول fo ‘ul vaznida:

امر amr – امور omur ‘ishlär’

علم ‘elm – علوم ‘olum ‘fanlar’

甫علا fo ‘alâ vaznida:

رفيق rafiq – رفقا rofaqd ‘o‘rtoqlar’

وزير wazir – وزرا wozarâ ‘vazirlar’, ‘ministrler’

شاعر şâ'er – شاعرا şo 'ârâ ‘shoirlar’

Shu kabi so‘zlarning ichki fleksiyalari hamda qo‘s himcha harflar
orttirish orqali hosil qilinadigan boshqa arab siniq ko‘plik shakllari
mavjud.

Quyidagi otlarning ko‘plik shakllarini yodda saqlang:

مفرد	Birlik	جمع	Ko‘plik
طفل tefl	‘bola(kay)’	اطفال atfâl	‘bolalar’
فكر fekr	‘fîkr’	افكار askâr	‘fikrlar’
عيد ‘id	‘bayram’	اعياد ‘ayâd	‘bayramlar’
اديب adib	‘adib’	ادباء odâbâ	‘adiblar’
حرف harf	‘harf’	حروف horuf	‘harflar’
شعر še'r	‘she'r’	اشعار aš'âr	‘she'rilar’
مركز markaz	‘markaz’	مراكز marâkez	‘markazlar’
وسيله wasila	‘vosita’	وسائل wasâyel	‘vositalar’
متن matn	‘matn’	متنون motun	‘matnlar’
فن fan	‘fan’	فنون fonun	‘fanlar’
رجل rajol	‘arbob’	رجال rejâl	‘arboblar’
دلت dawlat	‘davlat’	دول dowal	‘davlatlar’
ملت mellat	‘millat’	مآل melâl	‘millatlar’
جمهوري jomhuri	‘respublika’	جماهير jamâhir	‘respublikalar’

كتاب	<i>ketâb</i>	كتب	<i>kotob</i>	‘kitoblar’
رسم	<i>rasm</i>	رسوم	<i>rosum</i>	‘urf-odatlar’
اثر	<i>asar</i>	آثار	<i>âsâr</i>	‘asarlar’
وقت	<i>waqt</i>	أوقات	<i>awqât</i>	‘vaqtlar’
علم	<i>âlem</i>	علماء	<i>olamâ</i>	‘olimlar’
بحر	<i>bahr</i>	ابحار	<i>abhâr</i>	‘oceanlar’

4-mashq. Otlarning ko‘plik shakllarini yasang va ularning ma’nosini yozing:

A) ichki fleksiya orqali:

منزل، شعر، علم، منطقه، وظيفة، طفل، رفيق، حقيقة، بحر، مملكت، اسم، صنعت، فكر، مركز.

B) ichki fleksiya va la affiksi orqali:

مكتب، غذا، وقت، حرف، دليل، ظرف، متن، قيمة، عيد، مسجد، صنف، خط، دولت، تحفة، قلب، لباس، نقطه، دقيقة.

C) ichki fleksiya va an affiksi orqali: شاعر

D) ichki fleksiya hamda an va affikslari orqali:

عسکر، دهقان

E) ichki fleksiya hamda an va bin affikslari orqali: حاضر

5-mashq.Qavs ichida berilgan otlarni ko‘plik shaklida yozing:

1) ما (وظيفه) مشكل دарим. 2) (طفل) در صحن مكتب هستند. 3) اين شهرها (مركز) ولايات شرقی افغانستان است. 4) (ظرف) جای روی میز است. 5) مردم افغانستان (عيد) مختلف دارند. 6) پوهنتون کابل مرکز (علم) افغانستان است. 7) (مسجد) شهر هرات بسیار زیبا است. 8) ولايت بلخ و (منطقة) ديگر شمال افغانستان خربوزه های فراوان دارد. 9) (رفيق) ما محصلان (صنف) اول و دوم پوهنتون هستند. 10) (شعر) اين (شاعر) بسیار شیرین است. 11) تمام (مكتب) آن شهر نو و مقبول است. 12) (مملکت) شمال اروپا هواي نسبتا سرد دارند.

6-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Bu bolalar Kobul maktabining uchinchi va to‘rtinchisinf o‘quvchilaridir. 2) O‘zbekistonning shimoliy hududlarida qish juda ham sovuqdir. 3) Afg‘oniston va Hindiston Osiyo davlatlaridir. 4) Sizning majburiyatlarinigiz nimalardan iborat (nimalar hisoblanadi)? 5) Bu faktlar mamlakatning hamma ro‘znomalarida chop etilgan. 6) Bu do‘konda kiyim-kechak va idishlarning narxi juda ham baland. 7) O‘sha

qishloqning dehqonlari uning o'rtoqlaridir. 8) Bugun butun viloyatda (viloyatning hamma yerida) yomg'ir yog'moqda.

7-mashq. Otlarning ma'nosini aniqlang (dars oxiridagi lug'atdan foydalanib) va ularni yod oling:

A. Muassasa va savdo uylari nomlari :

پسته خانه، دفتر، هتل، موزیم، نمایشگاه، کلوب، باغ وحش،
کودکستان، شیرخوارگاه، ستادیوم، جمنازیم، مارکیت، رستوران.

B. Transport vositalarining nomlari:

پس، بائیسکل، رکشا

8-mashq. Izofali so‘z birikmalarini tarjima qiling:

ستادیوم سپورتی، مؤسسه تعلیمی، حوزه صنعتی، پسته خانه مرکزی،
بس برقی.

Matn

شهر کابل

شهر کابل پایتخت افغانستان است. این شهر روی سطح مرتفع واقع است و از این سبب هوای معتدل دارد. تابستان کابل نظر به دیگر شهرهای بزرگ افغانستان سردتر است. در نقاط مختلف شهر و اطراف آن تپه ها موجود است و در وسط شهر دو کوه نوبتاً بلند هست. دریای کابل بزرگ ترین و آب آن مخصوصاً در فصل تابستان کم است.

کابل بزرگترین شهر افغانستان است و نفوس آن بیش از یک میلیون نفر است. تمام وزارت ها و مؤسسات مرکزی کشور در این شهر است. اکثر پیشنهاده گان کابل کارگران فابریکه ها، مأموران دفاتر، محصلان، معلمان، تجار و کسبه کاران هستند.

جاده عمدۀ شهر جاده میوند نام دارد و در وسط این جاده آبده سریاز گمنام است. پسته خانه مرکزی در لب دریا موقعیت دارد. در جاده های کابل موترها، بسها، یا سکل ها و رکشاها در حرکت هستند و در بعضی جاده های شهر بس های بر قی هم هست. در دو کنار جاده های مرکزی شهر دکانها و معازه هاست. در بازارها و مارکیت های کابل تکه ها، البسه، میوه چات و سبدی چات مختلف و اموال دیگر در فروش است.

کابل شهر کنه و شهر نو دارد. در شهر کنه کوچه ها تنگ و تاریک و خانه های قدیم و خراب است، اما در شهر نو جاده ها عریض و عمارت های جدید و زیباست. کابل چند ناحیه جدید هم دارد، از آن جمله مکوریان و خیرخانه مینه. بلاکهای این نواحی عصری و بلند است و چهار یا پنج طبقه دارد.

کابل چند فابریکه بزرگ دارد، از آن جمله فابریکه خانه سازی، کارخانه جات جنگلک و غیره. بعضی فابریکات بیرون شهر در حوزه صنعتی واقع است. در کابل مکاتب و لیسه ها، کتابخانه ها، سینما ها، موزیم ها و مساجد زیاد است. پوهنتون کابل بزرگترین مؤسسه تعلیمی کشور است و اتفاقهای درس، لبراتوارها، چمنزاریم ها و لیلیه مقبول دارد. در کابل همچنان چند شفاخانه عصری، کودکستان ها، شیرخوارگاه ها و بعضی مؤسسات دیگر موجود است.

کابل هوتلها و رستوران های زیاد دارد. هوتل کابل در مرکز شهر و هوتل انترکانتیننتال بالای یک تپه مرتفع است. نان اکثر رستورانها لذیذ و مزه دار است. کابل همچنان پارک ها و باغ های عمومی دارد. از آن جمله باغ باپرشاه، پارک شهر نو، باغ وحش و غیره. اکثر باغهای کابل درختان سبز، خیابان های زیبا و حوض های آب بازی دارد.

چمن حضوری جای تقریح و هوای خوری مردم است. در آنجا ستادیوم بزرگ سپورتی، تئاتر و کلوب های مختلف موجود است. چمن در روز های جشن استقلال جای پرگزاری نمایشگاه ها و کنسرتها در هوای آزاد است.

Matnga sharh

1. اکثر *aksar ‘ko’p’, ‘aksariyat’ olmoshi aniqlanmishdan oldin kelib, u bilan izofa orqali yoki izofasiz bog‘lanadi, masalan:*

اکثر خانه ها *aksar-e xânahâ yoki aksar xânahâ*
‘ko’p uylar’, ‘uylarning aksariyati’

2. بعضی *ba’zé ‘ba’zi’, ‘ayrim’ olmoshi aniqlanmishdan oldin kelib, u bilan izofasiz (bitishuv yo‘li orqali) bog‘lanadi, masalan:*

بعضی دهات	<i>ba’zé dehât</i>	<i>‘ba’zi qishloqlar’</i>
بعضی مردم	<i>ba’zé mardom</i>	<i>‘ba’zi odamlar’</i>

3. Matnda qo‘llanilgan ayrim tuzilma va oborotlar:

در حرکت است	<i>dar harakat ast</i>	<i>‘hatakatlanadi’</i>
در فروش است	<i>dar forôş ast</i>	<i>‘sotiladi’</i>
در هوای آزاد	<i>dar hawâ-yê âzâd</i>	<i>‘ochiq havoda’</i>

4. Matnda keltirilgan atoqli otlar va nomlar:

باغ باپرشاه	<i>bâğ-e Bâborshâh</i>	<i>Kobuldagî bog‘ning nomi</i>
جنگلک	<i>Jangalak</i>	<i>Kobuldagî avtota’mirlash ustaxonalari joylashgan tuman</i>
چمن حضوری	<i>Caman-e hozuri</i>	<i>Kobuldagî katta bog‘ hududi</i>
انترکانتیننتل	<i>Entarkântinantal</i>	<i>“Ihterkontinental” – Kobuldagî katta mehmonxonaning nomi</i>

Xayrxâna-mêna Xayrxona dovonı yaqinidagi
aholi yashaydigan tumanning nomi (Kobulning shimoliy qismi)

Ләб дария Lab-e daryâ Kobul daryosi bo'yidagi ko'cha

9-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling.

- 1) Ana u qishloqning ko'pchilik aholisini chorvadorlardir. 2) Bu shahardagi ko'p restoranlarning taomlari juda mazalidir.
- 3) Afg'onistonning ko'pgina viloyatlarida baland tog'lar bor.
- 4) Guruhimizning ayrim talabalari toshkentlikdir. 5) Mikrorayonning ba'zi binolaridagi uylar (kvartiralar) besh xonalidir. 6) Bu bog'chadagi ba'zi bolalarning otalari ishchilardir. 7) Bu shaharning ba'zi muzey va ko'rgazmalari qiziqarlidir.

10-mashq. Savollarga javob bering.

- الف - 1) پайтخت افغانистан қадам шер аст? 2) ھواي کابل چرا نسبت به اکثر شهر ھاى افغانистан سرдиңىر аст? 3) آيا در کابل و اطراف آن کوه ھا و نېھ ھا هست? 4) آيا دریای کابل آب زىيد دارد? 5) نفوس کابل چند аст? 6) تعمیرات شهر گھنه و شهر تو چه فرق دارد? 7) بلакھاي نواحى جىدید کابل چند طبقه امىت? 8) جاده عمده کابل چه نام دارد? 9) پىته خانه مرکزى در كجاي کابل واقع аст? 10) بهترین هوتل ھاي کابل چه نام دارند? 11) در کابل қадам مؤسسات موجود аст? 12) يوھنتون کابل چه نام دارد? 13) مهمترین فايбирىكە ھاي کابل қадам аст? 14) درچمن حضورى қадам مؤسسات موجود аст?

- ب - 1) شهر شما چه نام دارد? 2) نفوس شهر شما چند аст? 3) آيا در شهر شما دریا هست? 4) ھواي شهر شما سرد аст يى معتدل? 5) اکثر باشىnde گان شهر شما كجا وظيفه دارند? 6) آيا در شهر شما مؤسسات بىرگى صنعتى موجود аст? 7) جاده عمده شهر شما چه نام دارد? 8) آيا ميدان ھوايى از شهر شما دور аст? 9) آيا در شهر شما مرکز تعليمى هست? 10) جاي تفريح مردم شهر تان كجاست? 11) در شهر شما چند موزىم و چند نمايشگاه аст? 12) آيا در چاده ھاي شهر شما بىمهاي يرقى هست? 13) در اطراف شهر شما چىست?

11-mashq. Dariy tilida o'z shahringiz haqida bat afsil matn tuzing.

12-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling.

- A. 1) Ochiq havodagi bu ko'rgazma juda qiziqarlidir. 2) Ana u do'konda gugurt va sigaretlar sotiladi. 3) Vazirliklar poytaxtning turli hududlarida joylashgan. 4) Bu katta savdo markazida nima sotiladi?

5) Shahrimizning sharqida katta zamonaviy binolarga ega yangi tuman bor. 6) Markaziy pochtaxona Toshkentning qaysi qismida joylashgan? 7) Kobulning sanoatlashgan qismida bir nechta zavod va hunarmandchilik ustaxonalari bor. 8) Ikkinci qavatdagagi katta zal majlis va konsertlar o'tkaziladigan joydir. 9) Kobulning Mikrorayonida zamonaviy suzish havzasi bor. 10) Shahar atrofidagi bu hudud shahar aholisining dam olish va sayr maskanidir.

B. Toshkent shahri – O'zbekistonning poytaxti. Toshkent mamlakatning eng katta shahridir va uning aholisi 2,5 milliondan ortiq. Toshkentda sanoat muassasalari ishchilar, xodimlar, talabalar, o'qituvchilar, doktorlar yashaydi. Toshkentda barcha vazirliklar va O'zbekistonning boshqa markaziy muassasalari joylashgan.

Toshkentning eng qadimi qismi Eski shahar deb nomlanadi.

Toshkentning asosiy mavzesi Islom Karimov ko'chasisidir. Bu ko'chada mehmonxonalar, magazinlar, restoranlar bor. Shahar ko'chalarda avtomobillar, avtobuslar harakatlanadi. Toshkentda, shuningdek, metropoliten (*مترو* metro) bor. Toshkent metropoliteni dunyoning eng chiroli metropolitenidir.

O'zbekiston poytaxtida bir qator (يک سلسەلە yak selsela) institutlar bor. O'zbekiston milliy universiteti mamlakatning eng katta ta'lim maskanidir.

Toshkentda bir nechta qiziqarli ko'rgazmalar bor. Eng yirik ko'r-gazma katta maydonni egallaydi va Toshkent aholisi hamda uning mehmonlarining dam olish maskanidir. Toshkent istirohat bog'lari juda chiroylidir va uning yashil hiyobonlari shahar aholisining sayr maskanidir.

Toshkentning turli hududlarida yangi tumanlar bor. Bu tumanlardagi ba'zi ko'p qavatlari uylarning balandligi o'n qavatdan oshiqdir. Ko'p qavatlari uylar yonida savdo markazlari, maktablar, bolalar bog'chalari bor.

D. Siz qaysi shahardansiz? – Men Dushanbe shahridanman. Bu shahar Tojikistonning (تاجیکستان Tajikestân) poytaxtidir. Sizning shahrингиз kattami? – Yo'q, bizning shahrimiz nisbatan katta emas va uning aholisi bir milliondan kamroq. – Sizning shahrингизning havosi qanday? – Dushanbeda havo juda issiq va hatto Kobuldan ham issiqroq. – Sizning shahrингизда istirohat bog'i bormi? – Dushanbeda bir nechta katta bog' bor. Shahrimiz ko'chasing ikki betida ko'plab daraxtlar bor. – Dushanbeda metro bormi? – Yo'q, bizda hali ham metro yo'q, ammo ko'chalarda avtobus va trolleybuslar harakatlanadi. – Sizning shahrингиз ko'chalari kengmi? – Ha, Dushanbe zamonaviy shahar, uning ko'chalari

keng, binolari ko‘p qavatlidir. – Dushanbening asosiy ko‘chasi qanday nomlanadi? – U Rudakiy (رودکی) shoh ko‘chasi deb nomlanadi. – Sizning shahringizda qanday ta‘lim muassasalari bor? – Bizning shahrimizda ko‘plab ta‘lim muassasalari, shu jumladan, bir qator institutlar va davlat universiteti bor. – Dushanbeda kinoteatr va teatrlar ko‘pmi? – Ha, bizda bir qancha kinoteatr va teatrlar bor. – Sizning shahringizdagi eng katta mehmonxona qanday nomlanadi? – U “Tojikiston” deb nomlanadi. – Dushanbe shahrining bozorlarida nima sotiladi? – U yerda turli xil sabzavot va mevalar, shu jumladan, uzum, anor, limon va mazali qovunlar sotiladi. – Dushanbe aholisining asosiy dam olish maskani qayerda joylashgan? – U shahrimizning shimolida joylashgan va “Varzob” (ورزاب) deb nomlanadi.

Lug‘at

آب بازى <i>âbbâzi</i>	cho‘milish; suzish	سٹادیوم <i>setâdeyüm</i>	stadion
آبده <i>âbeda</i>	obida	سطح <i>sath</i> (سطوح) <i>(sotuh)</i>	sath, yuza
اطراف <i>atrâf</i>	atrof	سلسلہ <i>selsela</i>	qator, tizma
اکثر <i>aksar</i>	aksariyat	شیرخوارگاه <i>şîrxârgâh</i> bolalar yaslisi	
اموال <i>amwâl</i>	qar.	صنعت <i>san‘at</i> (صنایع) <i>(sanoat)</i>	hunar, sanoat
او ضاع <i>awzâ‘</i>	vaziyat, holat	طرف (ها، اطراف) <i>taraf</i>	taraf, tomon
باشندہ (گان) <i>bâshenda</i>	istiqomat qiluvchi	عصری <i>‘asri</i>	zamonaviy
باغ عمومی <i>bâğ-e ‘omumi</i>	istirohat bog‘i	عسکر (ها، ان، عساکر) <i>‘askar</i>	askar
یاغ و حش <i>bâğ-e wahš</i>	hayvonot bog‘i	عمارت <i>‘emârat</i> (ها، ات) <i>(at)</i>	bino
بایسکل <i>bâysekel</i>	velosiped	عمده <i>‘omda</i>	asosiy
بحیره <i>bahira</i>	dengiz	غذا (ها، اغذیه) <i>gezâ</i> (agzeya)	taom
برگزاری <i>bargozâri</i>	o‘tkazish	فروش <i>forôş</i>	sotish

بس <i>bas</i>	avtobus	کارخانه (ها، جات) کسبه کار (ان)	<i>kârxâna</i>	ustaxona
بعضی <i>ba'zé</i>	ba'zi	کلوب <i>kolup</i>	<i>kasabakâr</i>	hunarmand
پارک <i>park</i>	bog'	کنسرت <i>kansart</i>	<i>klub</i>	konsert
پسته خانه <i>postaxâna</i>				
pochtaxona				
تاجر (ان، تجار) <i>tâjer</i>	tijoratchi	کوکستان <i>kôdakestan</i>		
(<i>tojjâr</i>)		bolalar bog'chasi		
تبه <i>tap(p)a</i>	tepalik	گمنام <i>gomnâm</i>	<i>noma'lum</i>	
(تله) <i>ta'lim</i>	ta'lim	لابراتوار <i>läbrâtwâr</i>		
تیاتر <i>tayâtr</i>	teatr	لذیذ <i>laziz</i>	<i>mazali</i>	
جمنازیم sport zali		مارکیت <i>mârkêt</i>	<i>market</i>	
حرکت (ات) <i>harakat</i>	harakat	مال (اموال) مرتفع <i>mâl</i> (<i>amwâl</i>) <i>mortafe'</i>	<i>mol-mulk,</i> <i>tovar</i> <i>baland</i>	
حقیقت (حقیقی) <i>haqiqat</i> (<i>haqâyeq</i>)				
حوزه <i>hawza</i>	mintaqa, zona	معتدل <i>mo'tadel</i>	<i>mo'tadil</i>	
حوض <i>hawz</i>	basseyn	موزیم <i>muzyam</i>	<i>muzey</i>	
خبر (ها، اخبار) <i>xabar</i> (<i>axbâr</i>)	xabar	مؤسسه (ات) <i>mo'assasa</i>	<i>muassasa</i>	
خیابان <i>xeyâbân</i>	xiyobon	نایحه (نواحی) <i>nâheya</i>	<i>tuman</i>	
دفتر (ها، دفتر) <i>daftar</i> (<i>dafâter</i>)	idora, ofis	نمایشگاه <i>nomâyeşgâh</i>		
رستوران <i>rastórân</i>	restoran	کو'ргازما وضع (او ضاع) <i>ko'rgazma</i> (<i>waz'</i>) (<i>awzâ</i>)	<i>vaziyat</i>	
رکشا <i>reksâ</i>	reksha	هواخوری <i>hawâxori</i>	<i>sayr</i>	
سپورت <i>sopôrt</i>	sport			

O'N TO'RTINCHI DARS

دروس چهардем

Fe'l فعل fe'l

Fe'l harakat-holat ma'nosini anglatuvchi so'z turkumidir. Dariy tilida ham, o'zbek tilidagidek, fe'llar bilan ifodalangan harakat⁷ tushunchasi zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari bilar uzyvi bog'liqidir. Bulardan tashqari, fe'llar orqali yana harakatning o'timli yo o'timsizligi, bo'lishli yo bo'lishsizligi kabi ma'nolar ham ifodalanadi. Shuningdek, fe'llarning ot, sifat, ravish turkumlariga xos xususiyatlarga ega bo'lgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari ham bor.

Dariy tilida fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda (افعال ساده يا بسيط) af'al-e sâda yâ basit), prefiksli (افعال پيشوندي) af'al-e pêşwandi) va qo'shma (افعال مرکب) af'al-e morakkab) fe'llarga bo'linadi.

Sodda fe'l infinitivi

مصدر masdar

Dariy tilidagi fe'llar lug'atlarda har doim masdar, ya'ni infinitiv (noaniq) shaklida beriladi. Fe'lning bu shakli shaxs, son va zamonni anglatmagani uchun ham fe'lning noaniq shakli deb ham yuritiladi

Dariy tilidagi fe'llarning infinitiv shakli har doim urg'uli -an qo'shimchasiga tugallangan bo'ladi, masalan:

پرسىدىن porsidán 'so'ramoq'

رۇقىنىنىڭ raftán 'bormoq', 'ketmoq'

گۈقىنىنىڭ goftán 'aytmoq', 'demon'

Mazkur shakl harakatning bajarilishini va shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning nomini bildiradi, u harakat-holatning atamasi hisoblanadi va o'zbek tilida harakat nomiga to'g'ri keladi. O'zbek tilida fe'lning harakat nomi formasi -i/sh, -u/v, -moq affikslari yordamida yasaladi:

امدىñ ámadan 'kelmoq', 'kelish'

خواندىñ xândan 'o'qimoq', 'o'qish', 'o'quv'

نوشتن naweştan 'yozmoq', 'yozish', 'yozuv'

Shu sababli infinitiv otlarga xos grammaticko'ssatkichlarni qabul qila oladi, gapda otlarga xos vazifalarda kela oladi:

⁷ Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, u psixik o'zgarishlar, holat, biologik jarayonlar va shu kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

1. Ot kabi izofa qabul qiladi:

مکتب جای آموختن علم و اخلاق است

Maktab jâ-ye âmôxtan-e elm-o axlâq ast

‘Maktab ilm va ahloq o’rganish (o’rganadigan) joyidir’

2. Ot kabi ko’makchilar, son affikslari hamda enklitik olmoshlar bilan birikadi:

بنده از آمدن شما ممنونم

Banda az âmadan-e šomâ mammunam

‘(Kamina) sizning kelishingizdan xursandman’

خواندن روان است

Xândan-at rawân ast ‘O’qishing ravon’

ما براى دیدن فلم وقت نداریم

Mâ barâye didan-e felm waqt nadârêm

‘Bizning film ko’rish uchun (ko’rishga) vaqtimiz yo’q’

Izoh. *barâye* ‘uchun’ ko’makchisi (ba’zan -ga qo’shimchasining ma’nosini beradi) ismiy so’z turkumiga oid bo’lmasa-da, izofali ko’makchi kabi qo’llanadi, masalan: *barâye atfâl* ‘bolalar uchun’, *barâye-tân* ‘siz uchun’, ‘sizga’.

3. Ot kabi ega, kesim va ikkinchi darajali bo’lak vazifasida keladi:

پول یافتن آسان نیست *Pul yâftan âsân nêst*

‘Pul topmoq oson emas’

کار نیко کردن از پر کردن است

Kâr nêkô kardan az por kardan ast

‘Ishni yaxshi bajarmoq ko’p ishlamoqdandir
(ya’ni ko’p ishlash natijasida qo’lga kiritiladi)’ (*Maqol*).

1-mashq. Fe’llarning ma’nosini aniqlang va ularni yod oling:

رften، آمدن، بىردىن، آوردىن، شىنىدىن، دادن، گرفتن، گفتن، خواندىن، نوشتن، فهمىدىن، خوردىن، ناشستن، افتادن، گشتن، گذاشتىن، ماندىن، انداختن، خرىدىن، زىدىن، پوشىدىن، كشىدىن.

2-mashq. O’qing va tarjima qiling.

۱) دىدىن ياغ بايرشاھ بىسوار دلچىسب است. ۲) خواندىن اين متن براى ما آسان نىست. ۳) آيا فهمىدىن آن داستان برايىت مشكىل است؟ ۴) كار خانە كى شما نوشتن اين جملات است.

۵) شىنىدىن قىصەهای تو براى ما دلچىسب است. ۶) وظىيە شما آوردىن آن كتابىيەاست. ۷) من براى رften به حوض آب بازى وقت ندارم. ۸) رحيم به

خواندن اشعار علاقه دارد. ۹) خریدن آن اسپ مشکل نیست. ۱۰) در مسجد
کشیدن کلاه درست نیست. ۱۱) رفتن به نمایشگاه برای تو مهم است. ۱۲) ما
به گشتن در باع علاقه نداریم.

Fe'l negizi ریشه فعل *rēşa-ye fe'l*

Dariy tilida fe'l negizi ikkita:

- 1) o'tgan zamon fe'l negizi;
- 2) hozirgi zamon fe'l negizi.

Dariy tilida har bir fe'l ikki negiz: o'tgan hamda hozirgi zamon fe'l negiziga ega. Fe'lning o'tgan zamon negizi yordamida o'tgan zamon fe'l shakllari, hozirgi zamon negizi yordamida hozirgi zamon va kelasi zamon fe'l shakllari yasaladi.

O'tgan zamon fe'l negizi مصدر *masdar* infinitiv oxiridan نـ-ان qo'shimchasini olib tashlash bilan yasaladi, masalan:

أوردن <i>āwardan</i> 'keltirmoq'	-	أورد <i>āward</i>
آمنن <i>āmadan</i> 'kelmoq'	-	آمد <i>āmad</i>
نوشتن <i>naweštan</i> 'yozmoq'	-	نوشت <i>nawešt</i>
گفتن <i>goftan</i> 'aytmoq'	-	گفت <i>goft</i>

Ilova. Dariy (fors-tojik) tilida o'tgan zamon fe'l negizi -t ga, agar undan oldingi tovush jarangsiz undosh bo'lsa yoki -d ga, agar oldingi tovush r yoki n undoshi yoxud unli bo'lsa, tugallanadi. Misollardan tekshiring.

Fe'lning hozirgi zamon negizi fe'llarning qoidali va qoidasiz bo'lishiga ko'ra turli usulda yasaladi. Shuning uchun lug'atlarda fe'l masdari bilan bir qatorda, uning hozirgi zamon negizi ham beriladi (20- darsda ko'rib chiqiladi).

O'tgan zamon aniq fe'li (preterit) فعل ماضى عادى يـا مطلق *fe'l-e māzi-ye ădi yâ motlaq*

O'tgan zamon aniq fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin aniq bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi. Bunda biror hodisaning bo'lgan yoki bo'lmaganligini birovdan eshitib emas, balki so'zlovchining o'zi ko'rghanligi va bilganligi anglashiladi. O'tgan zamon aniq fe'li, asosan, takrorlanmagan, davomli bo'lmagan, muayyan bir vaqt ichida bo'lib o'tgan harakatni ifodalaydi.

Dariy tilida o'tgan zamon aniq fe'li fe'llarning o'tgan zamon negiziga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi. O'tgan

zamon aniq fe'lining III shaxs birlik shakli o'tgan zamon fe'l negiziga teng keladi. Fe'lning tuslanishida urg'u nezizning oxirgi bo'g'iniga tushadi, masalan:

من آمدм	<i>man âmâdam</i>	'men keldim'
то آмдї	<i>tu âmâdi</i>	'sen kelding'
о́ Амд	<i>ô âmâd</i>	'u keldi'
ма Амдим	<i>mâ âmâdêm</i>	'biz keldik'
шама Амдид	<i>şomâ âmâdêd</i>	'siz keldingiz'
анна́ Амданд	<i>ânhâ âmâdand</i>	'ular keldilar'

O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakli fe'l oldiga ى -na inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi; urg'u inkor yuklamasiga tushadi, masalan:

من نخوانдм	<i>man náxândam</i>	'men o'qimadim'
то Нхованди	<i>tu náxândi</i>	'sen o'qimading'
о́ Нхованд	<i>ô náxând</i>	'u o'qimadi'
ма Нховандим	<i>mâ náxândêm</i>	'biz o'qimadik'
шама Нховандид	<i>şomâ náxândêd</i>	'siz o'qimadingiz'
анна́ Нхованданд	<i>ânhâ náxândand</i>	'ular o'qimadilar'

ى -na inkor yuklamasining imlosi

1. 1 a cho'ziq unlisi bilan boshlangan fe'llarning bo'lishsiz shaklida inkor yuklamasidan keyin bir ى y orttiriladi, masalan:

من نиямдм	<i>man náyâmadam</i>	'men kelmadim'
то Ниямди	<i>tu náyâmadi</i>	'sen kelmading' kabi.

2. a yoki o qisqa unlisi bilan boshlangan fe'llarning inkor shaklida ى -na inkor yuklamasidan so'ng bir ى y orttirilib, fe'l boshidagi 1 alef tushib qoladi, ba'zan ajratib yoziladi, masalan:

من نېقтләм	<i>man náyoflâdam</i>	'men yiqlimadim'
о́ Нېقتәд	<i>ô náyoflât</i>	{ 'u yiqlimadi'
о́ Нә افتاد	<i>ô náoftâd</i>	

3-mashq. Fe'llarni o'tgan zamon aniq fe'l shaklida tuslang:
A. Bo'lishli shaklda:

Рфтен , آوردن , شниден , گرفтен , فهمиден , گذاشتэн , پوشیدен.

B. Bo'lishsiz shaklda:

آمدن ، نوشتن ، افتадن ، ماندن ، انداختэн ، نشستэн ، بردن.

4-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

men oldim, u yozdi, biz olib kelmadik, sen qolding, ular tashlashdi, siz urmadingiz, u sotib oldi, men yemadim, sen qo'ymading, siz tushundingiz, biz bermadik, ular o'tirishmadi, men sayr qildim, sen eshitmading, biz keldik, u olib bordi, men kiydim, ular o'qishmadi, siz yiqildingiz, u dedi (gapirdi), sen ketmading, men ko'rdim.

5-mashq. O'qing va tarjima qiling:

(1) ما خط گرفتيم. (2) فاروق در کوچه گشت. (3) من به زمین نیفتابم.
 (4) تو برای ما شعرخواندی. (5) محصلان به صنف رفتند. (6) شما نفهمیدید. (7) تو به لطیفه چه دادی؟ – من به او بشقاب دادم. (8) انور کجا رفت؟ – انور به چاریکار رفت. (9) تو صبح چه خوردی؟ – من صبح چای خوردم. (10) شما برای ما چه آوردید؟ – ما برای شما تحفه آوردیم (11) موسی به خانه نیامد؟ – چرا؟ موسی به خانه آمد. (12) تو کجا نشستی؟ – من پشت میز نشستم. (13) شما کلاه نپوشیدید؟ – ما کلاه پوشیدیم. (14) مادرت چه خرید؟ – مادرم ترکاری خرید. (15) آنها چه گفتند؟ – آنها حقیقت گفتند. (16) آیا شما در خانه ماندید؟ نه، ما درخانه نماندیم. (17) تو برای چه آمدی؟ – من برای دیدن شما آمدم.

6-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

(1) من قهوه خوردم. (2) من گل خریدم. (3) من به سینما رفتم. (4) من به چوکی نشستم. (5) من بالا پوش نپوشیدم. (6) من از بکس کتاب کشیدم.

7-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Men stolga o'tirdim va choy ichdim. 2) Sen menga pichoq bermading. 3) Dovud va Ali Mozori Sharifdan kelishdi. 4) U kitobni oldi va kutubxonaga olib bordi. 5) Mening do'stlarim Afg'onistonga ketishdi. 6) Men guldonga gullarni soldim. 7) Tarelka stoldan tushib ketdi. 8) Biz o'rmonda aylandik va uyga keldik. 9) Siz ro'znama o'qidingizmi? 10) Men ventilator olib keldim. 11) Sen nima tashlading? – Men tosh tashladim. 12) Siz nima keltirdingiz? – Biz tarvuz olib keldik. 13) Sening kursdoshlarining qayerda qoldi? – Ular institutda qolishdi. 14) Muso qayerga ketdi? – Muso kinoga ketdi. 15) Siz nima sotib oldingiz? – Men sigaret sotib oldim. 16) Sen kostyum kiydingmi? – Ha, men kostyum kiydim. 17) Nimaga siz uzum yemadingiz? – Biz uzum yedik.

8-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Biz Latifaning uyiga keldik. 2) Sen menga chiroq olib keldingmi? 3) Ular zavod direktorining oldiga ketdilar. 4) Men unga sovg'a berdim.

5) Siz bizga haqiqatni aytdingiz. 6) Zalmay menga (men uchun) yangi she'rlar o'qidi. 7) Ular ko'l bo'yiga keldilar. 8) Sening akang mening uyimga keldi. 9) Men senga yangi oyoq kiyim sotib oldim. 10) Mening o'rtoqlarim stadionga ketishdi. 11) Qodir otangizning oldiga keldi. 12) Nega siz ularga xat yozmadingiz? 13) Biz Toshkentga keldik. 14) Rahima unga portfel berdi. 15) Men mehmonlarga choy olib keldim. 16) Ular Farohga ketishdimi? 17) Sen menga gugurt berding. 18) U bolaga sut sotib oldi.

بودن *budan* va داشتن *dästan* fe'llarinining

o'tgan zamon aniq fe'l shaklida ishlatalishi

بودن *budan* 'emoq' va داشتن *dästan* 'ega bo'lmoq' fe'llari o'tgan zamon aniq fe'l shaklida o'tgan zamonda davom etgan holatni bildiradi, masalan:

من مريض بودن *Man mariz budam* 'Men kasal edim'

احمد قلم در سست داشت *Ahmad qalam dar dast däst*

'Ahmadning qo'lida ruchka bor edi'

9-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Men kecha kinoda edim.
- 2) Mening bobomning ikkita akasi bor edi.
- 3) Rahmon qora kostyumda edi.
- 4) Ular aerodromda edilar.
- 5) Anavi qizni Parvin deb chaqirishardi.
- 6) Bizning avtomobil buzuq edi.
- 7) Unga she'r eshitish qiziqarli edi.
- 8) Yoqub oq sallada edi.
- 9) Sen qayerda eding? – Men Is'hoqning uyida edim.
- 10) Nimaga sizlar majlisda bo'lmaodingiz? – Biz majlisda bo'lmaqidik, chunki band edik.
- 11) Kecha ob-havo qanaqa edi? – Kecha kun bo'yi yomg'ir yog'di.
- 12) Anavi qishloq qanday nomlanardi? – U (qishloq) Gulbog' (گلباخ) deb atalardi.
- 13) O'sha kuni u kasal edi, lekin uning isitmasi yo'q edi.
- 14) Siz o'sha kuni qayerda edingiz? – Biz o'sha kuni ko'rgazmada edik.

10-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Darsdan so'ng talabalar kutubxonaga yo'l olishdi.
- 2) Uyqu oldidan biz parkda aylandik.
- 3) Ta'tildan so'ng Yusuf uyiga keldi.
- 4) Bayramdan oldin biz sovg'alar sotib oldik.
- 5) Men kitob o'qidim, keyin radio tingladim (eshitdim).
- 6) Bir necha daqiqadan so'ng – konsert.
- 7) Bir yil avval biz maktab o'quvchilari edik.
- 8) Bir soatdan so'ng Ibrohim yonimga keldi.
- 9) Besh kun avval biz rangli televizor sotib oldik.
- 10) Men ketishimdan oldin (o'z) akamga xat yozdim.
- 11) Biz kinofilm ko'rdik, keyin esa shaharni aylandik.
- 12) Yomg'irdan so'ng ular tashqariga chiqishdi.
- 13) Avvalroq qayerda edingiz? –

Avvalroq men auditoriyada edim. 14) Ali ikki kun avval menga kitob olib keldi. 15) Bir haftadan so'ng bizning majlisimiz bor.

11-mashq. Hikoyani o'qing va so'zlab bering:

سن ملا نصرالدین

йк роз مرдм бе خане مла Нурсадин Амденд и پрседнен: Сен то چнд
аст? او گфт: Сен мен چهل сал аст.
бүд аз пінж сал мердм үк роз бар діккәр үшін мла Нурсадин Амденд и
прседнен: Сен то چнд аст? Мла Дубаре گфт: چهل сал. Мердм ба تعجب
прседнен: Пінж сал үшін چел сал даштى و حالа ھем چел сал дарى? Мла
گфт: Білі, мерд үк گіп дард.

Prefiksli fe'llar

افعل پیشوندی *af'dl-e peshwandi*

Dariy tilida fe'llar turli prefiksler yordami bilan ham yasaladi. Bunday fe'llar prefiksli fe'llar deb ataladi. Prefiksler fe'llarning tub ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Mavjud prefiksli fe'llar qadimiy tip yasalishi bo'lib, hozirgi dariy tilida mahsulsiz. O'zbek tilida bu xilda fe'l yasash usuli bo'lmagani uchun ularning ma'nosi qo'shma fe'llar va ma'nosi mos keladigan birikmalar orqali beriladi.

Dariy tilida fe'l yasovchi prefiksler (sodda fe'llarga qo'shilib) quyidagilardan iborat: بىر *bar*, در *dar*, فرو *farā* (far), فرود *forō* yoki باز *baz*, وا *wā*. Masalan:

амден <i>amadan</i> 'kelmoq'	- بىر آمدن <i>barāmadan</i> 'chiqmoq'
ياғын <i>yâftan</i> 'topmoq'	- در ياقتن <i>daryâftan</i> 'olmoq'
گرفтен <i>gereftan</i> 'olmoq'	- فرا گرفتن <i>farâgerefstan</i> 'o'zlashtirmoq', 'qamrab olmoq'
رفтен <i>raftan</i> 'ketmoq'	- فرو رفتен <i>forôraftan</i> 'pastga ketmoq', 'cho'kmoq'
گаштэн <i>gaštan</i> 'aylanmoq'	- باز گاشтен <i>bâzgaštan</i> 'qaytmoq'
даштэн <i>dâštan</i> 'ega bo'lmoq'	- بىر داشتن <i>bardâštan</i> 'ko'tarmoq'
дан <i>dâdan</i> 'bermoq'	- باز دادن <i>bâzdâdan</i> 'qaytarib bermoq'

Prefiksli fe'llarning o'tgan zamon aniq fe'l shaklida tuslanishi

Prefiksli fe'llar bo'lishli shaklda sodda fe'llar kabi tuslanadi, faqat asosiy urg'u prefiksga, ikkinchi darajali urg'u shaxs-son qo'shimchalariga tushadi.

برگشتن *bargaştan* ‘qaytmoq’ fe'lining tuslanishi

مفرد

من يрگشتм	<i>man bárgaštäm</i>	‘men qaytdim’
تو بирگشتى	<i>tu bárgaştı</i>	‘sen qaytding’
او پرگشت	<i>ô bárgašt</i>	‘u qaytdi’

جمع

ما بيرگشتим	<i>mâ bárgaštêm</i>	‘biz qaytdik’
шما بирگشتىد	<i>šomâ bárgaštèd</i>	‘siz qaytdingiz’
Анаа биргشتтад	<i>ânhâ bárgaštànd</i>	‘ular qaytdilar’

Bo'lishsiz shaklda prefiksli fe'llarda *na-* inkor yuklamasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Asosiy urg'u *na-* inkor yuklamasiga, ikkinchi darajali urg'u prefiksga tushadi, masalan:

من بирнегشتим	<i>man bárñágaštäm</i>	‘men qaytmadim’
то бирнегشتى	<i>tu bárñágaştı</i>	‘sen qaytmading’ kabi.

Dariy tilida *barâmadan* ‘chiqmoq’, *darâmadan* ‘kirmoq’, *bardâstan* ‘ko'tarmoq’ fe'llari prefiksdan ajralmaydigan fe'llar guruhiqa kiradi. Bu fe'llar tuslanganda *na-* inkor yuklamasi prefiksden oldin keladi; kitobiy uslubda undan keyin qo'yilishi mumkin. Urg'u inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

من نдерآمدм	<i>man nádarâmadam</i>	‘men kirmadim’
من در نیالمد	<i>man dàrnáyâmadam (kitob.)</i>	
то ндерآمдї	<i>tu nádarâmadi</i>	‘sen kirmading’ kabi.
то درنیامдї	<i>tu dàrnáyâmadi (kitob.)</i>	

12-mashq. Fe'llarni o'tgan zamon aniq fe'l shaklida tuslang:

A. Bo'lishli shaklda: در گشتن، بر دادن، بر خاستن، در آمدن.

B. Bo'lishsiz shaklda: در گرفتن، بر آمدن، بر خوردن، بر داشتن.

13-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

- ۱) من از صنف نیرآمدم. ۲) من يكىن بير داشتم. ۳) من در حويلى سگرت دردادم. ۴) من از چوکى بير نخاستم. ۵) من به خانه درآمدم. ۶) من با احمد بير نخوردم. ۷) من به وطن بير گشتمن.

14-mashq. O'qing va tarjima qiling:

(1) من از زمين سنگ بيرداشتم. (2) شما به اتاق ندرآمدید. (3) ما در فاكولته با آن جوان بىخورديم. (4) تو چرا بخارى درندادی؟ (5) بىرادرم تمام روز از خانه نبرآمد. (6) اسحق صبح از خواب بىر خواست. (7) آيا آنها به خانه بىر نگشتند؟ (8) گوگرد در نگرفت. (9) معلم بىصنف درآمد.

15-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Biz o'tin yoqdik (yondirdik) va u yonib ketdi. 2) Men ertalab uydan chiqdim, kechqurun esa uyga qaytdim. 3) Nega siz auditoriyadan chiqmadingiz? 4) Sen Rahim bilan qayerda uchrashding? 5) Rashid yerdan daftar oldi. 6) Men divandan turdim va mehmonxonadan chiqdim. 7) Bugun biz kinoteatrda opang bilan uchrashdik. 8) Talabalarning barchasi laboratoriya ga kirdi. 9) Gugurt nega yonmadid?

16-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Biz palto kiydik, uydan chiqdik va teatrga ketdik. 2) Men magazinga bordim va senga daftar sotib oldim. 3) Sen qog'oz va ruchka olding, stolga o'tirding va Is'hoqga xat yozding. 4) Ular bir necha daqiqa hovlini aylanishdi, keyin yana mehmonxonaga qaytishdi. 5) Uch kun avval mening amakivachcham boshqa shahardan biznikiga keldi. 6) Tanaffusdan so'ng barcha talabalar qayta auditoriyaga kirdilar. 7) Bir soat avval biz do'stumning otasi bilan ko'chada uchrashdik. 8) Avval men o'quvchi edim, endi bo'lsa talabaman. 9) Bir necha kundan so'ng bizning muhim majlisimiz bor. 10) Siz qayerda edingiz? – Biz mening akamning uyida edik. 11) Laylo ko'k ko'ylik va oq tuflida edi. 12) Nega sen menga haqiqatni aytmadning? 13) Men portfeli stol ustiga qo'ydim va undan darslikni chiqardim. 14) Sen bizga nima olib kelding? – Men sizlarga mandarin olib keldim. 15) Ahmadni qo'lida gul bor edi. 16) Bizning do'stlarimiz stadionga ketishdi. 17) Biz oldingizga yangiliklarni eshitish uchun keldik. 18) Bolalar ko'lga cho'milishga ketishdi. 19) Kecha siz stipendiya oldingizmi? – Yo'q, kecha biz stipendiya olmadik. 20) Likopcha stoldan yerga tushib ketdi. 21) Darsdan so'ng guruhimizning barcha talabalari auditoriyada qolishdi.

Lug'at

افتلن اوғтадан	yiqilmoq	خواندن ҳандаң	o'qimoq
آمند آмадан	kelmoq	خوردن ҳордан	yemoq

انداختن	<i>andâxtan</i>	otmoq,	دادن	<i>dâdan</i>	berinoq
		tashlamoq			
آوردن	<i>âwardan</i>	keltirmoq	داستان	<i>dâstân</i>	hikoya qilish
بار	<i>bâr</i>	marta, daf'a	در آمدن	<i>darâmadan</i>	kirmoq
برآمدن	<i>barâmadan</i>	chiqmoq	در گرفتن	<i>dargereftan</i>	yonmoq
برای	<i>barâye</i>	uchun, ...-ga	دوباره	<i>dobârá</i>	qaytadan
برخاستن	<i>barxâstan</i>	turmoq	دین	<i>didân</i>	ko'rmoq
برخوردن	<i>barxôrdan</i>	duch	رفتن	<i>raftan</i>	bormoq, ketmoq
		kelmoq, uchrashmoq			urmoq
برداشتن	<i>bardâstan</i>	ko'tarmoq	زدن	<i>zadan</i>	eshitmoq
			شیندن	<i>şonidan</i>	
بردن	<i>bordan</i>	olib			
		bormoq			
برگشتن	<i>bargaştan</i>	qaytmoq	فهمیدن	<i>fahmidan</i>	tushunmoq
			قبل	<i>qabl</i>	oldin, avval
بعد، بعدا	<i>ba'd,</i>	keyin,			
	<i>ba'dan</i>	so'ngra			
بودن	<i>budan</i>	bo'lmoq	قبلًا	<i>qablan</i>	ilgari
		so'ramoq			
پرسیدن	<i>porsidan</i>		کشیدن	<i>kaşidan</i>	tortmoq, yechmoq
پس	<i>pas</i>	keyin, so'ng	گپ	<i>gap</i>	gap
پسان	<i>pasân</i>	so'ngra	گذاشتن	<i>gozâstan</i>	qo'ymoq
پوشیدن	<i>pôšidan</i>	kiymoq	گرفتن	<i>gereftan</i>	olmoq
پیش	<i>pêš</i>	oldin	گشتن	<i>gaštan</i>	aylanmoq
پیشتر	<i>pêštar</i>	oldinroq	گفتن	<i>gofstan</i>	gapirmoq
تعجب	<i>ta'ajjob</i>	taajjub	ماندن	<i>mândan</i>	qolmoq
خریدن	<i>xaridan</i>	sotib	ملا	<i>mollâ</i>	mulla
		olmoq			
نشستن	<i>nešastan</i>	o'tirmoq	نوشتن	<i>naweštan</i>	yozmoq

O'N BESHINCHI DARS

درس پانردهم

Qo'shma fe'llar افعال مركب *af'âl-e morakkab*

Dariy tilida qo'shma fe'llar fe'llarining asosiy miqdorini tashkil etadi. Qo'shma fe'llar ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) ot qism; 2) fe'l qism.

Ot qism o'mida sifat, ot, son, olmosh, ravish so'z turkumlariga oid so'zlar qo'llaniladi. Fe'l qism o'mida sodda (kam hollarda – prefiksli va qo'shma fe'l) fe'llarning birortasi bo'lishi mumkin.

Qo'shma fe'llarni hosil qilishda **کردن** *kardan* 'qilmoq' va **شدن** *şodan* 'bo'lmoq' (o'timsiz fe'l yasashda) fe'llari ko'proq ishtirok etadi, masalan:

کار کردن *kâr kardan* 'ishlamoq' (aynan 'ish qilmoq')

پاک کردن *pâk kardan* 'tozalamoq' (aynan 'toza qilmoq')

داخл شدن *dâxel şodan* 'kirmoq' (aynan 'kirivchi bo'lmoq')

مریض شن *mariz şodan* 'kasal bo'lmoq'

Qo'shma fe'lning fe'l qismi (komponenti) vazifasida quyidagi fe'llar ko'proq ishlataliladi:

a) o'timli qo'shma fe'l yasashda: **کردن** *kardan* 'qilmoq' (va uning sinonimlari **دادن** *namudan*, **ساختن** *sâxtan*, **گرداندن** *gardândan*), **نمودن** *namudan*, **آوردن** *zadan* 'urmoq', **زدن** *zadan* 'keltirmoq', **ماندن** *mândan* 'qo'ymoq', 'qoldirmoq'; 'qolmoq' va, shuningdek, **قرار دادن** *qarâr dâdan* qo'shma fe'li va boshqalar;

b) o'timsiz qo'shma fe'l yasashda: **شدن** *şodan* 'bo'lmoq', **گردیدن** *gardidan* 'aylanmoq', **بودن** *budan* 'bo'lmoq', 'emoq', **گرفتن** *gerefstan* 'olmoq', **ယاتقىن** *yâftan* 'topmoq', 'olmoq', **دیدن** *didan* 'ko'rmoq' va boshqalar.

Qo'shma fe'l yasashda prefiksli fe'llar ham alohida o'rincutadi. Bu o'rinda eng ko'p ishlataladigan prefiksli fe'llar quyidagilar:

بر آوردن *bardâştan* 'ko'tarmoq', 'olmoq', **بر داشتن** *barâwardan* 'amalga oshirmoq', 'bajarmoq', **بر انگىختن** *barangêxtan* 'qo'zg'atmoq'.

Ko'pincha o'timli ma'nodagi qo'shma fe'llarning yordamchi qismini boshqa fe'l bilan almashtirish orqali ulardan o'timsiz fe'l yasaladi. Bu xildagi almashish ko'proq **کردن** *kardan* 'qilmoq' bilan **شدن** *şodan* 'bo'lmoq' yordamchi fe'llari orasida sodir bo'ladi. Masalan:

آغاز کردن	<i>âğâz kardan</i>	آغاز شدن	<i>âğâz şodan</i>
'boshamoq'		'boshamoq'	
آشنا کردن	<i>âşna kardan</i>	آشنا شدن	<i>âşna şodan</i>
'tanishtirmoq'		'tanishmoq'	
بیدار کردن	<i>bêdâr kardan</i>	بیدار شدن	<i>bêdâr şodan</i>
'uyg'otmoq'		'uyg'onmoq'	
پیروزش دانن	<i>parwareş dâdan</i>	پیروزش ياقتن	<i>parwareş yâftan</i>
'tarbiyalamoq'		'tarbiyalanmoq'	<i>kabi.</i>

Qo'shma fe'l tarkibiga kirgan fe'llar qisman yoki to'la o'z leksik ma'nolarini yo'qotib, ko'proq mavhum tushuncha kasb etadi va yordamchi fe'l vazifasini bajaradi. Zamon, shaxs-son affikslari qo'shma fe'llarning ikkinchi komponentiga (yordamchi fe'lga) qo'shiladi, masalan:

ادامе дадим	<i>edâma dâdam</i>	' davom etdim'
хрид крдим	<i>xarid kardêm</i>	'sotib oldik' kabi.

Urg'u bo'lishli shaklda fe'lning ot qismiga, bo'lishsiz shaklda -na inkor yuklamasiga tushadi:

درمن تمام شد	<i>Dars tamâm şod</i>	'Dars tugadi'
ドロワゼ バズ ナシド	<i>Darwâza bâz nášod</i>	'Eshik ochilmadi'

1-mashq. Murakkab fe'llarning ma'nosini bering va ularni yod oling:

تغريف کردن ، تييار کردن، ياك کردن، تمام کردن، تمام شدن، مسلم دадن، شروع کردن، داخل شدن، گرم کردن، چاق شدن، تيلфонون کردن، باز کردن، سپورت کردن، کار کردن، ترجمه کردن، حرف زدن، شروع شدن، روان کردن، نزديک شدن، جنگ کردن، مريض شدن، تحفه دادن، آزاد روان کردن، نشان دادن، آب بازى کردن، قصه کردن، غلط کردن، آشنا شدن، هواخورى کردن، تمام کردن، جشن گرفتن، تعجب کردن، روان شدن، خدمت کردن، دور شدن، گپ زدن، فکر کردن، كهنه شدن، باز شدن، ياد گرفتن، لاغر شدن، جواب دادن، انتظار كشیدن، دوست داشتن، خراب شدن.

2-mashq.O'qing va tarjima qiling:

- 1) ما در باغ نشستيم و قصه کرдим. ٦) نبى از پيش من دور شد. ٣) آنها پلو دوست دارند. ٤) شما با تجبيه کجا آشنا شيد؟ ٥) من به او جواب ندادم.
- ٦) ما چند جمله ترجمه کردیم. ٧) تو از گپ من چرا تعجب کردی؟ ٨) آنها در جنگ هواخورى کرند. ٩) من به آن دکان نزديک شدم. ١٠) ما از صبح تا شام کار کرديم. ١١) زلمى برای مهمانان چای تييار کرد. ١٢) شما چرا با

ایراهیم جنگ کرید؟^{۱۳}) من برای بچه ام بایسکل تحفه دادم.^{۱۴}) محصلان به ستادیوم رفتند و شیورت کردند.^{۱۵}) در تابستان ما کنار بدیره تفریح کردیم.^{۱۶}) شما با آن مرد کجا حرف زدید؟^{۱۷}) چرا به ما سلام ندادی؟^{۱۸}) ما چند دقیقه انتظار کشیدیم و بعد از آن به صحن داخل شدیم.^{۱۹}) کار شما تمام نشد؟ – چرا نه؟ کار ما تمام شد.

3-mashq. Qavslarni oching, fe'llarni o'tgan zamon aniq se'l shaklida qo'ying:

(۱) من نیروز به ثریا (تیلفون کردن). (۲) دوستم به اتاق (داخل شدن). (۳) آن سربازان برای وطن (خدمت کردن). (۴) او از آن گپها (تعجب کردن). (۵) ما به کندهار خط (روان کردن). (۶) موثر شما (کهنه شدن). (۷) آنها چرا (آب بازی کردن). (۸) ما بعد از درس (تفریح کردن). (۹) محصلان با معلم (گپ زدن). (۱۰) من گوشت گوسفند (دوست داشتن). (۱۱) او با ما در فاکولته (آشنا شدن). (۱۲) تو به من چند کتاب (نشان دادن). (۱۳) ما سه ساعت (انتظار کشیدن). (۱۴) من به پروین (سلام دادن)، اما او (جواب دادن). (۱۵) درس زبان دری (شروع شدن).

4-mashq. Qo'shma fe'llardan foydalanib, dariy tiliga tarjima qiling:

1) Kecha biz laboratoriya da ishlamadik. 2) Sen bizga ovqat tayyorladingmi? 3) Ular kinoteatrga kirishdi va film boshlandi. 4) Ali menga telefon qildi va biz o'n daqiqa gaplashdik. 5) Bolalar o'rmonda aylanishdi va daryoda cho'milishdi. 6) Eshik ochildi va xonaga akam kirdi. 7) Biz bir necha daqiqa kutdik va keyin uyga ketdik. 8) Siz Layloga nima sovg'a qildingiz? 9) Men olxo'ni yoqtirmayman. 10) Biz besh daqiqa dam oldik, keyin esa dariy tilidan bir nechta gaplarni tarjima qildik. 11) Sen xolavachcham bilan tanishdingmi? 12) Siz adashmadingiz. 13) Nega televizor buzildi? 14) Qodir menga xat yubormadi. 15) Kecha Sulaymon kasal bo'lib qoldi. 16) Ular sizga javob berishmadimi? – Nega? Ular bizga javob berishdi. 17) Film tugadimi? – Ha, u o'n daqiqa oldin tugadi.

O'Ichov so'zлari

Sanoq sonlar (dona sonlar) ba'zi vaqtida predmetlarning miqdoriy o'Ichovini muayyanlashtiradigan so'zлari – o'Ichov so'zлari (numerativlar) bilan birga qo'llanadi. Bu so'zлar, asosan, sanalayotgan aniq predmetni ko'rsatmay, o'sha predmetni hisoblashda uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekanligini aniqlash uchun ishlataladi. Dariy tilida o'Ichov so'zлari son va sanaluvchi predmetlar nomini bildirgan so'zлar orasiga qo'yilib, izofa

belgisini qabul qilmaydi. Demak, o‘lchov so‘zlari o‘z leksik ma’nosini qisman yoki batamom yo‘qotgan va sanaluvchi predmet kategoriyasini ko‘rsatishga xizmat qiladigan so‘zlardir. Har bir guruh sanaluvchi so‘zlar uchun muayyan o‘lchov so‘zlari ishlataladi:

1. Uy-ro‘zg‘or va boshqa predmetlar uchun – دانه *dâna* ‘dona’, تا *tâ* (تا *tâ* ‘ta’ affiksiga yaqin vazifani bajaradi):

سە تا مىز *se tâ mêt* ‘uchta stol’,

شش دانه تخم *šaš dâna toxm* ‘olti dona tuxum’,

پنج دانه سىب *panj dâna sêb* ‘besh dona olma’.

2. Insonlar uchun – نفر *nafar*, tan:

چهار نفر محصل *čahâr nafar mohassel* ‘to‘rt nafar student’,

پنج نن دختر *panj tan doxtar* ‘beshta qiz’.

3. Hayvonlar uchun – رأس *ra’s* (bosh):

ھفت رأس گویىند *hafta ra’s gôsfand* ‘yetti bosh qo‘y’.

4. Kitoblar uchun – جلد *jold* va *jeld* (jild):

دو جلد کتاب *do jold ketâb* ‘ikkita kitob’, ‘ikki jild kitob’.

5. Juft predmetlar uchun – جفت *joft* (juft, par):

يک جفت جراب *yak joft jorâb* ‘bir juft paypoq’.

6. Kiyimlar uchun – دست *dast*:

يک دست درىشى *yak dast derêshi* ‘bitta kostyum’,

دو دست پېراهن *du dast pérâhan* ‘ikkita ko‘ylak’.

7. Uy va imoratlar uchun – باب *bâb* hamda *darband*:

يک باب حويلى *yak bâb hawili* ‘bitta hovli’,

ھشت باب خاتе *hašt bâb xâna* ‘sakkizta uy’,

يک درىند باغ *yak darband bâğ* ‘bitta bog’.

8. Gilam, adyol, teri hamda qog‘oz, karta, chizmalar uchun – تخته *taxta*:

دە تخته نەد *dah taxta namad* ‘o‘nta namat’.

9. Mashina, arava uchun – عراده *arâda* (g‘ildirak):

پنج عراده موئر *panj arâda mötar* ‘beshta avtomashina’.

10. Qilich, xanjar kabisov uchun – قبضه *qabza*:

دە قبضه شەملىرى *dah qabza şamşer* ‘o‘n dona qilich’.

11. Tegirmon uchun – حجر *hajar* (tosh):

يک حجر آسىب *yak hajar âsyâb* ‘bitta tegirmon’.

12. Samolyot va kemalar uchun – فرونڈ *farwand*:

سە فرونڈ طپاره *se farwand tayâra* ‘uchta samolyot’.

5-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling va o‘qing:

A. 1) Bizning bu haftada uch kun dam olish kuminiz bor. 2) Akbar uch kunga ta’til oldi. 3) Men ikki stakan choy ichdim. 4) U choy uchun ikkita stakan olib keldi. 5) Bu yerda bitta sigaret qutisi bor. 6) Sen bir quti sigaret sotib oldingmi? 7) Siz necha kosa sho’rva (شور바) ichdingiz? 8) Stolda nechta sho’rva kosasi bor? 9) Bu sut butilkasidir. 10) U bir butilka sut olib keldi.

B. 1) Mening uyimdan institutgacha yigirma daqiqalik yo’ldir. 2) Biz bir kilogramm uzum sotib oldik. 3) Talabalarning yozda ikki oy ta’tili bor. 4) Baryolay menga bir quti gugurt berdi. 5) Sening portfelingda sakizta daftar bor. 6) Farida o’n dona (tovuq) tuxum sotib oldi. 7) Bu sinfdagi qirq nafar talaba bor. 8) U chorvadoming o’ttiz besh bosh qo’yi bor. 9) Bir soatdan keyin matni tarjima ishi tugadi. 10) Mening javonimda yuz jilddan ortiq kitob bor. 11) Sizning tashkilotingizda o’n beshta avtomashina bor.

6-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

- (1) ما نيم ساعت تفريح كردیم. (2) نيم نفوس این شهر اطفال هستند.
(3) نيم متن ترجمه شد. (4) من دونيم صفحه خواندم. (5) نيم موترها خراب بود.
(6) شما نيم كيلو گوشت خريبيدي. (7) بعد از نيم ساعت باران شروع شد. (8) تا آن کوه نيم كيلومتر راه است. (9) يكريم ماه پيش رفیقم به ولايت کنر رفت.
(10) نيم متعلمين در صنف يوتدند. (11) ما پنج و نيم ساعت کار كردیم.

Kecha-kunduz bo‘laklarining nomlanishi

روز	<i>rõz</i>	‘kunduz’
صبح	<i>sobh</i>	‘ertalab’
چاشت	<i>čäšt (so ‘zl.)</i>	{ ‘tush’, ‘choshgoh’ }
ظهر	<i>zohr (kitob.)</i>	
پیشین	<i>pešin</i>	‘peshin’ (<i>taxminan soat 3 gacha</i>)
دیگر	<i>digar (so ‘zl.)</i>	{ ‘kechki payt’ (<i>taxminan soat 3 dan</i>
عصر	<i>‘asr (kitob.)</i>	{ ‘quyosh botguncha’)
شب	<i>šab</i>	‘kechqurun’, ‘tun’
شام	<i>šäm</i> ‘oqshom vaqtı’, ‘shom payti’ (<i>quyosh botgandan keyin</i>)	
نصف شب	<i>nesf-e šab</i>	‘yarim tun’

Bular gapda payt holi vazifasida keladi, masalan:

کريم صبح به دفتر رفت و دیگر به خانه آمد

Karim sobh ba daftar raft-o digar ba xâna âmad

‘Karim ertalab ishga ketdi va kechga tomon uyga qaytdi’

Vaqtning soat orqali ifodalanishi

Dariy tilida vaqt ساعت *sâ'at* ‘soat’ so‘zining son bilan birikuvi yordamida ifodalanadi. Bu birikmada soat miqdorini bildiruvchi so‘z oldin, ساعت *sâ'at* so‘zi esa undan keyin keladi va چند ساعت? *čand sâ'at?* ‘necha soat?’ degan savolga javob bo‘ladi. Masalan:

آنها چند ساعت کار گرди؟ *Ânhâ čand sâ'at kâr kardand?*

‘Ular necha soat ishladilar?’

آنها چهار ساعت کار گرди *Ânhâ čahâr sâ'at kâr kardand*
‘Ular to‘rt soat ishladilar’

ساعت *sâ'at* so‘zi gapda ega va miqdorni bildiruvchi so‘z kesim bo‘lib kelganda, miqdorni bildiruvchi so‘z kesimlikni ifodalovchi *ast* bog‘lamasini qabul qilib, egadan so‘ng keladi va ساعت چند است? *Sâ'at čand ast?* ‘Soat necha?’ degan savolga javob bo‘ladi. Masalan:

حالا ساعت چند است؟ *Hâlâ sâ'at čand ast?*

‘Hozir soat necha?’

حالا ساعت هفت است *Hâlâ sâ'at haft ast*

‘Hozir soat yetti’

ساعت *sâ'at* so‘zi, so‘ng miqdorni bildiruvchi so‘z kelib, bir-birlari bilan izofa orqali birikadilar va چند ساعت *sâ'at-e čand?* yoki چند بجہ *čand baja?* ‘soat nechada?’ (بجہ *baja* ‘vaqt; soat’), کی *kay?* ‘qachon?’ degan savollarga javob bo‘ladi. Masalan:

درس ساعت چند شروع شد؟ *Dars sâ'at-e čand šorô 'šod?*

‘Dars soat nechada boshlandi?’

درس ما ساعت هشت و نیم شروع شد

Dars-e mâ sâ'at-e hašt-o nim šorô 'šod

‘Darsimiz soat sakkiz yarimda boshlandi’

Soat nechada? Qachon? savollariga javob bo‘lib kelgan bu birikma o‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigining belgisi -da qo‘srimchasi orqali ifoda etilsa, dariy tilida izofa orqali beriladi, masalan:

ساعت شش *sâ'at-e šaš*

‘soat oltida’

ساعت پنج *sâ'at-e panj*

‘soat beshda’

ساعت دوازده *sâ'at-e dawâzdah* ‘soat o‘n ikkida’

So‘zlashuv tilida پنج بجہ *panj baja* ‘soat beshda’ shaklida ishlatalishi mumkin.

Dariy tilida kunning ikkinchi yarmini soatda ifodalash uchun 13 dan 24 gacha bo‘lgan sondan, odatda, foydalanilmaydi. Vaqtning ma’lum paytini aniq ko‘rsatish uchun kecha-kunduz bo‘laklarining nomlari ishlataladi, masalan: **بعد از ظهر صبح sobh** (ertalab), **بعد از ظهر عصر asr** (kech) kabi. Qiyoslang:

ساعت شش صبح *sâ’at-e šaš-e sobh* ‘ertalabki soat oltida’

ساعت شش عصر *sâ’at-e šaš-e asr* ‘kechki soat oltida’

ساعت يك پишин *sâ’at-e yak-e pêşin* ‘peshin soat birda’

ساعت يك شب *sâ’at-e yak-e šâb* ‘tungi soat birda’

ساعت дўйи بعد از ظهر *sâ’at-e du-ye ba’d az zohr* ‘tushdan so‘ng soat ikkida’

ساعت يازده قبل از ظهر *sâ’at-e yâzdah-e qabl az zohr* ‘tushdan oldin soat o’n birda’

Vaqtning soat va daqiqa orqali ifodalanishi

Vaqtning soat va daqiqani ifodalash uchun avval soat, so‘ng daqiqa miqdori keladi. Bu birikmada soat miqdori va daqiqa miqdori *و -o bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi.*

Agar daqiqa miqdori 30 dan kam bo‘lsa, soat miqdoridan so‘ng shu soatdan o‘tgan daqiqa miqdori keladi. Masalan:

ساعت هفت و بیست دقіقه است *Sâ’at haft-o bist daqiqa ast*

‘Soat yettidan yigirma daqiqa o‘tdi’

ساعت هشت و سیزده دقіقه است *Sâ’at hašt-o sezdah daqiqa ast*

‘Soat sakkizdan o’n uch daqiqa o‘tdi’

Agar daqiqa miqdori 15 bo‘lsa, 15 daqiqa o‘rniga **ربع rob** ‘(chorak) so‘zi ishlatilishi mumkin. Masalan:

ساعت يازده و ربع است *Sâ’at yâzdah-o rob ‘ast*

‘Soat o’n birdan chorak (15 daqiqa) o‘tdi’

ساعت هفت و ربع است *Sâ’at haft-o rob ‘ast*

‘Soat yettidan chorak (15 daqiqa) o‘tdi’

Agar daqiqa miqdori 30 bo‘lsa, 30 daqiqa o‘rnida **نیم nim** (yarim) so‘zi ishlatilishi mumkin. Masalan:

ساعت هفت و نیم است *Sâ’at haft-o nim ast*

‘Soat yetti yarim’

ساعت يك و نیم است *Sâ’at yak-o nim ast*

‘Soat bir yarim’

Agar daqiqa miqdori 30 dan oshiq bo'lsa, soat miqdoridan so'ng shu soatga yetishmagan daqiqa miqdori va birikma oxiriga км kam (kam) so'zi qo'yiladi. Masalan:

ساعت پنج و بیست دقیقه کم است

Sâ 'at panj-o bist daqiga kam ast

'Soad yigirma daqiqa kam besh'

ساعت ده و ربع کم است Sâ 'at dah-o rob ' kam ast

'Soad chorak kam o'n'

So'zlashuv tilida, o'zbek tilidagi kabi, daqiqa miqdori soatdan oldin keladi, masalan:

(پنج دقیقه کم سه (بجہ) panj daqiga kám | sé (baja)

'besh daqiqa kam uch'

7-mashq. Savollarga javob bering:

- 1) امروز شما ساعت چند از خواب برخاستید؟ 2) امروز شما ساعت چند از خانه برآمدید؟ 3) امروز شما چند دقیقه در راه بودید؟ 4) امروز شما ساعت چند به عمارت پوھنتون درآمدید؟ 5) شما دیروز چند درس داشتید؟ 6) هر درس شما چند دقیقه بود؟ 7) شما دیروز ساعت چند از فاکولته برآمدید؟ 8) شما دیروز ساعت چند به خانه برگشتید؟ 9) شما دیروز ساعت چند به خواب رفتید؟ 10) حالا ساعت چند است؟

8-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- A. 1) Biz soat uchda Dovudnikida edik. 2) Biz uch soat Dovudnikida bo'ldik. 3) Talabalar olti soat institutda bo'ldilar. 4) Talabalar soat oltida institutda edilar. 5) Siz uch soat-u o'n daqiqa yo'lida bo'ldingiz. 6) Siz soat uchdan o'n daqiqa o'tganda yo'lida edingiz. 7) Sen soat bir yarimda qayerda eding? – Men soat bir yarimda kinoda edim. 8) Sen bir yarim soat qayerda bo'lding? – Men bir yarim soat kinoda bo'ldim.

- B. 1) Bugun Rahim ertalab soat oltida uyg'ondi. 2) Ular tungi soat ikkida uyg'a qaytishdi. 3) Biz kechki soat beshda Alinikiga keldik. 4) Bizning darsimiz soat to'qqiz yarimda boshlandi va besh daqiqa kam o'n birda tugadi. 5) Men ikkidan o'n besh daqiqa o'tganda Faridaga qo'ng'iroq qildim. 6) Biz ikki yarim soat sport bilan shug'ullandik. 7) Akbar ertalab soat sakkizdan yigirma besh daqiqa o'tganda institutga ketdi. 8) Soat necha? – Yigirma daqiqa kam yetti. 9) Biz sakkiz soat ishladik. 10) Nimaga kunduz soat ikkida sen institutda yo'q eding? 11) Sakkizdan besh daqiqa o'tganda ular aylanishga ketishdi. 12) Sening soating necha bo'ldi? – Mening soatim uchdan o'n besh daqiqa o'tdi.

9-mashq. Quyidagi o‘timli fe’llarni va ular ishlataligan gaplarni yod oling:

من آب خورдим	<i>Man ab xôrdam</i>	‘Men suv ichdim’
او زیان دری خواند	<i>Ô zabân-e darri xând</i>	
‘U dariy tili o‘qidi (o‘rgandi)’		
شما چه خورید؟	<i>Šomâ či xôrdêd?</i>	‘Siz nima yedingiz?’
من گرم پوشیدم	<i>Man garm pôšidam</i>	‘Men issiq (qalin) kiyindim’
غذا خوردن	<i>ğezâ xôrdan (ad.)</i>	{ ‘ovqatlanmoq’
نان خوردن	<i>nân xôrdan (so ‘zl.)</i>	
آواز خواندن	<i>âwâz xândan (ad.)</i>	{ ‘kuylamoq’,
بيت خواندن	<i>bayt xândan (so ‘zl.)</i>	{ ‘qo’shiq aytmoq’
کالا شستن	<i>kâlâ šostan</i>	‘kir yuvmoq’
سگرت کشیدن	<i>segret kašidan</i>	‘sigaret chekmoq’
مطالعه کردن	<i>motâle ‘a kardan</i>	‘mutolaa qilmoq’
تو چه کردی؟ – من نان خوردم	<i>Tu či kardi? – Man nân xôrdam</i>	
‘Sen nima qilding? – Men ovqatlandim’		
کالا شستی؟ – شستم	<i>Kâlâ šosti? – Šostam</i>	
درس خواندن	<i>dars xândan</i>	‘Kir yuvdingmi? – Yuvdim’
روی شستن	<i>rôy šostan</i>	‘dars tayyorlamoq’,
دست و روی شستن	<i>dast-o rôy šostan</i>	‘shug‘ullanmoq’
لباس پوشیدن	<i>lebâs pôšidan (ad.)</i>	‘yuvinmoq’ (aynan
کالا پوشیدن	<i>kâlâ pôšidan (so ‘zl.)</i>	‘yuz-qo‘lini yuvmoq’)
لباس کشیدن	<i>lebâs kašidan (ad.)</i>	{ ‘yechinmoq’
کالا کشیدن	<i>kâlâ kašidan (so ‘zl.)</i>	
من از خواب ير خاستم و لباس پوشیدم		
‘Men uyqudan turdim va kiyindim (kiyimlarimni kiydim)’	<i>Man az xâb barxâstam wa lebâs pôšidam</i>	
من بالاپوش پوشیدم و از خانه ير آمدم		
‘Men bâlâpôš pôšidam wa az xâna barâmadam		
‘Men kiyindim (ustki kiyim) va uydan chiqdim’		

10-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Biz yuvindik va ovqatlandik. 2) Men kiyindim va hayvonot bog'iga ketdim. 3) Talabalar kutubxonada shug'ullanishdi. 4) Nega sen issiq kiyinding? 5) Farid kresloga o'tirdi va mutolaa qildi. 6) U uyqudan turdi va kiyindi. 7) Ular kiyimlarini yechdilar va xonaga kirdilar. 8) Biz dahlizga chiqdik va sigaret chekdik. 9) Sen nima qilding? – Men kir yuvdim. 10) Sizlar qayerda ovqatlandingiz? – Biz uuda ovqatlandik. 11) Ular zal o'rtafiga chiqishdi va kuylashdi. 12) Karima idishlarni yuvdi va ovqat tayyorladi.

Matn

صبح

امروز من ساعت هفت صبح از خواب برخاستم، دست و روی شستم و لباس پوشیدم. مادرم برای من چای صبح تیار کرد. من ناشتا کردم، بالاپوش پوشیدم، از خانه برا آمد و به فاکولته روان شدم. فاکولته از خانه ما دور است. من به ایستگاه موتور رقمت و چند دقیقه انتظار کشیدم. بعد از چند دقیقه موتور سرویس رسید و دروازه آن باز شد. من بالا شدم، تکت گرفتم و به چوکی خالی نشستم. بعد از نیم ساعت راه من از موتور پایین شدم و ساعت نه و پانزده دقیقه به فاکولته رسیدم. من بالاپوش کشیدم و به صنف، داخل شدم. همیستگی هایم هم به صنف درآمدند، از بکس قلم و کتابچه کشیدند، پشت میز نشستند و ما راجع به کارهای خانه گی گپ زدیم. ساعت نه و نیم دروازه اتاق باز شد و معلم به صنف درآمد. ما از چوکی ها برخاستم و معلم به ما سلام داد. درس ما شروع شد.

11-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Rauf mashinaga o'tirdi va Mikrorayonga ketdi. 2) Avtobusda yo'lovchilar kam edi va men bo'sh o'rindiqqa o'tirdim. 3) Biz boshqa bekatda avtobusdan tushdik. 4) Soat nechada siz shifoxonaga yetib boardingiz? 5) To'rt soatlik yo'lidan so'ng samolyot Toshkentga yetib keldi va barcha yo'lovchilar samolyotdan tushdilar. 6) Ular avtobusga o'tirishdi va Chorikorga jo'nab ketishdi. 7) Men bugun soat yetti yarimda nonushta qildim.

12-mashq. صبح matniga savollar tuzing (2-shaxs birlikda) va ularga javob bering.

13-mashq. Nuqtalar o'rniga aniq o'tgan zamон shaklidagi fe'llarni qo'llab, gaplarni to'ldiring:

(۱) سرویس به ایستگاه ... و ما از آن ۲) من از خواب ... و لباس
 (۳) احمد ساعت هشت از خانه ... و به پوهنتون ۴) آنها به ایستگاه
 موتر ... و چند دقیقه ۵) ما به موتر ... و تکت ۶) محصلین پشت
 میز ... و از بکس قلم ۷) معلم به صنف ... و درس زبان دری ۸) ما
 به خانه ... و بالاپوش ۹) درسهای ما ساعت بیوی پیشین ۱۰) اسحق
 با ما به زبان دری در باره شهر کابل ۱۱) من از آنکه ... و سگرت
 ۱۲) آنها دست و روی ... و نان

14-mashq. Dariy tilida hikoya tuzing:

- A. Uyingizdan institutgacha bo'lgan yo'l haqida (masalan: "Bugun men uydan chiqdim...").
- B. Kun tartibingiz haqida (masalan: "Kecha men uyg'ondim...").

15-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A. Bugun sen ertalab soat olti yarimda turding, kiyinding va yuvinding. Shundan so'ng stolga o'tirding va bir piyola qahva ichding. Keyin sen palto kiyding, uydan chiqding va avtobus bekatiga ketding. Avtobusga chiqding, bilet olding, bo'sh joyga o'tirding va universitetga qarab ketding. Yigirma daqiqadan so'ng sen universitetga yetib kelding va avtobusdan tushding. Universitetga kirding, paltoyingni yechding va sinfga qarab yurding. Keyin sinfga boshqa talabalar ham kelishdi va hamma stolga o'tirdi. Talabalar uy vazifasi haqida gaplashishdi. Bir necha daqiqadan so'ng eshik ochildi va dariy tili o'qituvchisi kirib keldi. U talabalar bilan salomlashdi va dars boshlandi.

B. Abdulg'afur عبد الغفور (*Abd-ol-Gafur*) bir kompaniyaning direktoridir. U Kobul shahrining yangi tumanida yashaydi. Bugun u ertalab soat sakkizda uyg'ondi, yuvindi va stolga o'tirdi. Uning xotini unga nonushta tayyorladi. Abdulg'afur stoldan turdi, paltosini kiydi, sumkasini oldi va uydan chiqdi. Uyining oldida uni avtomobil kutardi انتظار داشتن (entezâr dâstan). U avtomobilga o'tirdi va idoraga ketdi. Soat to'qqizda xonaga kirdi va uning ishi boshlandi. U tushgacha ishladi va uyga tushlik qilishga ketdi va tushlik ham qildi نان چاشت خوردن (nân-e čâst xordan). Bir soatdan so'ng u yana idoraga keldi va soat to'rtgacha ishladi. Soat to'rt yarimda u uyiga qaytib keldi. Uning oila a'zolarining barchasi mehmonxonada edilar. Keyin unikiga mehmon keldi. Ular yarim soat o'tirishdi va choy ichishdi. Uning bolalari boshqa xonada dars qilishardi. Ayoli kechki ovqat tayyorladi نان شام (nân-e šâm). Soat yetti yarimda ular

ovqatlanishdi. Keyin Abdulg'afur radio tingladi, kitob o'qidi va soat to'qqizda uxlashga yotdi (به خواب رفتن) *ba xâb raftan*)

Lug'at

انتظار <i>entezâr</i>	kutish	راجع به <i>râje' ba</i>	haqida
أواز <i>âwâz</i>	musiqa; ovoz	رسیدن <i>rasidan</i>	yetib
ایستگاه <i>istgâh</i>	bekat	روان <i>rawân</i>	kelmoq ketuvchi, boruvchi
باز <i>bâz</i>	ochiq	سرویس <i>sarwis</i>	avtobus
بالا شدن <i>bâlâ šodan</i>	ko'tarilmoq; chiqmoq (<i>transportga</i>)	شدن <i>šodan</i>	bo'lmoq, aylanmoq
بجه <i>baja</i>	soat	شرکت <i>şerkat</i>	kompaniya (<i>muassasa</i>)
بوتل <i>bôtal</i>	butilka	شستن <i>şostan</i>	yuvmoq
بیت <i>bayt</i>	bayt; qo'shiq	شوربا <i>şôrbâ</i>	sho'rva
(ابیات) <i>(abyât)</i>	(so'zl.)		
پایین شدن <i>pâyin</i>	tushmoq	کالا <i>kâlâ</i>	kiyim
	šodan (<i>transportdan</i>)		
تلفون <i>têlefun</i>	telefon	کردن <i>kardan</i>	qilmoq
جلد <i>jold, jel'd</i>	jild, tom	کیلو <i>kîlo</i>	kilogramm
جواب <i>jawâb</i>	javob	مسافر(ان، پن) <i>mosâfer</i>	yo'lovchi
خالی <i>xâli</i>	bo'sh	ناشتا <i>nâştâ</i>	nonushta
داخل <i>dâxel</i>	kiruvchi	نشان <i>neşân</i>	belgi; orden; gerb
در باره <i>dar bâra-ye</i>	haqida	نصف <i>nesf</i>	yarim
نیم <i>nim</i>	yarim	پاد <i>yâd</i>	xotira
نیمه <i>nima</i>	yarim		

O'N OLTINCHI DARS

درس شانزدهم

-râ ort ko'makchisi

-râ ko'makchisi, asosan, vositasiz to'ldiruvchining ko'rsatkichidir. Mazkur ko'makchi bilan ishlatalig'an to'ldiruvchi aniq, ya'ni gapi rayotgan va uning suhabatdoshiga ma'lum bo'lgan predmet ma'nosini kasb etadi, masalan:

آب را بیلور (بیار) *Âb-râ byâwar (byâr)*

'Suvni olib kel (yoki keltir)' (*ilgaridan ma'lum bo'lgan aniq suvni*) –

آب بیلور (بیار) *Âb byâwar (byâr)*

'Suv olib kel' (*umuman suv*)

من کتاب را خواندم *Man ketâb-râ xândam*

'Men kitobni o'qidim' (aniq kitob) –

من کتاب خواندم *Man ketâb xândam* 'Men kitob o'qidim'
(*umuman kitob, ya'ni ro'znama yoki boshqa narsa emas*)

Ko'plik sondagi so'zlarda -râ ko'makchisi ko'plik affiksidan so'ng qo'yiladi: من این کتابهارا اوردم *Man in ketâbhâ-râ âwardam* 'Men bu kitoblarni keltirdim'.

Izofali birikmada -râ ko'makchisi birikma oxiriga qo'yiladi:

من پدر دوستم را دیدم *Man padar-e dôstam-râ didam*

'Men do'stinning otasini ko'rdim'

Demak, -râ ko'makchisining asosiy vazifasi aniq, avvaldan ma'lum bo'lgan predmet va hodisalarni ifodalovchi vositasiz to'ldiruvchini yasashdir.

-râ ko'makchisi o'zbek tilida tushum kelishigiga to'g'ri keladi. Avvalo, bular bilan ifodalangan ot o'timli fe'l bilan birikadi, masalan:

کتاب را اوردي؟ *Ketâb-râ awardi?* 'Kitobni keltirdingmi?'

O'zbek tilida tushum kelishigi ma'no va shakl jihatidan belgili va belgisiz bo'ladi (tushum kelishigining belgili-belgisiz ishlatalishi, asosan, ot turkumiga xos xususiyat; boshqa turkum so'zları tushum kelishigida kelsa, odatda, belgili bo'ladi).

Bulgili tushum kelishigidagi ot va olmoshlar har vaqt -ni affaksi bilan ishlataladi – so'zlovchi va tinglovchi uchun avvaldan ma'lum bo'lgan predmet yoki harakatni ifodalashi bilan uni boshqalaridan ayirib ko'rsatadi: *kitobni oldim* (*ilgaridan ma'lum bo'lgan kitobni*).

-râ ko'makchisi va bulgili tushum kelishigining qo'llanish xususiyatlari bir xil. Masalan, o'zbek tilida tushum kelishigidagi so'z atoqli ot (yoki kishini anglatuvchi turdosh ot), olmosh, payt bildiruvchi

so'z, otlashgan so'zlar bilan ifodalansa, shuningdek, qaralmish pozitsiyasida yoki ko'rsatish olmoshlari, o'rinn, payt bildiradigan aniqlovchi bilan kelsa, belgili tushum kelishigi shaklida qo'llanadi. Dariy tilida esa bu o'rinda, albatta, -râ ko'makchisi ishlatiladi, masalan:

Ahmad-râ sadâ kard 'Ahmadni chaqirdi'
Bahâr-râ dôst dâram 'Bahorni sevaman'

این مقاله را خواندی؟

In maqâla-râ xândi? 'Bu maqolani o'qidingmi?'

پارکهای تاشканд را تماشا کردیم

Pârkhâ-ye Tâskand-râ tamâshâ kardêm
'Toshkentning parklarini tamosha qildik'

O'zbek tilida tushum kelishigidagi so'z bilan fe'l orasida so'z yoki so'zlar bo'lsa ham, har doim belgili tushum kelishigi shaklida qo'llanadi. Dariy tilida esa bu holatda -râ ko'makchisi ishlatiladi, masalan: Pomba-râ dar mäşin ćidand 'Paxtani mashinada terdilar'.

O'zbek tilida belgisiz tushum kelishigi ham mavjud. Belgisiz tushum kelishigidagi so'z affiksiz qo'llanadi. Bunda gap ma'lum bir turdag'i predmet ustida boradi: *Kampir non ushatib, choy quymoqchi bo'lgan edi... ; Kitob oldim.* Bu misollarda tushum kelishigida kelgan *non, choy, kitob* so'zları ma'lum, aniq, konkret *non, choy, kitob* bo'lmay, umuman *non, choy, kitob* ekanligi ifodalangan.

Bulgisiz tushum kelishigidagi so'z fe'l-kesim bilan shunday zinch bog'langan bo'ladiki, ular orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi: *paxta terdi, bosh qotirdi* kabi. Tushum kelishigi doim belgisiz ishlatiladigan tarkiblar turg'un birikmalarga, frazeologik birliklarga to'g'ri keladi: *ma'no kasb etmoq, muhokama yurgizmoq, qulog solmoq, yo'l bermoq* kabi. Mustaqil so'z bilan *qil-* fe'lidan tuzilgan tarkiblar esa yaxlitlanib qo'shma so'zga aylangan; shu sababli ularning birinchi tarkibiy qismini -ni bilan ishlatib bo'lmaydi: *harakat qilmoq, muomala qilmoq, rahbarlik qilmoq, g'alaba qilmoq* kabi.

O'zbek tilida tushum kelishigining belgili-belgisiz qo'llanish doirasini bilish dariy tilida -râ ko'makchisining vazifasini tushunishga imkon beradi.

1-mashq. O'qing va tarjima qiling:

- ۱) من کتابها را روی میز گذاشتم. ۲) آیا این جمله را فهمیدی؟ ۳) ما داستانش را نخواندیم. ۴) من تمام کتابچه های ترا آوردم. ۵) شما آن جبرهای رادیو را شنیدید؟ ۶) او پنسل مرا به زلمی داد. ۷) من آن خط را

پیش محمود برم. ۸) ابراهیم برادر مرا در فاکولته دید. ۹) ما آن متن را ترجمه نکردیم. ۱۰) آیا شما آن قلم را ندیدید. ۱۱) دوستانم کارشان را تمام کردند. ۱۲) من این آواز را دوست ندارم. ۱۳) چرا شما درس امروز را یاد نگرفتید؟ ۱۴) من خواهرم را به خانه پرورین روان کردم. ۱۵) آنها به ما عکس های کابل را نشان دادند.

2-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Biz u baland uyni ko'rdik. 2) Sen nega menin daftarimni olib kelmading? 3) Ular hamma olma va mandarinni yeb qo'yishdi. 4) Kecha men seni institutda ko'rmadim. 5) Biz bu qiziqarli hikoyani o'qib chiqdik. 6) Ular bizning kitoblarimizni kutubxonaga olib borib berishdi. 7) Akbar meni va do'stimni auditoriyaga olib keldi. 8) Men butun xonani yig'ishtirdim (tozaladim). 9) Sen stolning ustidan u lug'atni olding (ko'tarding). 10) Biz bu xatni Kobulga jo'natdik. 11) Nabi u qizni sevadi. 12) Men eshikni ochmadim. 13) Laylo bu shirin taomni tayyorladi. 14) U sening do'stingni ko'rmadi. 15) Siz menin xatimni o'qidingizmi? 16) Bu lug'atni qayerdan sotib olding? 17) U hamma gaplarni rus tiliga tarjima qildi. 18) Ular bu xabarni eshitmadilar. 19) Men palto va qalpog'imni kiyib oldim. 20) U sening itingni qayerga olib ketdi? 21) Karim u tayoqni suvgaga tashladi.

3-mashq. Ma'nodagi farqlarni tushuntiring:

۱) من دیروز روزنامه نخواندم. – من دیروز روزنامه را نخواندم.
 ۲) احمد از بازار گوشت گوسفند خرید. – احمد گوشت گوسفند را از بازار خرید. ۳) شما چرا بالاپوش نپوشیدید؟ – شما چرا بالاپوش را نپوشیدید؟
 ۴) ما تکت سینما گرفتیم. – ما تکت سینما را گرفتیم. ۵) من به موسی ساعت تحفه دادم. – من به موسی ساعت را تحفه دادم. ۶) رحیم قلم پیدا کرد.
 رحیم قلم را پیدا کرد.

4-mashq. Qavs ichida berilgan vositasiz to'ldiruvchini gapdag'i kerakli joyga qo'ying:

۱) من ... برای تو ... خریدم (تحفه). ۲) محمود ... از پیش ما ... گرفت (قاموس دری را). ۳) شما ... از کتابخانه ... آوردید (کتابهای نو). ۴) ما ... در کوچه ... دیدیم (برادرتر). ۵) تو ... از بکس ... کشیدی (قلم). ۶) مادرم ... از بازار ... اورد (گوشت). ۷) من ... در جلسه ... ندیدم (دوست شما را). ۸) ما ... به کابل ... روان کردیم (خط). ۹) زلمنی ... از زمین ... برداشت (پول). ۱۰) ما ... در حوالی ... دردادیم (کاغذهای کهنه را). ۱۱) اکبر ... به ما ... نشان داد (عکسهای افغانستان را).

5-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Men ukamga etik sotib oldim. U etikni kiyib ko‘chaga (tashqariga) chiqdi. 2) Biz ovqatlandik va ovqatning pulini to‘ladik. 3) Rauf menga kitoblarni olib keldi va men kitoblarni stol ustiga qo‘ydim. 4) Rahima bolakayga olma berdi. Bolakay olmani oldi va uni yedi. 5) Ular unga chiroyli ko‘ylak sovg‘a qildilar. 6) Men Anvarga xat jo‘natdim. U xatni oldi va menga javob yozdi. 7) Bolalar qo‘llarini yuvishdi va mevalarni yeyishdi. 8) Men senga yangi portfel sotib oldim. 9) Matn qiyin edi, lekin Ali matnni tarjima qildi.

خود xod o‘zlik olmoshi

Dariy tilida خود xod ‘o‘z’ o‘zlik olmoshi gapda mustaqil holda yoki biror otga izofa orqali birikib keladi.

خود xod o‘zlik olmoshi mustaqil holda ko‘pincha birikuvchi olmoshlari bilan birga keladi, masalan:

مفرد

خود xodam	‘o‘zim’	خویمن xodemân	‘o‘zimiz’
خوت xodat	‘o‘zing’	خویتلان xodetân	‘o‘zingiz’
خوش xodaš	‘o‘zi’	خویشان xodešân	‘o‘zları’

جمع

من خود	man xodam	‘men/ing/ o‘zim’
تو خوت	tu xodat	‘sen/ing/ o‘zing’ va sh.k.

O‘zlik olmoshi kishilik olmoshi hamda otlarni qat’iy ayirib va ta‘kidlab ko‘rsatib, uning izohlovchisi bo‘lib keladi. Bu holda dariy tilida خود xod olmoshi izofa ko‘rsatkichini qabul qilib, otdan oldin kelishi yoxud otga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishi va shu bilan birga, enklitik olmoshlarni qabul qilishi mumkin. O‘zbek tilida esa o‘z olmoshi qaratqich kelishigi shaklidagi kishilik olmoshi yoki otdan keyin keladi, masalan:

خود مادر	xod-e mâdar	}	‘onaning o‘zi’
مادر خود	mâdar xod		
مادر خوش	mâdar xodaš		
خود ما	xod-e mâ		‘bizning o‘zimiz’

Misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida bunday hollarda dariy tilidan farq qilib, o‘zlik olmoshi egalik affikslarini qabul qilishi shart.

O‘zlik olmoshi qarashlilik ma‘nosini ifodalaganda, dariy tilida izofa zanjirida otdan so‘ng, o‘zbek tilida ot oldida keladi, ya‘ni:

كتاب خود	ketâb-e xod	‘o‘z kitobi’, ‘o‘zining kitobi’
----------	-------------	---------------------------------

رفقای خود rofaqâ-ye xod ‘o‘z o‘rtoqlari’ ‘o‘zining o‘rtoqlari’
 شلگردان خود šägerdân-e xod ‘o‘z o‘quvchiları’
 من از شاگردان خود خوشحال هستم
Man az šägerdân-e xod xôshâl hastam
 ‘Men o‘z shogirdlarimdan xursandman’
 ما وطن خود را دوست داریم *Mâ watan-e xod râ dôst dârêm*
 ‘Biz o‘z Vatanimizni sevamiz’

Bu o‘rinda ham o‘zbek tilida o‘zlik olmoshlaridan keyin kelgan ot egalik affikslarini qabul qiladi.

O‘zlik olmoshi gapda hamma gap bo‘lagi vazifasida kela oladi. Dariy tilida خود *xod* olmoshi old va ort ko‘makchilar bilan ishlataladi, masalan:

بآ خود گفتم <i>bâ xod goftam</i>	‘o‘zimga dedim’
خودها را در آینه بینند <i>Xodhâ râ dar âyina didand</i>	
‘O‘zlarini oynada ko‘rdilar’	

این کار را خودم انجام دام *In kâr râ xodam anjâm dâdam*
 ‘Bu ishni o‘zim bajardim’

O‘zlik olmoshi aniqlovchi vazifasida kelganda, mos shaxs-sondagı birikuvchi olmoshga almashtirilishi mumkin, masalan:

تو در خانه برادر خود بودی *Tu dar xâna-ye berâdar-e xod budi*
 تو در خانه برادرت بودی *Tu dar xâna-ye berâdarat budi*
 ‘Sen akangning uyida eding’

6-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

(1) ما پهلوی بخارى نشستيم و خود را گرم كردیم. (2) حسن برای خود نان تیار کرد. (3) برادر فاروق محصل صنف چهارم و خود فاروق محصل صنف اول است. (4) خودتان کیستید؟ – خود ما دهقان هستیم. (5) زن نبی در خانه و خود او در دفتر است. (6) این اپارتمان از برادرت است یا از خودت؟ – این اپارتمان از خودم است. (7) کریم با بچه خود به سینما رفت. (8) ما کار خود را تمام کردیم. (9) شما به رفیق خود تیلفون نکردید؟ (10) من از کاکای خود خط گرفتم. (11) آنها به آشتیابان خود سلام دادند.

7-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Mening do‘stim – ishchi, o‘zim esa talabaman. 2) Zafar o‘ziga (o‘zi uchun) nonushta tayyorladi. 3) Ali o‘z ukasi bilan qishloqqa jo‘nab ketdi. 4) Kecha men opamning uylarida edim. 5) O‘zingga daftar sotib oldingmi? 6) Kobulning atrofida baland tog‘lar, shaharning o‘zida ham bir nechta qir-adirlar mavjud. 7) Siz ustozingiz bilan salomlashdingizmi? 8) Laylo (o‘z) uyidan chiqdi va o‘z instituti tomon yo‘l oldi. 9) Biz o‘zimiz bilan bir

nechta lug‘at olib keldik. 10) Zalmayning rafiqasi Kobuldandir, o‘zi esa Paktiyadandir. 11) Universitet talabalar turar joyi shahar chekkasida joylashgan, universitetning o‘zi esa – uning markazida. 12) Bu kimning guldoni? – Bu – mening o‘zimning guldonim.

8-mashq. O‘zlik olmoshini birikuvchi olmoshga almashtiring:

(1) Брияли ба ғампил ҳуд бирон шер рфт. (2) Мен ба رفیق ҳуд سیب دام. (3) Шما در اتاق ҳуд بودید. (4) تو برادر ҳуд را به مکتب آوردی. (5) محصلین از اتاق درسی ҳуд برآمدند. (6) ما به دوست ҳуд تیلفون کردیم. (7) امروز من به فاکولته ҳуд نرقم. (8) علی در کوچه شهر با برادر ҳуд برخورد.

9-mashq. Vositasiz to‘ldiruvchining ishlatalishini tushuntiring:

(1) ما آوازهای پرنده گان را شنیدیم. (2) آنها ملالی را نشنذختند. (3) فرید یونهایش را کشید. (4) من تمام جملات را فهمیدم. (5) آیا روزنامه دیروز را برایم آوردی؟ (6) شما چرا آن کتاب را نخریدید؟ (7) تو دختر کی را بیدی؟ (8) ما دوست شمارا بسیار خوب شناختیم. (9) آنها همه اتاق ها را پاک کردند. (10) چرا آن متن آسان را ترجمه نکردید؟ (11) من بچه ҳуд را به ده روان کردم. (12) ما کتابش را خواندیم. (13) او این غذاها را دوست ندارد.

10-mashq. Hikoyani o‘qing va uni so‘zlab bering; vositasiz to‘ldiruvchining qo‘llanilishini tushunturing:

خر ملا نصرالدین

Мла نصرالдин يك خر دائىت. يك روز ھمسايە ملا به خانه اش آمد و خرش را براي چند روز خواست. ملا جواب داد: خرم اينجا نيمست. در آن وقت از طويله صدای خر بلند شد. ھمسايە اين صدا را شنيد و گفت: ملا، چرا دروغ گفتی؟ خر تو اينجا، است و من صدایش را شنيدم. ملا تعجب كرد و گفت: چرا گې انسان را باور ندارى و گې حيوان را باور دارى؟

11-mashq. Kerakli o‘rinlarga -ra ko‘makchisini qo‘yib ko‘chiring:

(1) پروین شوهر ... ندارد. (2) ما حسن ... نديديم. (3) شما امروز چای ... خورديد. (4) رشید خواهر ҳуд ... به مکتب آورد. (5) چرا نان ... تيار نکردى؟ (6) من يك جمله اين متن ... ترجمه نکردم. (7) او در سالون چند دختر ... ديد. (8) شما ساعت من ... جور نکرديد. (9) دوستم از کابل خط ... گرفت. (10) او به من قلم ... تحفه داد. (11) محصلین تمام داستان ... خوانندند. (12) من چوبهای بخارى ... دردادم. (13) ما اين کلمه ... نفهميدیم. (14) تو در حوالى کى ... بیدی؟ (15) شما در آن رستوران چه ... خورديد؟

(۱۶) من دریشيم ... پوشیدم. (۱۷) این خط ... شما توشتید؟ (۱۸) ما از بازار ترکاری ... خردیدم. (۱۹) من دختر خاله ... ندارم. (۲۰) آنها برایم چند مجله آوردنند. (۲۱) ما در پیالله شیر ... خوردیم. (۲۲) فاروق سگرت خود ... درداد. (۲۳) من از زمین یک دانه کاغذ ... برداشتم. (۲۴) محصلین آن کار ... شروع کردند. (۲۵) تو دروازه خانه ات ... برای ما باز نکردی. (۲۶) من عکس ثریا ... به او نشان دادم. (۲۷) علی کتابچه های همه محصلان ... پیش معلم برد. (۲۸) شما چرا درس دیروز ... نخواندید؟ (۲۹) آیا پیراهن رحیم ... شستنی؟ (۳۰) ما تمام شهر ... گشتبیم.

12-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Men o'z do'stimga xat jo'natdim.
- 2) Biz o'sha matnning tarjimasini yakunladik.
- 3) Hasan (o'z) xonasining derazasini ochdi.
- 4) Biz mevalarni yeb bo'lqidik.
- 5) Bugun men Zalmayni ko'rmasidim.
- 6) Men u kitobni do'stimga berdim va u uni o'qib chiqdi.
- 7) Siz uning hikoyasini tushundingizmi?
- 8) Kecha biz ularning hammalarini kutubxonada ko'rdik.
- 9) Sen bugungi ro'znomani o'qidingmi?
- 10) Qodir bizni (o'z) uyiga olib keldi.
- 11) Siz Surayyoga nima sovg'a berdingiz?
- 12) U portfelidan daftarni oldi.
- 13) O'qituvchi bu so'zni doskaga yozdi.
- 14) Biz hamma idishlarni yuvib bo'lik.
- 15) Siz uni tanidingizmi?
- 16) Muso o'z ruchkasini stolga qo'ydi.
- 17) Rashidning opa-singillari yo'q, lekin ikkita akasi bor.
- 18) Ular bizga O'zbekiston xaritasini ko'rsatishdi.
- 19) Siz o'z qalpog'ingizni topdingizmi?
- 20) Mahmud o'g'lini bolalar bog'chasiga olib bordi.
- 21) U stolning ustidan bir nechta darslikni oldi.
- 22) O'sha matnni tarjima qildingizmi?
- 23) U hamma she'rlarni o'qidi.
- 24) Sen bog'da kimni ko'rib qolding?
- 25) Men ikki piyola choy ichdim.

Lug'at

انسان	<i>ensân</i>	خوبکار	<i>xodkâr</i>	sharkli ruchka
باور داشتن	<i>bâwar</i>	دروغ	<i>dorôg</i>	yolg'on
بلند شدن	<i>dâštan</i>	دوا (ها)	<i>dawâ</i>	davo,
بلند شدن	<i>boland</i>	(ادويه)	<i>(adweya)</i>	dori-
پنسل	<i>şodan</i>	شناختن	<i>şenâxtan</i>	darmon
پنسل	<i>pensel,</i>	تامیق	<i>tanimoq</i>	
	<i>pansal</i>	صدا	<i>sadâ</i>	tovush, ovoz,
پرنده (گلن)	<i>parenda</i>	شویله	<i>tawila</i>	shovqin
پیدا کردن	<i>paydâ</i>	نقشه	<i>naqša</i>	og'ilxona
	<i>kardan</i>			xarita
خواستن	<i>xâstan</i>			

O'N YETTINCHI DARS

درس هفدهم

Otlarda birlik va noaniqlik

Dariy tilida biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko'rsatish uchun ularga birlik va noaniqlik belgisi ى -yâ artikel qo'shib, urg'usiz ê (unlidan so'ng -yê) tarzida talaffuz qilinadi (urg'u uning oldidagi bo'g'inga tushadi). Bu ى yâ ياي وحدت ياي وحدت ياي نکره yâ-ye wahdat (birlik yo-si) va ياي نکره yâ-ye nakara (noaniqlik yo-si) deb yuritiladi, masalan:

کارگر kârgar	'ishchi'	-	كارگرى kârgár-ê	'(qandaydir)	bir ishchi'
روز rôz	'kun'	-	روزى rôz-ê	'bir kun',	'bir kuni'

ياي وحدت و ياي نکره ning imlosi

1. Undosh bilan tugagan so'zlarda ى yâ harfi bevosita otlarning oxiriga qo'shiladi:

دختри dôxtár-ê	'(qandaydir)	bir qiz'
мизи méz-ê	'(qandaydir)	bir stol'

2. ى a yoki u/o cho'ziq unlilari bilan tugagan so'zlarda ى yâ harfi oldidan bir ى i orttirilib yoziladi:

صدابىي sadâ-yê	'(qandaydir)	bir tovush'
آهوبى ahú-yê	'(qandaydir)	bir ohu'

3. o qisqa unlisi bilan tugagan so'zlarda ى yâ harfi oldidan bir alef yoki ى yâ orttirilib yoziladi:

نويسنده اى nawisendá-yê	'(qandaydir)	bir yozuvchi'
-------------------------	--------------	---------------

4. ى i cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlarda ى yâ harfining o'zi yoki uning oldidan bir alef orttirilib yoziladi; talaffuzda -yê tushib qolishi mumkin:

چوکى اي čawki(-yê)	'(qandaydir)	bir stul'
--------------------	--------------	-----------

Izofiy birikmada ê artikel birikma oxiridagi so'zga qo'shiladi:

كتاب خوبى ketâb-e xub 'yaxshi kitob' - كتاب خوبى ketâb-e xub-ê 'bir yaxshi kitob'

Lekin ba'zan birikmaning birinchi so'ziga - aniqlanmishga qo'shilish hollari uchraydi:

دختر جوان doxtar-e jawān ‘yosh qiz’ – دختری جوان doxtar-ê jawān
(qandaydir) bir yosh qiz’.

پای وحدت و پای نکره *yâ-ye wahdat va yâ-ye nakaraning ishlatalishi*

پای نکره *yâ-ye wahdat* va *yâ-ye nakara* ot turkumiga oid so‘zlarga qo‘silib, o’sha predmet yoki shaxsning bittaligini yoki noma'lumligini ko‘rsatishi mumkin. Biror so‘zga qaysi ى -e qo‘shilganligini faqat gap ichida, gapning umumiy mazmunidan tushunish mumkin. Masalan:

پادشاهی را پسri بود *Pâdshâh-ê râ pesar-ê bud*

‘(Qandaydir) bir podshohning bir o‘g‘li bor edi’

Yuqoridagi jumlada *pesar-ê* so‘zi *yâ-ye wahdat* qabul qilgan bo‘lib, bunda gap aynan bir o‘g‘il haqida borayotganligini ko‘rsatadi. پادشاهی *pâdshâh-ê* so‘zida esa ى پای نکره *yâ-ye nakara* bilan kelgan bo‘lib, shaxsning noaniqligini, noma'lum bir shaxs haqida gap borayotganligini bildiradi.

ى -e artikli birlik sondagi otga qo‘shilgan bo‘lsa, uning o‘miga predmetning noaniqligi va birligini ifodalash uchun يك yak soni ham ishlataladi:

پهلوی دکан مردی ایستадه بود *Pahlu-ye dokân mard-ê istâda bud*
پهلوی دکان يك مرد ایستاده بود *Pahlu-ye dokân yak mard istâda bud*

‘Do‘kon oldida bir kishi turardi’

ى -e artikli ko‘plik sondagi otga qo‘shilgan bo‘lsa, uning o‘miga چند *čand* olmoshi ishlataladi; bu o‘rinda ko‘plik son birlik songa almashadi, masalan:

در بكس کتابهليي بود *Dar baks ketâbhâ-yê bud*

در بكس چند کتاب بود *Dar baks čand ketâb bud*

‘Portfelda kitoblar (qandaydir) bor edi’

ى -e artikli (yoki uning o‘mida kelgan so‘z)ning tushurib qoldirilishi ba‘zan gapning mazmuniga ta’sir qiladi. Masalan, ى -e artikli noaniq shaxsni ifodalagan را -râ ko‘makchisili vositasiz to‘ldiruvchi bilsa, noaniqlikni bildiruvchi yagona vosita sanaladi:

ما محصل را دидيم *Mâ mohassel râ didêm*

‘Biz talabani ko‘rdik’ (aniq)

ما محصلى را ديديم *Mâ mohassel-ê râ didêm*

‘Biz qandaydir bir talabani ko‘rdik’

Bundan tashqari, -*ê* artikli چە چە so'roq olmoshidan keyin kelgan so'zga qo'shilib, biror predmet haqida ma'lumotga ega bo'lish yoki taajjub va hayajonni izhor qilish ma'nolarini bildiradi:

آن چە كتابىي است؟ *An če ketâbêst?*

'U nima (qanaqa) kitob?'

امروز چە روزى است? *Emrôz če rôzest?*

'Bugun qaysi kun?'

چە منظرە زىبلىي است! *Či manzara-ye zêbâ-yê-st!*

'Qanday ajoyib manzara!'

Izoh. -*ê* artikli bilan ishlatilgan birikmalar ikki xil tarjima qilinishi mumkin. Bunda nazarda tutilgan ma'no kontekstda oydinlashadi, masalan: بچە چوبانى *bačča-ye čôpân-ê* 'bir cho'pon bola' yoki 'bir cho'ponning o'g'li'.

-*ى* artikli bilan kelgan quyidagi ot va ravish turkumiga oid so'zlar gumon olmoshi va ravish vazifasini bajaradi:

كىسى *kas-ê* شخصى *šaxs-ê* 'kimdir', 'allakim'

چىزى *čiz-ê* 'nimadir', 'allanima'

جايى *jâ-yê* 'qayergadir', 'qayerdadir',
'allaqayerda(-ga)'

روزى *rôz-ê* 'bir kuni', 'biror kun'

شىنى *šab-ê* 'biror tun'

كىمى *kam-ê* 'bir oz'

Dariy tilida كىسى *kas-ê* چىزى *čiz-ê* so'zları kesimi bo'lishli shakl bilan ifodalangan gaplarda (gap tasdiq mazmunini bildirsa) gumon olmoshi vazifasida qo'llanadi, masalan:

كىسى آمد *Kas-ê âmad* 'Kimdir keldi'

على چىزى أورد *'Ali čiz-ê âward* 'Ali nimadir olib keldi'

Lekin bu so'zlar gapning kesimi bo'lishsiz shakldagi fe'llar orqali ifodalansa va gapning mazmunidan inkor anglashilsa, noaniqlikni emas, bo'lishsizlik elmoshi vazifasini bajaradilar, masalan:

كىسى نىست *Kas-ê nêst* 'Hech kim yo'q'

او چىزى نىفت *Ô čiz-ê nagoft* 'U hech narsa demadi'

Bunday holatda artiklning o'miga yoki artikl bilan birga هىچ *hêc* bo'lishsizlik elmoshi ishlatilishi mumkin, masalan:

آنجا كىسى نبود *Anjâ kas-ê nabud*

آنجا هىچ كس نبود *Anjâ hêc kas nabud*

آنجا هیچ کسی نبود	<i>Anjâ hêč kas-ê nabud</i>
‘U yerda hech kim yo‘q edi’	
من خطى نىگرفتم	<i>Man xatt-ê nagereftam</i>
من هىچ خط نىگرفتم	<i>Man hêč xatt nagereftam</i>
من هىچ خطى نىگرفتم	<i>Man hêč xatt-ê nagereftam</i>
‘Men hech (qanday) xat olmadim’	

Bo‘lishsizlik olmoshlari

ضمير منفى *zamâyer-e manfi*

Bo‘lishsizlik olmoshlari predmet yoki belgiga nisbatan inkor ma’nosini – bo‘lishsizlikni bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi bo‘lishsiz shaklda kelib, gap inkor gap hisoblanadi.

Dariy tilida bo‘lishsizlik olmoshlari, asosan, هىچ *hêč* ‘hech’ so‘zidan iborat.

Bu olmosh orqali yasalgan bir qator yasama olmoshlar, ravish va boshqa inkor ma’nosidagi so‘zlar mavjud: هىچ کس *hêčkas* ‘hech kim’, هىچ چиз *hêččiz* ‘hech narsa’, هىچ کدام *hêčkodâm* ‘hech qaysi’, ‘hech kim’, هىچ گونه *hêčguna* ‘hech qanday’, هىچ يك *hêčyak* ‘hech bir’, هىچ وقت *hêčwaqt* ‘hech vaqt’, ‘hech qachon’ va sh.k.

Bo‘lishsizlik olmoshlari gapda bajarayotgan funksiyalariga ko‘ra, ega, ikkinchi darajali bo‘lak, ravish kabi vazifalarda qo‘llanadi. هىچ *hêč* ‘hech’ so‘zi yakka qo‘llanganda, ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi va ish-harakatning batamom inkorini bildiradi: هىچ استراحت نىكىد *hêč esterâhat nakard* ‘hech dam olmadi’, هىچ نىغىت *hêč nagoft* ‘hech gapirmadi’.

yâ-yе masdari ياي مصدرى

Sifat, ot va boshqa turkumdagи so‘zlarning oxiriga urg‘uli bir ى -i qo‘sish orqali mavhum ma’noli ot hosil qilinadi. Bu ى -i dariy tili grammatikasida ياي مصدرى *yâ-yе masdari* deyiladi. Masalan:

جان <i>jawân</i>	‘yosh’	→	جوانى <i>jawâni</i>	‘yoshlik’
پير <i>pir</i>	‘qari’	→	پىرى <i>piri</i>	‘qarilik’
بد <i>bad</i>	‘yomon’	→	بىدى <i>badi</i>	‘yomonlik’
بدبخت <i>badbaxt</i>	‘baxtsiz’	→	بىبختى <i>badbaxti</i>	‘baxtsizlik’

يای مصدرى *yâ-yе masdari* qisqa ۋ -a unlisi bilan tugagan so‘zlarga
qo‘shilganda، يى *yâ* harfi oldidan bir گ -g orttiriladi; yozuvda qisqa ۋ -a
unlisi tushib qolishi mumkin، masalan:

بچە <i>bača</i> ‘bola’	→	بچە گى <i>yoki</i>	بچىگى <i>bačagi</i> ‘bolalik’
تازە <i>tâza</i> ‘yangi’	→	تازە گى <i>yoki</i>	تازىگى <i>tâzagi</i> ‘yangilik’
خستە <i>xasta</i> ‘charchash’	→	خستىگى <i>xastagi</i>	خشتىگى <i>xastagi</i> ‘charchoq’

Agar so‘z cho‘ziq unlilardan biri bilan tugagan bo‘lsa، يى -i affaksi
oldidan bir يى *yâ* orttirilib yoziladi، masalan:

راستگو <i>râstgô</i> ‘rostgo‘y’	→	راستگوئى <i>râstgôyi</i> ‘rostgo‘ylik’	
آشنا <i>âšnâ</i> ‘tanish’،	→	آشنايى <i>âšnâyi</i> ‘do‘stlik’	‘do‘st’
نتها <i>tanhâ</i> ‘yolg‘iz’	→	نتهانى <i>tanhâyi</i> ‘yolg‘izlik’	
زىپا <i>zêbâ</i> ‘chiroyli’،	→	زىپانى <i>zêbâyi</i> ‘go‘zallik’،	‘go‘zal’

Izoh. Dariy tilida yozuvda يى harfi orqali ifodalanadigan quydagi
‘yâ’lar mavjud:

- نكره *yâ-yе wahdat* va ياي نكره *yâ-yе nakara* birlik va noaniqlik
yosi (-ê artikli – urg‘usiz): *jawâń* ‘yosh’؛ ‘yigit’ → *jawâń-ê*
(‘qandaydir) bir yigit’؛

- جوان *yâ-yе masdari* mavhum ot yasovchi -i (urg‘uli): *jawâń* ‘yosh’؛ ‘yigit’ → *jawâńi* ‘yoshlik’؛

- زمستان *yâ-yе nesbat* nisbiy sifat yasovchi -i (urg‘uli): *zemestân* ‘qish’ → *zemestâńi* ‘qishki’.

Bularni to‘g‘ri talaffuz qilish kerak. Qiyoslang:

جوانى گىشتى	<i>Jawâńi gozášt</i>	‘Yoshlik o‘tdi’
جوانى گىشتى	<i>Jawâń-ê gozášt</i>	‘Bir yigit o‘tdi’

1-mashq. Berilgan so‘z va so‘z birikmalariga artikl qo‘sning va
ularning ma‘nosini aytинг:

طفل، چوکى، روزها، مردھا، بچە، دوا، پرده، نتو، كوه بلند، شب
تارىك، پيراهن آبى، دختران سياح مو، كارھاي مهم، ميوه تازە را، اتاق
تنگ را، زن دهقان، همسايله معلم.

2-mashq. Artikl ishlatilgan holatlarni tushuntiring:

- 1) من كتاب دلچىسى خواندم. 2) Роброи хотил мотри аистаде شد.
- 3) آنها زير درختى نشستند. 4) شما چرا جايى نرفتيد؟ 5) ظفر چە انسان

خوبى است! ۶) ما در حويلى كسى را نديديم. ۷) شبى آشنايم به من تيلفون كرد. ۸) آنها چيزى نخورىند. ۹) آيا كسى را شناختى؟ ۱۰) ما به اتاق دىگرى رفتيم. ۱۱) روزى به خانه ما مامايم آمد. ۱۲) امروز هوا كمى گرم است. ۱۳) من هيج چيزى نفهميدم. ۱۴) اينجا چه جاي تتنگى است!

3-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Mening portfelim hech qayerda yo‘q.
- 2) Bizda qandaydir jurnallar bor.
- 3) Xonaga bir odam kirib keldi.
- 4) G‘ofur poldan qandaydir xatni oldi.
- 5) Qanday kecha!
- 6) Yoqubda bir qancha qiziqarli fotosuratlar bor.
- 7) Nega siz hech narsa olib kelmadingiz?
- 8) Biz bir do‘konga kirdik.
- 9) Men auditoriyada qandaydir yigitlarni ko‘rdim.
- 10) Kecha biroz salqinroq edi.
- 11) Biz qandaydir kichkina qishloqga yetib bordik.
- 12) Bir kuni menga Ibrohim qo‘ng‘iroq qilgan edi.
- 13) Bu gullar qanchalar chiroyli edi!
- 14) Ali kimningdir qalpog‘ini kiyib oldi.
- 15) Ular hech kim bilan uchrashishmadı.
- 16) Biz qandaydir daryoda cho‘mildik.
- 17) Sen nimadir tushundingmi?
- 18) Bu yer biroz tor ekan.
- 19) Qanday mazali kabob!
- 20) Men hech narsani eshitmadim.

4-mashq. ى ‘yâ’ larning farqiga e’tibor bergan holda o‘qing va tarjima qiling:

- (۱) جلال آباد هوای گرمى دارد.
- (۲) دیروز گرمى نبود.
- (۳) مرد بیر در باره جوانى خود فکر كرد.
- (۴) زن جوانى به اتاق داخل شد.
- (۵) چه بهارى بود!
- (۶) ما در آن روز بهارى ميله كردیم.
- (۷) اين خانه هيج زيباىي ندارد.
- (۸) آن دره مناظر زيباىي داشت.

Salomlashish va xayrlashishda qo‘llaniluvchi oborotlar

سلام!	<i>Salâm!</i>	‘Salom!’
سلام عليكم!	<i>Salâm ‘alékom!</i>	‘Assalomu alaykum!’
السلام عليكم!	<i>As-salámo ‘alékom!</i>	
و عليكم السلام!	<i>Wa-‘alékom-os-salâm!</i>	
‘Vaalaykum assalom!’		
چطور هستید?	<i>Çetôr hastêd?</i>	‘Qandaysiz?’, ‘Qalaysiz?’
چه حال دارید?	<i>Çi hâl dârêd?</i>	‘Ahvolingiz qanday?’
خوب هستید?	<i>Xub hastêd?</i>	‘Yaxshimisiz?’
خور هستید?	<i>Jör hastêd?</i>	‘Sog‘-salomatmisiz?’
صحت مبارك!	<i>Sehhât-e mobârak?</i>	‘Muborak sog‘liq-(lar)ingiz (qanday)?’

خیریت است؟	<i>Xayreyyat ast?</i>	'Tinch-omonmisiz?'
کار(ها)ی شما) چطور است؟	<i>Kârhâ(-ye Şomâ) çetôr ast?</i>	
	'Ishlar(ingiz) qanday?'	
شکر!	<i>Taşakkor!</i>	'Rahmat!'
شکر!	<i>Şokr!</i>	'Shukur!'
خوب هستم	<i>Xub hastam</i>	'Yaxshiman'
خیر خیریت است	<i>Xayr-xayreyyat ast</i>	
کجا هستید؟	'Hammasi joyida', 'Hamma yoq tinchlik'	
هیچ درک ندارید!	<i>Koja hasted?</i> 'Qayerlarda yuribsiz?'	
خدا حافظ!	<i>Hêc darak nadârêd!</i> 'Hech ko'rinnmaysiz!'	
به امان خدا!	<i>Xodâ hâfez!</i> 'Xayr' (Alloh panohida asrasin)	
به خدا سپردم!	<i>Ba amân-e Xodâ!</i> 'Xayr' (Allohnning omonatiga topshirdim)	
به امید نیدار!	<i>Ba Xodâ sopordam!</i> (Sizni) Xudoga topshirdim	
	<i>Ba omêd-e didâr!</i> 'Ko'rishguncha' ((Yana) diydor umididaman)	

Matn

میله

- سلام علیکم، رفیق!
- سلام، پرادر!
- چه حال داری؟ خوب هستی؟
- شکر، خوب هستم. خودت چطور هستی؟
- شکر، من هم خوب هستم. صحتت چطور است؟
- شکر، صحتم کاملاً خوب است.
- طبیعتن چطور است؟
- طبیعتم بد نیست.
- خانه خیریت است؟
- شکر، خیر خیریت است.
- قبله گاه و والده ات صحت دارتند؟
- همه جور هستند، سلام گفتند.
- شکر. کجا هستی؟ هیچ درک نداری!
- بسیار مصروف هستم، کارهایم زیاد است.
- دیروز هم کار داشتی؟
- نه، دیروز خوشبختانه رخصتی بود و من بیکار بودم.

- چرا به خانه مانیامدی؟ جای تو خالی بود.
- تشکر، اما من وقت نداشتم. دیروز ما در پغمان میله داشتیم.
- شما چند نفر بودید؟
- ما چهار نفر بودیم. همه ما همصنفی بودیم.
- میله شما خوب گذشت؟
- بله، میله ما بسیار خوب گذشت.
- ساعت چند از کابل حرکت کردید؟
- ما ساعت هشت صبح از شهر نو حرکت کردیم.
- موتور از خودتان بود؟
- نه، ما موتور ندادیم. در موتور تکسی رفتیم.
- در راه جایی توقف نکردید؟
- چرا نکردیم؟ یک بار در بند قرغه برای چند دقیقه توقف کردیم.
- در بند قرغه چه کردید؟
- اول آب بازی کردیم و بعد در رستوران آنجا چای خوردیم.
- چند بجه به پغمان رسیدید؟
- ساعت نه و نیم تا نه و چهل دقیقه به پغمان رسیدیم.
- هوای پغمان خراب نبود؟
- چه هوای خوبی بود! دیروز هوای پغمان نسبت به کابل بسیار خوب بود.
- گرمی یا شمال نبود؟
- نه گرمی بود و نه شمال.
- در پغمان سپورت کردید؟
- بله، در دره پغمان یک یا یک و نیم ساعت والیبال کردیم.
- بعد از والیبال چه کردید؟
- بعد از والیبال در کنار دریا روی چمنی نشستیم و تا چاشت قصه کردیم.
- چاشت کجا نان خوردید؟
- چاشت به یک هتل رفتیم و نان خوردیم.
- نان هتل خوش تان آمد؟
- بله، نان هتل بسیار خوش مان آمد. هم پلوشان بسیار مزه دار بود. هم قورمه شان و هم چای شان.
- بعد از نان کجا رفیدی؟
- بعد از نان در باع عمومی هواخوری کردیم.
- در باع عمومی چه پروگرام بود؟
- دیروز در باع عمومی بسیار ساز و آواز بود.
- کسی اتن نکرد؟
- چطور نکرد؟ چند نفر اتن کردند و همه مردم تماشا کردند.

- دیروز در پغمان نفر زیاد بود؟
 – دیروز اکثر مردم کابل در پغمان بودند. همه جا بیرونی بود.
 – من شنیدم که دیشب در باخ عمومی پغمان کنسرت دلچسپ به اشتراک هنرمندان مشهور برگزار شد. شما به دین آن کنسرت نرفتید؟
 – آن کنسرت در هوای آزاد نبود، در سالون هوتل بود. متاسفانه چون تعداد تماشاییان زیاد بود به ماتکت نرسید و ما به آن کنسرت نرفتیم.
 – افسوس! دیگر در پغمان چه کردید؟
 – دیگر در بازار شهر و با غاهای سرسبز آنجا قدم زدیم، طاق ظفر و قصرهای زیبای پغمان را دیدیم.
 – از بازار چیزی نخریدید؟
 – ساعت پنجم عصر چون کمی تشنگ و گرسنه بودیم چهار بوتل فانتا و چهار دانه ساندویچ خردیدیم و همه آن را خوردیم.
 – تا ساعت چند در پغمان بودید؟
 – تقریباً تا ساعت هفت شام در پغمان ماندیم.
 – به کابل هم در موتر تکسی آمدید؟
 – بدیختانه هیچ موتری پیدا نشد.
 – چه چاره کردید؟
 – چاره دیگر نبود. به سرویس بالا شدیم و به کابل برگشتم.
 – در سرویس بیرونی نبود؟
 – بسیار بیرونی بود، هیچ چوکی خالی نبود.
 – از میله راضی هستید؟
 – بله، هر چهار ما از میله راضی هستیم. خودت دیروز کجا بودی؟
 – من تمام روز در خانه بودم، هیچ جایی نبرآمدم.
 – چرا؟ خیریت بود؟
 – خیر خیریت بود، مهمان داشتم. خوب، از قصه تو بسیار تشکر.
 – وقت ترا گرفتم. عجله داری؟
 – بله، کمی ناوگت است. در خانه انتظار دارند. اجازه است؟
 – چرا نه؟ از ملاقات تو بسیار خوش شدم. به خدا سپردم.
 – به امان خدا. به امید دیدار.

Matnga sharh

1. *xoš āmadan fe'li tuslanganda, qo'shma fe'lning ot qismi* خوش آمدن *xoš birikuvchi olmoshlarni (ba'zan – kishilik)* qabul qilib, ko'makchi fe'l *āmadan esa doimo III shaxs birlik shaklida keladi; urg'u qo'shma fe'lning ot qismiga tushadi.* *āmadan* ko'makchi fe'l gapning

ma'nosiga qarab turli zamon shaklida bo'lishi mumkin (خوش آمدن *xoš āmadan* fe'lining tuslanishi o'zbek tilidagi *uyqu kelmoq* qo'shma fe'lining tuslanishini eslatadi: *uyqum keldi, uyqung keldi* kabi), masalan:

خوش آمد	<i>xoš-am āmad</i>	'menga yoqdi'
خوشت آمد	<i>xoš-at āmad</i>	'senga yoqdi'
خوشش آمد	<i>xoš-aš āmad</i>	'unga yoqdi'
خوشنام آم	<i>xoš-emân āmad</i>	'bizga yoqdi'
خوشتан آمد	<i>xoš-etân āmad</i>	'sizga yoqdi'
خوشшан آمد	<i>xoš-esân āmad</i>	'ularga yoqdi'

خوش آمدن *xoš āmadan* qo'shma fe'li boshqargan to'ldiruvchi, ya'ni *yogish* obyekti bo'lgan so'z, odatda, Jil az ko'makchisini qabul qilib keladi; ba'zan ko'makchi tushib qoladi, masalan:

از این شال گردن ابریشمی خوش آمد	<i>Az in šâl-e gardan-e abrišomi xošam āmad</i>
'Bu ipak sharf menga yoqdi'	
از این شال گردن ابریشمی خوشت آمد	<i>Az in šâl-e gardan-e abrišomi xošat āmad</i>
'Bu ipak sharf senga yoqdi'	

خوش آمدن *xoš āmadan* fe'lining bo'lishsiz shakli -na inkor yuklamasini ko'makchi fe'lga qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bunda urg'u -na inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

این میله خوش نیامد	<i>In mîla xoš-am nayāmad</i>
'Bu (ochiq havodagi) sayr menga yoqmadi'	
از این مقاله خوش نیامد	<i>Az in maqâla xoš-aš nayāmad</i>

'Bu maqola unga yoqmadi'

2. Matnda keltirilgan joy nomlari:

پغمان *Pağmân* 'Pag'mon' – Kobuldan taxminan 20 km g'arbda joylashgan shahar. Bu shahar Kobulga nisbatan dengiz sathidan yuqorida bo'lGANI uchun iqlimi salqin.

طاق ظفر *Tâq-e zafar* (aynan Zafar arkasi yoki G'alaba darvozasi) – 1919- yili Afg'oniston mustaqilligining qayta qo'lga kiritilgani sharafiga Pag'monda qurilgan.

قرغ'ه *Qarğ'a* 'Qarg'a' – Kobul g'arbidagi shaharcha bo'lib, u yerda to'g'on mavjud.

5-mashq. O'qing va tarjima qiling:

- (1) ما اول نان خورдим و بعد درس خوانдیم. (2) اول يوسف آمد و بعد از آن زلمی رسید. (3) امروز بسیار شمال است. (4) تکت سینما به تو نرسید. (5) ما

دیگر به پغمان نرفتیم. ^۶ دیگر در اتاق کی بود؟ – دیگر هیچ کس نبود.
 (۷) برادرم به شما بسیار مسلم گفت. ^۸ چرا درک تداری؟ جای تو خالی است.
 (۹) دیروز کریم به مکتب نیامد. – خیریت بود؟ – او کمی ناجور بود. ^{۱۰}
 دیروز به میله نرفتید؟ – چطور نرفتیم؟ ^{۱۱} (۱۲) من هم خود شما را
 چرا روان نکریم؟ ^{۱۳} حالا وقت داری؟ – چرانه؟ ^{۱۴} (۱۵) ما هم مالته
 شناختم و هم خاتم شمارا. ^{۱۶} او نه موثر داشت و نه باسکل. ^{۱۷} (۱۸) ما هم
 و هم ستره خربلیدیم. ^{۱۹} نه ابراهیم در خانه بود و نه بچه اش. ^{۲۰} (۲۱) این فلم
 بسیار خوش آمد. ^{۲۱} باغ های پغمان خوش تان آمد؟ ^{۲۲} آن قورمه هیچ خوش
 مانیامد. ^{۲۳} از چای شما بسیار تشکر. ^{۲۴} چرا از مادر خود تشکر نکردی؟

6-mashq. Dariy tilida dam olish kunidagi sayr haqida hikoya tuzing.

7-mashq. Dariy tilida uchrashuv va xayrlashuv kichik sahna ko'rinishini tayyorlang.

8-mashq. Nuqtalar o'rniga , خوشبختانه متأسفانه , خوبشخانه yoki so'zlaridan mosini qo'yib ko'chiring:

(۱) آن روز ... زلزله شد. ^۲ ... به ما دو تکت رسید. ^۳ دیروز ... تمام
 روز باران بود. ^۴ ... هوای امروز بسیار خوب است. ^۵ ... ما موثر تکسی
 پیدا نکردیم. ^۶ من حالا ... بسیار عجله دارم. ^۷ ... بعد از یک دقیقه
 سروپس رسید. ^۸ در موثر سروپس ... بیرونبار بود. ^۹ ... موثر ما در راه
 خراب شد. ^{۱۰} من ... برای تماشای کنسرت وقت ندارم.

9-mashq. Qo'shma fe'llarning ma'nosini ayting:

میله کردن، والیبال کردن، پیدا شدن، صحبت داشتن، چاره کردن، اتن
 کردن، حرکت کردن، توقف کردن، عجله داشتن، برگزار شدن، تماشا
 کردن.

10-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A. 1) Biz ketin ning sayrimiz senga yoqdimi? – Yo'q, bizning
 sayrimiz menga yoqmadı. 2) Palov ularga yoqdi, qovurdoq esa yoqmadı.
 3) Men bir necha daqiqa kutdim, ammo boshqa hech kim qo'ng'iroq
 qilmadi. 4) Sizlar bilan yana kim bor edi? – Biz bilan Hasan ham bor
 edi. 5) Bu qizning otasi ham, onasi ham yo'q. 6) Menga san'atkorlar
 ham, konsert ham (ularning konserti ham) yoqdi. 7) Stolning ustida na
 choy va na shirinliklar bor edi. 8) Biz ashulalarni ham, ijroni ham
 eshitdik. 9) Men Baryolayga mehmondorchilik uchun minnatdorchilik
 bildirdim. 10) Qiziqarli hikoya uchun sizga rahmat! 11) Juda ham kech
 edi, bizning qornimiz och va chanqagan edik. 12) Zalda judayam ko'p

tomoshabinlar bor edi, ammo baxtga qarshi bo'sh jo'y yo'q edi. Vaziyatdan chiqishning boshqa iloji bo'lmanligi sababli, biz tik turgan holimizcha qolaverdik. 13) Mening taksiga pulim yo'q edi. – Vaziyatdan qanday qilib chiqib ketding? – Men avtobusga o'tirdim. 14) Kecha oqshomda "Zaynab" kinoteatrida bir nechta juda mashhur san'atkorlar ishtirokida katta konsert bo'lib o'tdi. 15) Kayfiyatning qanday? – Mening kayfiyatim yomon. – Nega? – Chunki menga bu filmga bilet yetmadi. – Afsus. 16) Hozir menda, afsuski, vaqt yo'q. Men juda shoshyapman, chunki yarim soatdan keyin men bir odam bilan uchrashishim kerak. 17) Bekatda trolleybus to'xtadi, lekin unda odam ko'p edi (tirband edi). Baxtimizga, bir daqiqadan so'ng boshqa trolleybus keldi va biz unga chiqdik.

B. Pag'mon shahri Kobuldan uzoqda emas. Pag'monda chiroyli saroylar va yashil bog'lar bor. Bu shaharning markazida salobatli ark joylashgandir. Pag'mon dovoni va Pag'mon atrofidagi tog'lar nihoyatda serjilodir (chiroyli manzaraga ega). Yozda Kobul aholisi Pag'monga sayr qilgani borishadi.

C. Salom, birodar! – Salom! – Ishlaring qanday? – Hammasi joyida. – Sog'liging yaxshimi? – Rahmat, tuzukman. – Ota-onang yaxshimi? – Ular, xudoga shukur, sog'-salomat, senga salom aytishdi. – Rahmat. Nega kamnamosan? – Ishlarim ko'p. – Biz seni sog'inib ketdik. – Rahmat, lekin men har kuni juda bandman. – Hozir vaqtning bormi? – Yo'q, afsuski, juda shoshyapman. – Nima gap o'zi? – Meni uyda kutishyapti. – (Kechirasani) vaqtingni oldim. – Seni ko'rGANIMdan xursandman. Ruxsating bilan (ketsam)? Suhbat uchun rahmat. – Ko'rishguncha. – Ko'rishguncha.

Lug'at

اتن	<i>atan</i>	atan (afg'oncha milliy raqs)	ساز	<i>sâz</i>	musiqa
اجازه	<i>ejâza</i>	ruxsat	ساندوچ	<i>sândwič</i>	buterbrod
آزادى	<i>âzadi</i>	ozodlik	سپردن	<i>sopordan</i>	topshirmoq
اشتراك	<i>eşterâk</i>	ishtirok	سرسبز	<i>sarsabz</i>	yam-yashil
اقسوس	<i>afsôs</i>	afsuslanish	شخص	<i>šâxs</i>	shaxs
امید	<i>omêd</i>	umid	(اشخاص)	<i>(ašxâs)</i>	
بد	<i>bad</i>	yomon	شیرینی	<i>širini</i>	shirinlik
بېبخاتانە	<i>badbaxtâna</i>		صحت	<i>sehhât</i>	sog'liq
			طاق	<i>tâq</i>	arka, darvoza
			طبيعت	<i>tabi'at</i>	kayfiyat

baxtga qarshi			
برگزار کردن bargozâr kardan	ظفر zafar	g‘alaba	
o‘tkazmoq	عجله ‘ajalla	shoshilish,	
بند band	شوشقالولیк shoshqaloqlik		
bir-o-bâr tiqilinch	فانتا fântâ	fanta (ichimlik)	
پروگرام porôgrâm dastur	قبله گاه qeblagâh	ota, qiblagoh	
تشکر tašakkor rahmat	قدم qadam	qadam	
(ان) تشكير tašakkor kardan	قدم زدن qadam	yurmoq	
minnatdorchilik bildirmoq	zadan		
تشنه tašna	قصر qasr	qasr	
تعداد ta‘dâd, te‘dâd	سونی soni, میقدور miqdori	قورمه qurma	qovurma
تکسی taksi	تکسی taksi	گنشنن gozaštan	o‘tmoq
تماشا tamâšâ	تماشا tomosha	گرسنه goesna	och
تماشاچی tamâšâči	(ان) (an) tomoshabin	گرمی garmi	issiqlik
توقف tawaqqof	توقف to‘xtash	متأسفانه mota‘assefâna	afsuski
جوانی jawâni	Yoshlik	مصروف masruf	band
چاره čâra	chora	ملاقات molâqât	uchrashuv
حال hâl	hol (ahvol)	منظره manzara	manzara
(احوال) (ahvol)		(مناظر) (manâzer)	
خدا Xodâ	Xudo	مهمان نوازی mehmânnawâzi	
خوشبختانه xošbaxtâna		mehmondo‘stlik	
(baxtimga va h.k.), xayriyyat		میله mela	
خیریت xayreyyat		ochiq havodagi sayr	
tinchlik, xotirjamlik		ناؤقت nâwaqt	kech
دره dara	dara	والده wâleda	ona, valida
بدار didâr	uchrashuv, ko‘rishish	والبیال wâlibâl	voleybol
دیشب dišab	kech	هنرمند honarmand(ân)	
	kechqurun	(ان) san’atkor(lar)	
زیبایی zêbâyi	go‘zallik	هیچ hêč	hech qachon

O'N SAKKIZINCHI DARS

درس هجدهم

100 dan katta sonlar

ص	<i>sad</i>	۱۰۰	'ikki yuz'
دو صد	<i>dosad</i>	۲۰۰	'ikki yuz'
سه صد	<i>sēsad</i>	۳۰۰	'uch yuz'
چهار صد	<i>čahârsad</i>	۴۰۰	'to'rt yuz'
پنج صد	<i>panjsad</i>	۵۰۰	'besh yuz'
شصت	<i>šašsad</i>	۶۰۰	'olti yuz'
هفت صد	<i>haftsad</i>	۷۰۰	'yetti yuz'
هشت صد	<i>haštsad</i>	۸۰۰	'sakkiz yuz'
نه صد	<i>nohsad</i>	۹۰۰	'to'qqiz yuz'

Mingliklar

هزار / يك هزار	<i>hazâr, yak hazâr</i>	۱۰۰۰	'ming' / 'bir ming'
دو هزار	<i>do hazâr</i>	۲۰۰۰	'ikki ming'
سه هزار	<i>se hazâr</i>	۳۰۰۰	'uch ming'
چهار هزار	<i>čahâr (čâr) hazâr</i>	۴۰۰۰	'to'rt ming' va h.k.
لک	<i>lak</i>	۱۰۰۰۰	'yuz ming'

Millionlar

مليون melyun yoki	مليون milyun	'million'
دو ميليون do melyun		'ikki million'
سه ميليون se melyun		'uch million' va h.k.

Milliardlar

مليارد melyârd yoki	مليارد milyârd	'milliard'
دو مليارد do milyârd		'ikki milliard'
سه مليارد se milyârd		'uch milliard' va h.z.

Yuzliklar, mingliklar, millionlar, milliardlar yasash uchun shu so'zlar oldiga birlikdagi sonlarni qo'yish kerak. Bosh urg'u oxiridan oldindi songa tushadi, masalan:

دو صد dósad	'ikki yuz'
بیست و پنج هزار bist-o-páńj hazâr	'yigirma besh ming'

Dariy tilida ko‘p xonali sonlarni yasash uchun birlik, o‘nlik, yuzlik, minglikdagi sonlar orasiga ۴ -o bog‘lovchisi orttiriladi. Albatta, avval eng katta xonadagi son, keyin undan keyingi xonadagi son tartib bilan yoziladi.

٤٣٩/٤٣٩ چهار صد و سی و نه - *čahár sad-o si-wo-nóh*

٥٤٣٩/٥٤٣٩ پنج هزار و چهار صد و سی و نه - *pánj hazár-o čahár sad-o si-wo-nóh*

1 sonidan boshlangan yoki ikkita nolga tugallangan 4 xonali sonlarda minglikdagi har bir son alohida aytildasdan, yuzlik sonda bo‘lishi mumkin, masalan:

دوازده صد و نود و يك متр (يک هزار و نو صد و نود و يك متр)
‘1291 metr’

پنجاه و سه صد افغانى (بنج هزار و سه صد افغانى)
‘5300 afg‘oni’

1-mashq. Sonlarni o‘qing:

- ۱۹۷۳ - ۲۰۱۸ - ۶۰..... - ۳۲۰۰ - ۸۰۰ - ۴۰۰
۱۶۳۴۸۰۶ - ۱۳۰۷ - ۳۳۸۰۰ - ۰۱۰۰ - ۴۹۲۴۱۷۳۵ - ۱۳۸۰۴۲

2-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

18 million nafar odam, 250 nafar talaba, 1 300 afg‘oni, 120 kilometr, 5 million 840 ming so‘m (сум), 2 400 metr, uch yarim million nafar odam, 1 526 kilogramm.

Yevropa oyalarining afg‘oncha nomi

جنورى	<i>janwari</i>	‘yanvar’
فبرورى، فرورى	<i>fabr(o)wari, farwari</i>	‘fevral’
مارج	<i>mârc</i>	‘mart’
اپريل	<i>april</i>	‘aprel’
مى	<i>mê</i>	‘may’
جون	<i>jun</i>	‘iyun’
جولای	<i>julây</i>	‘iyul’
اگست، اگست	<i>âgest, agest</i>	‘avgust’
شېتىمېر، سېتىمېر	<i>septamb(a)r, septâmb(a)r</i>	‘sentabr’
اكتوبر، اكتوبر	<i>aktôb(a)r, aktob(a)r</i>	‘oktabr’
نومبر، نومبر	<i>nawamb(a)r, nawâmb(a)r</i>	‘noyabr’
دسامبر، دسامبر	<i>desamb(a)r, desâmb(a)r</i>	‘dekabr’

Dariy tilida sananing ifodalaniishi

Oy kunini ifodalash uchun tegishli tartib son yoki miqdor (sanoq) son va oy nomini ko'rsatuvchi so'z izofa orqali biriktiriladi, masalan:

هفتىم دسمبر *haftom-e desambar* }
هفت دسمبر *hajt-e desambar* } 'yettinchi dekabr'

Oyning birinchi kuni اوں *awwal* 'birinchi' tartib soni orqali keladi, masalan:

اول جون *awwal-e jun* 'birinchi iyun'

Kunni ifodalovchi son oldidan روز *rôz* 'kun', تاریخ *târix* 'sana', oy nomini ko'rsatuvchi so'z oldidan ماه *mâh* 'oy' so'zi izofa orqali birikishi mumkin, masalan:

روز سی و يک ماہ جنورى *rôz-e si-wo-yakom-e mâh-e janwari*
'31- yanvar (aynan 'yanvar oyining 31- kuni')'

Agar sana gapda payt holi vazifasida kelsa, روز *rôz-e...*, ... در روز *rôz-e...*, ... *ba rôz-ê...*, ... به تاریخ *ba ta'rîx-e...* oborotlari bilan kelishi mumkin, masalan:

به تاریخ چهار اگст من به کابل رسیدم

Ba târix-e čahâr-e âgest man ba Kâbol rasidam
'4- avgust men Kobulga yetib keldim'

Yilni ifodalash uchun سال *sâl* so'zi yil miqdorini ko'rsatuvchi son oldiga qo'yilib, o'zaro izofa orqali bog'lanadi, masalan:

سال هزار و نهصد و هفتاد و شش

sâl-e hazâr-o nohsad-o haftâd-o šâš
'1976- yil'

سال دو هزار و پنج *sâl-e do hazâr-o panj* '2005- yil'

O'zbek tilida yil miqdori tartib son shaklida keladi, lekin dariy tilida yil miqdori doimo miqdor (sanoq) son shaklida bo'ladi.

Agar minglikdagi son yuzlik songa kirsa (2000- yildan oldingi yillar), sad so'zi va bog'lovchisi tushib qolishi mumkin, masalan:

سال (يک) هزار و نه صد و نود و چهار

sâl-e (yak) hazâr-o noh sad-o nawad-o-čahâr

سال نزده صد و نود و چهار *sâl-e nozdah sad-o nawad-o-čahâr*

سال نزده نود و چهار *sâl-e nozdah nawad-o-čahâr*

'1994- yil'

Agar yil nomi sana tarkibida bo'lsa, oy nomiga izofa orqali birikadi; bunda سال *sâl* so'zi tushib qolishi mumkin, masalan:

روز دوازدهم اپрیل نزدہ صد و شصت و يك
rôz-e dowâzdahom-e april-e nozdah sad-o šast-o-yak
‘12- aprel 1961- yil’

Tegishli oy kunini bilish uchun چند؟ *čand* ‘necha?’ so‘roq olmoshiga မ -om affiksini qo‘sish orqali چندم *čandom* ‘nechanchi?’ olmoshi ishlatalib, savol beriladi:

امروز چندم است؟ *emrôz čandom-e mâh ast?* yoki
Emrôz čandom ast? ‘Bugun oyning nechanchi kuni (qaysi sanasi)?’

3-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

A) birinchi sentabr, to‘qqizinchi may, sakkizinchi mart, o‘n to‘qqizinchi avgust, yigirmanchi yanvar, yigirma sakkizinchi fevral, o‘ttizinchi aprel, o‘ttiz birinchi dekabr.

B) 1941- yil, 1812- yil, 1980- yil, 1905 -yil, 1919- yil, 2000- yil.

D) 1917- yil 25- oktabr, 1991- yil 31- avgust, 1945- yil 9- may, 1921- yil 28- fevral, 2001- yil 11- sentabr.

4-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) bugungi sana; 2) tug‘ilgan kuningiz; 3) yaqinlaringizning tug‘ilgan kунлари; 4) bayram kунлари; 5) boshqa (istalgan) unutilmas kунлар.

Afg‘onistonda yil hisobi

Afg‘onistonda uch xil taqvim amalda qo‘llanilib kelmoqda va, o‘z navbatida, uch xil yil hisobi farqlanadi:

1) سل ميلادي (*sâl-e milâdi* ‘milodiy yil’ (Grigoriy (Yevropa) taqvimi);

2) سل خورشيدى (*sâl-e hejri-ye šamsi* yoki *sâl-e xoršêdi* (hijriy-shamsiy yil – shamsiya));

3) سل هجري قمرى (*sâl-e hejri-ye qamari* (hijriy-qamariy yil – qamariya).

Yevropa milodiy taqvimida oylarning ba’zilari 30, ayrimlari 31 kundan va faqat fevral oyi 28 kundan iborat bo‘ladi. Fevral oyi 4 yilda bir marotaba 29 kun bo‘lib, u yil kabisa yili deyiladi. Milodiy yil 365 yoki 366 kundan iborat.

Hijriy yil milodning 622- yil 16- iyulidan, ya’ni Muhammad payg‘ambar (SAV) hazratlarining Makkai mukarramadan Madinai munavvaraga hijrat qilgan (ko‘chgan) yillaridan boshlanadi.

Hijriy yil oy va quyosh kunlari asosida olib boriladi. Hijriy yil oy kunlari bo'yicha olib borilsa, هجرى قمرى *hejri-ye qamari* va quyosh kunlari bo'yicha bo'lsa, هجرى شمسى *hejri-ye šamsi* deb ataladi.

هجرى قمرى *hejri-ye qamari* oy davrining o'zgarishi bo'yicha tuzilgan bo'lib, har bir oy yangi oy chiqish davridan boshlanadi.

هجرى شمسى *hejri-ye šamsi* esa yerning quyosh atrofida aylanishi bo'yicha tuzilgan bo'lib, bunda yerning quyosh atrofida bir marotaba aylanib chiqishi bir yil hisob qilinadi.

هجرى قمرى *hejri-ye qamari* yilidagi 12 oyning 6 tasi 30 va 6 tasi 29 kundan iborat bo'lib, birinchi oy 30 va ikkinchi oy 29 kun tartibida davom etib boradi. Natijada, qamariyaning bir yili 354 kun bo'ladi.

هجرى شمسى *hejri-ye šamsi* yili milodiy yil kabi 30 va 31 kundan va yolg'iz bir oy 28 (29) kundan iborat, shuning uchun bir yil 365 (366) kun bo'ladi. Shu asosda qamariy yil shamsiy yildan har yili 10-11 kundan orqada qolib boradi va qamariyning ma'lum bir oy va kunining har yili, milodiy hamda shamsiyning turli vaqtlarida kelishiga sabab bo'ladi. Har 33 yilda hijriy-qamariy yili bir davrani aylanib chiqib, yana bir vaqtga to'g'ri keladi va qamariyning 33 yili shamsiyning 32 yiliga tengdir.

Izoh. Demak, milodiy va hijriy taqvimlar orasida 621 (622) yil farq mavjud. Milodiy yil hisobini hijriy yil hisobiga aylantirish uchun milodiy yil hisobidan 621 (622) soni ayiriladi: milodiy yil - 621 (622) yil = hijriy yil.

Aksincha, ya'ni hijriy yil qaysi milodiy yilga to'g'ri kelishini aniqlash uchun tegishli miqdor songa 621 (622) soni qo'shiladi: milodiy yil = hijriy yil + 621 (622) yil.

Masalan: *milodiy 1999- yil = hijriy 1377-1378;*

hijriy 1375 = milodiy 1996-1997.

Yil hisobining qaysi taqvim ásosida berilganini ko'rsatish uchun tegishli miqdor sondan so'ng izofa yordamida quyidagicha izohlar keltirilishi mumkin:

م	(میلادی)	'milodiy'
ق م	(قبل از میلاد)	'miloddan awwal'
هش	(خورشیدی شمسی)	'hijriy quyosh ylnomasi'
هـ	(هجرى قمرى)	'hijriy oy ylnomasi'
هـ	١٤٠٥	sâl-e čahârdah sad-o panj-e hejri-ye qamari '1405- h.q. yil'

Afg'onistonda uchala taqvimdan muayyan vazifada foydalaniladi. Yevropa kalendari asosan tashqi aloqalarda va xorij uchun ishlataladi. Hijriy oy kalendaridan islom diniy sanalarni belgilashda, boshqa holatlarda esa hijriy quyosh kalendaridan (keyingi o'rnlarda – afg'on kalendari deb yuritiladi) foydalaniladi.

Afg'on kalendarining har oyi Yevropa oylarining 20-kunidan boshlanadi. Afg'oncha oylar Burjlarning nomiga muvofiq ataladi. Sana yevropacha kalendaridagi kabi hosil qilinadi (ماه māh 'oy' so'zi o'mniga برج borj 'burj' so'zi ishlatalishi mumkin), masalan:

روز هفتہم پرچ اسد سال سیزده صد و هفتاد و دو

rōz-e hafdhahom-e borj-e asad-e sâl-e sēzdah sad-o haftâd-o du
‘1372- yil asad oyining 17- kuni’

Turli kalendar bo'yicha bitta sanani ko'rsatish zarur bo'lganda, sananing 2-varianti oldidan مطابق motâbeq-e '...-ga muvofiq', '...-ga to'g'ri keluvchi' so'zi qo'yiladi, masalan:

اول حمل سیزده پنجاه و سه مطابق بیست و یکم مارچ نزدہ هفتاد و چهار

awwal-e hamal-e sēzdah penjâh-o-sê

motâbeq-e bist-o-yakom-e mārç-e nozdah haftâd-o-čahâr

‘1355- yil 1- hamal, milodiy 1974- yil 21- mart kuni’(aynan

‘1974- yilning 21- martiga to'g'ri keluvchi 1355- yil 1- hamal (kuni’)

Afg'oniston taqvimi oylarining nomi

Afg'oncha oylarning nomi		Muvoviq burjlar	Muvoviq yevropacha oylarga	
حمل	<i>hamal</i>	Qo'y	mart –	aprel
ثور	<i>sawr</i>	Buzoq	aprel –	may
جوزا	<i>jawzâ</i>	Egizak	may –	iyun
سرطان	<i>saratân</i>	Qisqichbaqa	iyun –	iyul
اسد	<i>asad</i>	Arslon	iyul –	avgust
سنبله	<i>sonbola</i>	Boshoq	avgust –	sentabr
میزان	<i>mizân</i>	Tarozu	sentabr –	oktabr
عقرب	<i>'aqrab</i>	Chayon	oktabr –	noyabr
قوس	<i>qaws</i>	Yoy	noyabr –	dekabr
جدى	<i>jâdi</i>	Tog' echkisi	dekabr –	yanvar
دلو	<i>dalw</i>	Qovg'a	yanvar –	fevral
حوت	<i>hut</i>	Baliq	fevral –	mart

5-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- A) 20- dalv, 31- javzo, 29- hut, 3- asad.
B) 1336- yil 10- saraton; 1365- yil 3- mezon; 1381- yil 30- aqrab;
1372- yil 15-jadi.
C) 1359- yil 22- savr, 1980- yil 12-mayga to‘g’ri keladi; 1383-yil
6-qavs, 2004-yil 27-noyabrga to‘g’ri keladi.

Qo‘shma fe’llarning kontakt va distant holati

Gapda qo‘shma fe’llarning ot qismi fe’l qismi bilan yonma-yon kelib, ular orasida gapninig boshqa bo‘laklari bo‘lmasa, bu holat qo‘shma fe’lning kontakt, ya‘ni birgalikdagi holati deyiladi, masalan:

آنها ба معلم زиан дрی خود صحبت крнди

Ânhâ bâ mo ‘alleм-e zabân-e dari-ye xod sohbat kardand

‘Ular dariy tili o‘qituvchilari bilan suhbatlashdilar’

Qo‘shma fe’lning ot qismi bilan fe’l qismi orasida gapning boshqa bo‘laklari kelgan bo‘lsa, bu holat qo‘shma fe’lning distant, ya‘ni ayrim kelish holati deyiladi. Qo‘shma fe’lning distant holatida fe’lning ot qismi va fe’l qismi orasiga gapning boshqa bo‘laklari kiradi va ular qo‘shma fe’lning ot qismiga izofa orqali bog‘lanadi, masalan:

من نزدик дроазе شдем *Man nazdik-e darwâza şodam*

‘Men eshikka yaqinlashdim’

Bu fe’l kontakt holatda ham ishlatilishi mumkin. Unda 4 -ba old ko‘makchisi ishlatiladi, masalan:

من به дроазе نزдик шдем *yoki* من نزدик дроазе شдем

‘Men eshikka yaqinlashdim’

Ba’zi fe’llar distant holatda ort va old ko‘makchi bilan keladi (old ko‘makchi kelganda izofa qo‘llanilmaydi). Masalan:

ما خبر қакайи خод раг’фтий *Mâ xabar-e kâkâ-ye xod râ gereftêm*

‘Biz amakimizdan xabar oldik’

حیدر شروع بے کار کرد *Haydar şoro ‘ba kâr kard*

‘Haydar ishga kirishdi’

Dariy tilida ba’zi fe’llargina distant holatda ishlatilishi mumkin. Ular ichida ko‘p uchraydiganlari quyidagilar:

عازم جایи شدن ‘âzem-e jâ-yê şodan ‘(biror joyga) jo‘namoq’

وارد جайи شден wâred-e jâ-yê şodan ‘(biror joyga) kelmoq
(kirmoq)’

نездик جайи شден *nazdik-e jâ-yê şodan*

بە جىلى نزىبىك شىن (yoki	‘biror joyga yaqinlashmoq’
داخىل جىلى شىن dâxel-e jâ-yê šodan	‘biror joyga kirmoq’
شامل چىزى شىن šâmel-e čiz-ê šodan	‘biror joyga kirmoq (ishga, o ‘qishga va sh.k.)’
مصروف كارى شىن masraf-e kâr-ê šodan	‘biror narsa bilan shug‘ullanmoq’
شروع بە كارى كردىن šoro ‘ba kâr-ê kardan	
(بە كارى شروع كردىن (yoki	‘biror ishni boshlamoq’
خېر كسى را گرفتن xabar-e kas-ê râ gereftan	
(از كسى خېر گرفتن (yoki	‘kimdandır xabar olmoq’
انتظار چىزى را داشتن entezâr-e čiz-ê râ dâstan	‘nimanidir
انتظار چىزى را كشىدىن entezâr-e čiz-ê râ kaşdan	‘kutmoq’
منتظر چىزى بودنى montazer-e čiz-ê budan	
سبب چىزى بودنى sabab-e čiz-ê budan	
داراي چىزى بودنى dârâ-ye čiz-ê budan	
نقل مكان كردىن naql-e makân kardan	
ثېت نام كردىن sabt-e nâm kardan	
ايماى وظيفه كردىن ifâ-ye wazifa kardan	
	‘ishlamoq (qayerdadır)’

6-mashq. O‘qing va tarjima qiling:

1) چرا خېر خواهەت را نگرفتى؟ 2) آنها سە سال در يك فابرييکە كابيل ايماى وظيفە كردىند. 3) حيدر داراي يك پىرس و دو دختىر است. 4) او مەنتظر شام بود. 5) من مصروف ترجمە متن شدم. 6) اين مؤسسه از شهر نو بە مکورىيان نقل مكان كرد. 7) ما انتظار رخصىتى را داريم. 8) على شروع بە خواندىن كرد. 9) بىرادىرم عازم كىندهار شد. 10) ما انتظار اين جواب را نداشتىم. 11) لىلى داخل اتاق شد. 12) آنها نىم ساعت انتظار مرا كشىدىند.

7-mashq. Qo'shma fe'lning distant holatini qo'llab, gaplarni dariy tiliga tarjima qiling.

1) Sodiqning do'sti Jalolobodga jo'nab ketdi. 2) Mening buvim o'ttiz to'rt yil matabda ishlaganlar. 3) Latif stolga o'tirib, ishini boshladi. 4) Bizning oilamiz shaharning yangi tumaniga ko'chib o'tdi. 5) O'qituvchi auditoriyaga kirib keldi. 6) Zafarning qizi ikki yarim oy muqaddam matabga qabul qilindi. 7) Nimani kutayapsan? — Men mehmonlarning kelishini kutayapman. 8) Rauf yotoqxonaga borib, kursdoshlarini ko'rib keldi. 9) Biz uyga yaqinlashib qoldik. 10) Karim Farohga keldi-yu, ishga kirishib ketdi. 11) Ammamning qizining uchta farzandi bor.

Matn

سوانح

دактүр عبدالمنан Рхими ولد عبدالواهаб روز ۱۸ қос сал ۱۳۲۶ ш
дер ۋىلسالى پېشىر ولايت پروان متولد گردىد. پدر وى معلم مكتب بود و
غىر از عبدالمنان دو پسر و چهار دختى داشت.

عبدالمنان در سن هفت ساله گى به مكتب ابتدايى گلبهار شامل شد و
شروع بە تحصىل نمود. چون وى به سن ده ساله گى رسيد فاميل شان بە كابل
نقل مکان كرد و پدرش در يكى از مکاتب متوسطة شهر شامل كار شد.

عبدالمنان بە صنف چهارم لىسە استقلال شامل گردىد و بە تحصىلات
خود ادامە داد. وى در درسەھاى خود بىسیار موفق بود و در تمام مضمۇنین
نمرات خوبى داشت و بە اين نسبت ھمىشە «بىب رضايىت معلمىن و پدر خود
بود.

عبدالمنان در سال ۱۳۴۵ از لىسە فارغ شد و براى اشتراك در كاتكور
پوهنتون نېت نام كرد. وى در امتحان كاتكور موفق شد و مدت چهار سال در
پوهنخى علوم پوهنتون كابل تحصىل نمود.

عبدالمنان رحيمى بعد از فراغت پوهنتون بە خدمت عسکرى جلب گردىد
و پس از ترخيص در ماھ حمل سال ۱۲۵۲ در وزارت معادن و صنایع بە¹
حېیىت مأمور شامل كار شد. وى بە تارىخ ۳۰ مىزان سال ۱۳۵۳ با فۇزىيە بىنت
محمد اعظم ازدواج كرد و اكتون داراي دو دختر و يك پسر است. در سال
۱۳۵۴ پدر عبدالمنان تقاىعد نمود.

در بىرچ سىنئىلە سال ۱۳۵۵ ئاخ مطابق ماھ اگىست سال ۱۹۷۶م عبدالمنان
رحيمى بورس گىرفت و براى ادامە تحصىلات عالي عازم شهر كيف شد. وى
مدتى در فاكولتە آماده گى و مەتعاقباً طى پىنج سال در فاكولتە كىمياى پوهنتون

آن شهر تحصیل نمود. عبدالمنان در ماه جوزای سال ۱۳۶۱ مطابق ماه جون ۱۹۸۲ در سن سی و چهار ساله گی به گرفتن درجه دکترا موفق شد.
عبدالمنان بعد از بازگشت به وطن طی سه سال در یکی از مدیریت های وزارت زراعت ایفای وظیفه نمود. در ماه دلو سال ۱۳۶۰ پدر عبدالمنان وفات کرد.

عبدالمنان در سال ۱۳۶۴ به حیث رئیس یک مؤسسه بزرگ مریبوط وزارت انرژی برق مقرر شد. ولی در بهار سال ۱۳۷۱ به نسبت خرابی اوضاع افغانستان به مهاجرت مجبور گردید وارد کشور ازبکستان شد. اکنون داکتر عبدالمنان رحیمی و اعضای فامیل او دور از وطن در شهر تاشکند به حیث مهاجرین سکونت دارند و منتظر امکانات بازگشت به افغانستان هستند.

Matnga sharh

1. Kitobiy uslubda qo'shma fe'llar tarkibidagi *kardan* 'qilmoq' گردیدن – *namudan* fe'liga شدن *šodan* 'bo'lmoq', 'aylanmoq' – *gardidan* fe'liga almashtirilishi mumkin. Masalan:

تحصیل کردن *tahsil kardan* yoki

تحصیل نمودن *tahsil namudan* 'o'qimoq', 'tahsil olmoq'

متولد شدن *motawalled šodan* yoki

متولد گردیدن *motawalled gardidan* 'tug'ilmoq'

Lug'atlarda qo'shma fe'llar شدن va کردن fe'llari bilan beriladi.

2. Čun bog'lovchisi sabab ergash gap ('chunki', '...gani uchun')dan tashqari payt ergash gapni ('...vaqtida') bog'lash uchun ham xizmat qiladi, masalan:

چون من آدم احمد در خانه نبود

Čun man amadam Ahmad dar xâna nabud

'Men kelganimda, Ahmad uyda yo'q edi'

3. Son va *sâl* 'yil' so'zi birikmasiga -a affiksini qo'shish orqali sifat yasaladi, masalan:

بیست سال *bist sâl* '20 yosh' –

بیست ساله *bistsâla* '20 yashar'

Sifatdan esa -(g)i affksi orqali ot yasaladi:

بیست ساله گی *bistsâlagi* '20 yasharlik', '20 yillik'

Bu yasalma *senn* 'yosh' so'ziga aniqlovchi bo'lib kelishi mumkin, masalan:

در سن بیست ساله گی *dar senn-e bistsâlagi* '20 yoshida'

(aynan ‘20 yasharlik yoshida’)

4. yak ‘bir’ soni o‘zbek tilidagi ‘...dan biri’ kabi birikmada doim artikl bilan ishlataladi, masalan:

يکى از محصلان *yak-ê az mohasselân* ‘talabalardan biri’

من يكى از سىبها را خوردم *Man yak-ê az sêbhâ râ xordam*

‘Men olmalardan birini yedim’

5. Matnda quyidagi murakkab va izofali old ko‘makchilar ishtirok etadi:

غير از ... *...gayr az...* ‘...dan tashqari’

به حيث ... *...ba hays-e...* ‘...sifatida’

مدت ... *moddat-e..., tayy-e...* ‘...davomida’, ‘...mobaynida’

6. در موقق شدن *mowaffaq şodan fe’li* ‘Muvaffaqiyatga erishmoq’, به ba old ko‘makchisi bilan ‘muvallefatga erishmoq’, از az old ko‘makchisi bilan ‘muvaffaq bo‘lmoq’ ma’nosida ishlataladi, masalan:

او در کار خود موقق شد *U o‘z ishida muvaffaqiyat qozondi*

من به گرفن رخصتى موقق شدم *Men ta’til olishga muvaffaq bo‘ldim*

فارغ شدن *fâreg şodan ‘tamomlamoq (o ‘quv yurtini)’ fe’li* از az old ko‘makchisi bilan qo‘llaniladi, masalan:

يوسف از مكتب فارغ شد *Yusuf maktabni tamomladi*

مجبور شدن *majbur şodan ‘majbur bo‘lmoq’ fe’li* به old ko‘makchisi bilan qo‘llaniladi, masalan:

او به تقاعد مجبور گردد

‘U nafaqaga chiqishga majbur bo‘ldi’

(‘U nafaqaga chiqishiga to‘g‘ri keldi’)

ادامه دان *edâma dâdan ‘davom ettirmoq’ fe’li vositasiz va* به ba old ko‘makchili vositali to‘ldiruvchi kelishi mumkin, masalan:

{ محمود تحصيلات را ادامه داد } *Mahmud o‘qishini davom ettirdi*

{ محمود به تحصيلات ادامه داد }

ازدواج کردن *ezdewâj kardan ‘uylanmoq’, ‘turmushga chiqmoq’ fe’li* با bâ old ko‘makchisi bilan qo‘llaniladi, masalan:

من با بخترش ازدواج کردم *Men uning qiziga uylandim*

7. Matnda qayd qilingan atoqli otlar:

عبدالمنان رحيمى *‘Abd-o-Mannân Rahimi* ‘Abdulmannon Rahimiy’

عبدالوهاب *‘Abd-ol-Wahhâb* ‘Abdulvahhab’

فوزيه *Fawzeyya* ‘Favziya’

محمد اعظم *Mohammad A‘zam* ‘Muhammad A‘zam’

Rasmiy murojaatda otaning ismi ... ولد... *walad-e...* ‘...o‘g“li’ va ... بنت *bent-e...* ‘...qizi’ so‘zлari orqali beriladi.

8. Matnda keltirilgan joy va muassasa nomlari:

پنجشیر	<i>Panjšér</i>	Panjsher (Kobuldan shimoldagi daryo va uyezd)
پروان	<i>Parwán</i>	Parvon (Kobuldan shimalroqdagи viloyat)
گلبهҳар	<i>Golbahâr</i>	Golbahor (Parvon viloyatidagi aholi punkti)
کیف	<i>Kif</i>	‘Kiyev’

فاكولтет ساینس – پوهنځی علوم *pohanzay-e ‘olum* (ikkinchi nomi – پوهنځی *fakulta-ye sâyns*) ‘tabiiy fanlar fakulteti’. so‘zi pashtu tilidan o‘zlashgan, خ harfi dariy tilida z tarzida o‘qiladi.

وزارت معادن و صنایع	<i>wezârat-e ma‘âden wa sanâye‘</i> ‘Tog‘-kon va sanoat vazirligi
وزارت زراعت	<i>wezârat-e zerâ‘at</i> ‘Qishloq xo‘jaligi vazirligi’
وزارت انرژی برق	<i>wezârat-e enerži-ye barq</i> ‘Energetika vazirligi’

8-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling.

A. نمودن va گردین (fe’llaridan foydalanib):

1) Ular bu xabardan hayron qolishdi (از *old ko ‘makchisi*). 2) Avtobus bekatda to‘xtadi. 3) Kecha doktor Muhammad Ibrohim Vataniga ketdi. 4) U uch yil mobaynida institutda ishlagan. 5) Majlis ertalabki soat 11 da boshlandi. 6) Ali 1985- yilda tug‘ilgan.

B. 1) O‘n sakkiz yoshida u armiyaga chaqirildi. 2) Mening akam institutni yigirma uch yoshida tugatdi. 3) Men o‘n to‘qqiz yasharmen. 4) Ahmad o‘n besh yoshga to‘lganda, uning oilasi Gulbahorga ko‘chib o‘tishdi. 5) Karim muassasalardan biriga ishga kirdi. 6) Bugun men bizning guruhdagi talabalardan birontasini ham ko‘rmadim. 7) Muso Kobul maktabalaridan birida ishladi. 8) Bizdan tashqari avtobusda boshqa yo‘lovchilar yo‘q edi. 9) Mening jiyanim hamma fanlardan yaxshi o‘qidi (*aynan* muvaffaqiyatga erishadi). 10) Ular samolyotga chipta olishga muvaffaq bo‘lmadilar. 11) Sen nega kirish imtihonlaridan o‘tolmading? (kirish imtihonlarida muvaffaqiyatga erishmading)? 12) Rashid moliya vazirligida xodim sifatida ishni davom ettirdi. 13) Abdulmannon Parvon viloyatining uyezdlaridan birida tug‘ilgan. 14) Favziya institutni tugatgandan keyin kasalxonalardan biriga ishga kirdi. 15) Bobom oltmish yoshga yetganda nafaqaga chiqdi. 16) Demobilizatsiyadan so‘ng Mahmud o‘z

xolavachchasiga uylandi. 17) Men bir qancha vaqt zavodda ishladim, keyin esa institutga kirdim. 18) Abdulg‘afur vataniga qaytganidan so‘ng sanoat korxonalaridan biriga direktor etib tayinlandi. 19) U keksa kishi yetmish besh yoshida vafot etdi.

9-mashq. matniga savollar tuzing va ularga javob bering.

10-mashq. Savollarga javob bering:

- (1) Шما چанд сале ҳамаид? (2) Шма дар қадам сал и дар кяя мтولد шдид?
(3) Пэр и мадр шма چе وظیفه دارند? (4) Шма дар چند ساله گى شامل مكتب شدید؟ (5) شما дар مكتب چه نمراتى داشتید؟ (6) شما дар қадам سال از مكتب فارغ شدید؟ (7) شما بعد از فراغت مكتب در کجا کار کردید؟ (8) شما дار қадам سال به خدمت عسکرى جلب شدید؟ (9) شما چند سال به خدمت عسکرى مصروف بودید؟ (10) شما дار چند ساله گى از اردو ترخیص شدید؟
(11) شما چه وقت برای اشتراک در کانکور پوهنتون سبیت نام کردید؟ (12) آیا شما در امتحان کانکور پوهنتون موفق شدید؟ (13) آیا شما زن (شوهر) دارید؟ (14) شما چه وقت ازدواج کردید؟ (15) خلتم تان (شوهرتان) کجا وظیفه دارد؟ (16) آیا شما اولاد دارید؟ (17) اولادهای شما дар سال چند متولد شدند و اکنون چند ساله هستند؟

11-mashq. Dariy tilida o‘z tarjimai holingiz haqida aytib bering.

12-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

Nodir Karimov (Нодир Каримов) 1975-yil 3-martda Toshkent viloyatining shaharlaridan birida tug‘ildi. Uning otasi bir katta sanoat korxonasining xodimi, onasi esa maktab o‘qituvchisi edi. Nodirdan boshqa ularning bir o‘g‘il va ikki qizi bor. Yetti yoshligida Nodir boshlang‘ich maktabga bordi. Uning barcha fanlardan baholari yaxshi edi (yaxshi baholari bo‘lgan) va o‘qituvchilar undan xursand bo‘lishgan. Nodir o‘n yoshga to‘lganida, uning otasi boshqa vazifaga tayinlandi va ularning oilasi Toshkent shahriga ko‘chib o‘tdi. O‘rtta maktabni tugatgandan keyin Nodir Toshkentdagи korxonalaridan biriga ishchi bo‘lib ishga kirdi, keyin esa harbiy xizmatga chaqirildi.

Nodir Karimov armiyada (*ayman* harbiy xizmatda) ikki yil xizmat qildi. Demobilizatsiyadan keyin u O‘zMUning iqtisod fakultetiga hujjalariini topshirdi. U kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tdi va universitetda o‘qishni boshladi. Nodir to‘rtinchи kurs talabasi bo‘lganida kursdosh qizlaridan biriga uylandi. Hozir ularning ikki nafar farzandi bor. Iqtisod

fakultetini tugatganidan keyin Nodir Karimov ta'limni davom ettirdi va uch yildan keyin doktorlik darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Hozir u Toshkentdagi institutlardan birida o'qituvchi bo'lib ishlamoqda.

Lug'at

ابتدائي ebtedâyi	boshlang'ich	شامل šâmel	kirish, kiritilish
ادامه edâma	davom ettirish	عازم شدن 'âzem šodan	jo'namoq, ketmoq
ادامه دادن edâma dâdan	davom ettirmoq	علی 'âli	oliy
اردو ordu	armiya	عضو 'ozw (اعضا) (a'zâ)	a'zo
ازدواج ezdewâj	turmush qurish, nikoh	فارغ شدن fâreg šodan	ozod bo'lmoq (<i>biror narsadan</i>); tugatmoq (<i>o'quv yurtini</i>)
ازدواج ezdewâj	turmush	فراغت farâğat	bo'sh vaqt;
کردن kardan	qurmoq	bitirish	(<i>o'quv yurtini</i>)
اکنون aknun	hozir	کانкур kânkur	konkurs
آمده‌گی âmâdagî	tayyorgarlik	کیمیا kimyâ	kimyo
امتحان emtehân(ât)	imtihon	گردین gardidan	bo'lmoq (<i>qo'shma fe'l tarkibida</i>)
(ات)			
امکان emkân	imkon	متعاقبا mota 'âqeban	
(ات)		keyin, so'ngra	
انرژی enerži	energetika	متوسط motawassetâ	
		o'rta (mas., maktab)	
ایفای وظیفه ifâ-ye wazifa		متولد شدن motawalled šodan	
vazifani bajarish		tug'ilmoq	
بازگشت bâzgašt	qaytish	مجبور majbur	majbur
برج borj burj; oy (afg'on kalendarida)		مدت moddat	muddat
بنت bent-e	qizi	مدیریت modireyyat	
		mudiriyyat	
بورس bôrs	o'qishga yo'llanma	مریوط marbut	...ga oid
پوهنخى pôhanzay	fakultet; institut	مضامون (مضامين) mazmun (mazâmin)	fan (<i>o'quv</i>)

تاریخ	<i>ta'rix, târix</i>	tarix; sana	مطابق	<i>motâbeq</i>	... ga
تاریخ				<i>to'g'ri (mos)</i>	keluvchi
تحصیل	<i>tahsil</i>	<i>o'qish</i>	معدن	<i>ma'dan (ma'âdan)</i>	
			(معدن)	<i>kon</i>	
تறیخیص	<i>tarxis</i>		مقرر	<i>moqarrar</i>	tayinlangan
				<i>(lavozimga)</i>	
demobilizatsiya			منتظر	<i>montazer</i>	
تقاعد	<i>taqâ'od</i>	<i>nafaqa</i>		<i>muntazir, kutayotgan</i>	
تقاعد	<i>taqâ'od kardan</i>		مهاجر	<i>mohâjer(ân, in)</i>	
کردن	<i>nafaqaga chiqmoq</i>		(ان، ين)	<i>muhojir</i>	
ثبت نام	<i>sabt-e nâm</i>		مهاجرت	<i>mohajerat</i>	
	<i>ro'yxatdan o'tmoq</i>			<i>emigratsiya</i>	
جلب	<i>jalb chaqiruv, jalb qilish</i>		موفق	<i>mowaffaq</i>	muvaaffaq
جلب	<i>jalb kardan</i>		نقل مكان	<i>naql-e makon</i>	
کردن	<i>chaqirmaq</i>			<i>ko'chib o'tish</i>	
خبر	<i>xabar gereftan</i>		نمودن	<i>namudan</i>	<i>qilmoq</i>
گرفتن	<i>xabar olmoq</i>			<i>(go'shmafe'l tarkibida)</i>	
دارا	<i>dârâ (... -ga) ega</i>		وارد	<i>wâred</i>	<i>kirish</i>
دكترا	<i>doktorâ</i>		وفات	<i>wafât</i>	<i>vafot</i>
رضایت	<i>rezâyat</i>	<i>rozilik</i>			
روبل،	<i>rubl, robl rubl</i>		وفات	<i>wafât kardan</i>	
ریبل				<i>vafot etmoq</i>	
رئيس	<i>ra'is</i>	<i>direktor, boshliq</i>			
(روس)			ولد	<i>walad-e</i>	<i>o'g'li</i>
	<i>zerâ'at</i>	<i>dehqonchilik,</i>	ولسوالی	<i>woloswâli</i>	<i>uyezd</i>
		<i>qishloq xo'jaligi</i>			
سوانح	<i>sawâneh</i>	<i>tarjimai hol</i>	هیشة	<i>hamêşa</i>	<i>har doim</i>

O'N TO'QQIZINCHI DARS

درس نزدہم

O'tgan zamon davom fe'li (imperfekt)
فعل ماضی استمراری *fe'l-e māzi-ye estemrāri*

Bu fe'l harakatdan anglashilgan mazmunning o'tgan zamonda takrorlanganligini, davom etganligini ifodalaydi.

هر روز *har rōz* ‘har kuni’, *hamēša* ‘har doim’, *aksaran* ‘ko'pincha’, عادتاً *'adatan* ‘odatda’, گاهی *gāh-e* va بعضی اوقات *bā'zē awqāt* ‘ba'zan’ va shu kabi payt hollari ishlatiladi.

Sodda fe'llarning o'tgan zamon davom fe'li shaklida tuslanishi

O'tgan zamon davom fe'li o'tgan zamon fe'l negiziga مى *mē*- old qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi (III shaxs birlikda shaxs-son qo'shimchalari qo'shilmaydi).

O'tgan zamon davom fe'lida asosiy kuchli urg'u مى *mē*- old qo'shimchasiga va ikkinchi kuchsizroq urg'u shaxs-son qo'shimchalariga tushadi, masalan:

Birlik

من میخوانдим	yoki	من می خوانдим	<i>man</i>	‘men o'qir edim’
--------------	------	---------------	------------	------------------

تو میخوانдی	yoki	تو می خواندی	<i>mēxāndam</i>	‘sen o'qir eding’
-------------	------	--------------	-----------------	-------------------

او میخوانд	yoki	او می خواند	<i>tu mēxāndi</i>	‘u o'qir edi’
------------	------	-------------	-------------------	---------------

Ko'plik

ما میخوانдим	yoki	ما می خوانдим	<i>mā</i>	‘biz o'qir edik’
--------------	------	---------------	-----------	------------------

шما میخوانдид	yoki	شما می خوانдид	<i>mēxāndēm</i>	‘siz o'qir edingiz’
---------------	------	----------------	-----------------	---------------------

анда міхуанданд	yoki	آنها می خوانданд	<i>šomā</i>	‘ular o'qir edilar’
-----------------	------	------------------	-------------	---------------------

<i>mēxāndēd</i>	<i>ānhā</i>	<i>mēxāndand</i>
-----------------	-------------	------------------

Agar fe'l negizi unli tovush bilan boshlansa, مى *mē*- old qo'shimchasi va fe'l negizi o'rtafiga undosh ortirilmaydi, masalan: *šomā mēxāndēd* ‘siz kelar edingiz’, *man mēxāndāxtam* ‘men tashlar edim’

Agar fe'l negizi cho'ziq ñ unlisi bilan boshlansa, مى *mē*- old qo'shimchasini ajratib yozish, qolgan unlilarda qo'shib yozish tavsiya qilinadi:

می آمدید yoki میآمدید *méâmadêd*
 میانداختم yoki می انداختم *méandâxtam*

O'tgan zamon davom fe'liga bo'lishli shaklda maxsus urg'u
 tushmasligi ham mumkin, masalan:

‘Anhā ketāb mēxāndand
‘Ular kitob o‘qir edilar’

O'tgan zamон davом fe'lining bo'lishsiz shakli **me-** old
qo'shimchasi oldiga **na-** inkor yuklamasini orttirish orqali yasaladi.
Bunda kuchli urg'u **na-** inkor yuklamasiga ko'chadi, masalan:

من نمیرقم	yoki	من نمی رفتم	<i>man náméraftám</i>	'men bormas edim'
تو نمیرفتی	yoki	تو نمی رفتی	<i>tu náméraftí</i>	'sen bormas eding'
او نمیرفت	yoki	او نمی رفت	<i>ô náméraftí</i>	'u bormas edi'
ما نمیرفتیم	yoki	ما نمی رفتیم	<i>mâ náméraftém</i>	'biz bormas edik'
شما نمیرفتید	yoki	شما نمی رفتید	<i>şomâ náméraftéd</i>	'siz bormas edingiz'
آنها نمیرفتند	yoki	آنها نمی رفتند	<i>ânhâ náméraftând</i>	'ular bormas edilar'

1-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

- ۱) من میرفتم. ۲) من می نشستم. ۳) من کتاب می خواندم. ۴) من به خانه می آمدم. ۵) من سنگ می انداختم. ۶) من قلم نمی آوردم. ۷) من نمی فهمیدم. ۸) من بالاپوش نمی بیوشیدم. ۹) من خط نمی نوشتیم.

Qo'shma fe'llarning o'tgan zamон davом fe'li shaklida tuslanishi

Qo'shma fe'llarda **me-** old qo'shimchasi fe'l komponentiga qo'shiladi, masalan:

من کار میکردم *Man kâr mëkardam* ‘Men ishlar edim’

Nabi jawâb namêdâd ‘Nabi javob bermas edi’

Bo‘lishli shaklda fe'l komponenti mantiqiy urg‘u olishi mumkin, qiyoslang:

‘Biz radio eshitar edik’ ماراديو گوش میکرلەيم

Mâ | rádyô gôš mêtardêm (kesim mantiqiy urg'u bilan ajratilmagan)

Mâ | râdyô | gôš mëkardêm } (kesim mantiqiy urg'u bilan
 Mâ | râdyô | gôš | mëkardêm } ajratilgan)

Bo'lishsiz shaklda urg'u fe'l komponentiga tushadi, masalan:

О xabár-e ma-râ námégerest

'U mendan xabar olmas edi'

2-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

- (1) من کار میکردم. (2) من تحصیل میکردم. (3) من در باغ قدم میزدم.
(4) من در حوض آب بازی میکردم. (5) من شامل کار میشدم. (6) من سپورت نمیکردم. (7) من خط روان نمیکردم. (8) من داخل اتاق نمیشدم. (9) من با هیچ کس حرف نمیزدم. (10) من خبر منان را نمیگرفتم.

3-mashq. O'qing va tarjima qiling:

- (1) ما هر روز به کتابخانه میرفیم و در آنجا مطالعه میکریم. (2) کریم به من تیلفون میکرد و به زبان دری حرف میزد. (3) سرویس در هر ایستگاه توقف میکرد و بعد دوباره حرکت میکرد. (4) ما هر سال روز تولد برادرم را جشن میگرفتیم. (5) داؤد به ما هیچ وقت دروغ نمیگفت. (6) آنها بالاپوش میکشیدند و به اتاق داخل میشدند. (7) من گپ آن مرد را می فهمیدم. (8) اشعار آن شاعر خوش شان نمی آمد. (9) چون داخل خانه میشیم پهلوی بخاری می نشستیم و خود را گرم میکریم.

4-mashq. Qavs ichidagi fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li shaklida tegishli shaxs-sonda qo'yib, gaplarni ko'chiring:

- (1) شما هر روز کجا (درس خواندن)؟ (2) ظفر هر صبح برادر کوچکتر خود را به کونکستان (بردن). (3) زلمی و دوستانش هر روز جمعه (میله کردن). (4) ما از صبح تا شام در فالیز (کار کردن). (5) آنها هر ماه از رفیق خود خط (گرفتن) و (خوش شدن). (6) چون شما (گپ زدن) من گپ تان را (فهمیدن). (7) موسی هر صبح به من (سلام دادن) و من به او (جواب دادن). (8) حسن هیچ وقت سگرت (- کشیدن) و به این نسبت (مریض شدن). (9) آنها هر روز کثار دریا (رفتن) و (سپورت کردن). (10) تو ساعت هفت دیشب چه (کردن)? - من در کوچه (هواخوری کردن).

5-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Bizning universtitetdagı darslarımız odatda kunduzgi soat 2 da tugar edi. 2) O'qituvchi dariy tilidagi matnni o'qirdi, talabalar esa uni tarjima qilardilar. 3) Biz har kuni ishdan keyin kinoga borardik va bog'da sayr qilardik. 4) Zalmaynikiga ba'zida o'rtoqlari kelar edilar va ular birgalikda dars qilishardi. 5) O'qituvchi auditoriyaga kirganda dars boshlanar edi. 6) Yozda biz odatda har kuni daryoda cho'millardik. 7) Sen Vahobga nimadir aytar eding, ammo u eshitmasdi. 8) Ular har kuni ertalab badantarbiya qilardilar (aynan sport bilan shug'ullanardilar). 9) Dam olish kunlari biz ba'zida shahar tashqarisiga chiqardik va tabiat qo'ynida dam olardik. 10) Men bu jumlalarni tarjima qilishning

uddasidan chiqolmasdim (*aynan* muvaffaq bo'lmash edim). 11) Siz har kuni bozordan yangi mevalar sotib olar (edingiz) va ularni uyga olib kelar edingiz. 12) Rahim paltoni kiyib, sumkani olib, institutga ketardi. 13) Ular dam olishar (edilar) va ish haqida o'yamas edilar. 14) O'rtoqlarimizdan birortasi kasal bo'lib qolganda, biz uni ko'rgani borardik. 15) U har kuni ertalabdan kechgacha ishlardi. 16) Qishda sovuq bo'lganda men pechka oldida o'tirar (edim) va isinar edim.

Prefiksli fe'llarning o'tgan zamon davom fe'lida shaklida tuslanishi

O'tgan zamon davom fe'lida prefiksli fe'llarning fe'l qismi tuslanadi. Bo'lishli shaklda urg'u prefiksga tushadi, masalan:

من برمىگشتمن	<i>man bármégaštäm</i>	'men qaytar edim'
تو برمىگشتى	<i>tu bármégaštì</i>	'sen qaytar eding'
او برمىگشت	<i>ô bármégašt</i>	'u qaytar edi'
ما برمىگشتим	<i>má bármégaštém</i>	'biz qaytar edik'
шما برمىگشتид	<i>šomâ bármégaštèd</i>	'siz qaytar edingiz'
аньха برمىگشتтанд	<i>ânhâ bármégaštànd</i>	'ular qaytar edilar'

Prefiksdan ajralmaydigan fe'llar guruhida *mē-* old qo'shimchasi prefiksdan oldin qo'yiladi va urg'u qabul qiladi. Biroq kitobiy tilda *mē-* old qo'shimchasi prefiksdan keyin kelishi mumkin. Masalan:

من мибир Амдем	<i>man mébarâmadàm</i>	} 'men chiqar edim'
من брми Амдем	<i>man bárméâmadàm (kitob.)</i>	
то мибир Амди	<i>tu mébarâmadî</i>	} 'sen chiqar eding'
то брми Амди	<i>tu bárméâmadî (kitob.)</i>	
о мибир Амд	<i>ô mébarâmad</i>	} 'u chiqar edi'
о брми Амд	<i>ô bárméâmad (kitob.)</i>	
ма мибир Амдим	<i>má mébarâmadém</i>	} 'biz chiqar edik'
ма брми Амдим	<i>má bárméâmadém (kitob.)</i>	
шма мибир Амдид	<i>šomâ mébarâmadèd</i>	} 'siz chiqar edingiz'
шма брми Амдид	<i>šomâ bárméâmadèd (kitob.)</i>	
аньха мибир Амданд	<i>ânhâ mébarâmadànd</i>	} 'ular chiqar edilar'
аньха брми Амданд	<i>ânhâ bárméâmadànd (kit.)</i>	

Bo'lishsiz shaklda *na-* inkor yuklamasi *mē-* old qo'shimchasidan oldin qo'yiladi va urg'u *na-* inkor yuklamasiga tushadi. Agar inkor yuklamasi oldidan prefiks kelsa, urg'u ikkita bo'ladi: bosh urg'u inkor yuklamasiga, ikkinchi darajali urg'u prefiksga tushadi. Masalan:

من نمیدرآمد *man námédarámadám* } ‘men kirmas edim’
 من درنی آمد *man dàrnámémadám (kit.)* } ‘men kirmas edim’
 شما بىرنى خاستىد *şomd bárnáméxásted* ‘siz turmas edingiz’

O’tgan zamon davom fe’li ish-harakatning a) ma’lum paytda boshlanib, ma’lum paytgacha davom etganligini; b) takroran, ya’ni bir necha marta takrorlanganligini; d) bir vaqtning o’zida ikki ish-harakat haqida gap ketsa, biri ikkinchisidan oldinroq boshlanganligini bildiradi. Masalan:

من تمام روز کار مى کردم *Man tamám-e rôz kár mékardam*
 ‘Men kun bo‘yi ishlardim’

هفتے اى سه بار به کتابخانه مى رفتم

Haftá-yé se bár ba ketâbxâna meraftam
 ‘Haftada uch marta kutubxonaga borardim’

وقتى تو آمدى، برادرم درس مى خواند

Waqté tu ámadi, berâdaram dars mëxând

‘Sen kelgan paytingda, akam dars tayyorlardi (tayyorlayotgan edi)’

6-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

۱) من به اتاق میدرآمد. ۲) من از خواب يرمى خواستم. ۳) من ساعت پنج عصر به خانه بىرىمى گشتيم. ۴) من از اپارتىمان نمیدرآمد. ۵) من با كسى بىرنى خوردم.

7-mashq. Qavs ichida berilgan fe’llarni o’tgan zamon davom fe’li shaklida yozing.

۱) ما ساعت هشت و نىم از ليلىه (برآمدن). ۲) فلروق هر صبح ساعت هفت از خواب (برخواستن). ۳) گوگرد هېچ (درگرفتن). ۴) من اكثراً در كوچه با آن مرد (برخوردن). ۵) آنها هرگز به آن اتاق (در آمدن). ۶) شما هر شام ساعت چند به خانه (برگشتن)? ۷) معلم عالىدا ساعت نه و نىم به صحف (درآمدن). ۸) هېچ كىس آن قلم را از زمين (برداشتن). ۹) هوا سرد بود اما تو بخارى را (دردانن). ۱۰) ناوقت بود اما على از چوکى (برخاستن).

8-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

1) Men har kuni Yusuf bilan institutda uchrashardim. 2) Ular hech qachon soat 9 dan oldin uyqudan turmasdilar. 3) Biz ba’zan xonadan chiqardik va sigaret chekardik (tutatardik). 4) Soat 9.30 da talabalar auditoriyaga kirardilar. 5) Sen har kuni uyga kechki soat 6 da qaytarding. 6) O’tinlar ho’l (ئىن) edi va shu sababli yonmasdi. 7) Kitoblar yerda yotardi, lekin ularni hech kim olib qo’ymasdi. 8) Men uning xonasiga hech qachon kirmas edim.

من هر روز... صبح matnini o'tgan zamon davom fe'lida, so'zлari bilan boshlab gapirib bering.

10-mashq. O'tgan zamon fe'l shakllarining qo'llanish holatlarini tushuntiring:

(1) ما اين фіلم ра се бар дидим. (2) Шما дар شهر زиад گестид! (3) من گپ او را نشنیدم. (4) ما ھم بے سینما میرғем и ھم بے تیатр. (5) Млади ھер چе گفت من باور نکردم. (6) تو دироз يچжал خود را جور میکردى. (7) Шма ساعت دوازده کجا بودید؟ (8) او ھر روز کلاھ قره قلى بے سر میداشت. (9) وقتى که ما نان میخورдیم خواھرم از کابل تیلغون کرد. (10) آنها دیروز بھ خانه علی نرفتند. (11) ما در آن وقت پروگرام تلویزیون را تماشا میکردیم. (12) پروین دو دقیقه فکر کرد و بعد از آن جواب داد.

11-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li yoki aniq o'tgan zamon fe'lida yozing.

(1) ما دیروز هشت ساعت (درمن خواندن). (2) او ھر چه (گفتن) من حرفش را (– فهمیدن). (3) روز یکشنبه من تمام روز در خانه (بودن). (4) احمد آن متن را چهار دفعه (خواندن). (5) این محصل همیشه نمرات عالی (گرفتن). (6) آنها هر صبح (سپورت کردن). (7) ما تقریباً پانزده دقیقه (تفريح کردن) و بعد دو باره به کار (شروع کردن). (8) من از او هیچ سوالی (– کردن). (9) او ھر چه دوا (خوردن) حالش بهتر (– شدن). (10) شما چند دفعه خبر خالله خود را (گرفتن)?

12-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Qo'ng'iroqdan so'ng talabalar auditoriyadan chiqdilar.
- 2) Men har kuni ertalab soat yettida uyg'onardim. 3) U (o'z) o'g'lidan xat olganida, juda xursand bo'lardi. 4) Biz seni ikki soat kutdik, lekin sen kelmadning. 5) O'tgan yili men institutda o'qimas edim. 6) Siz telefonda yarim soat gaplashdingiz. 7) Men bu she'rlarni o'qimadim. 8) Kechki soat sakkizda bizning tanishlarimiz radio tinglardilar. 9) Sen bugun Layloni universitetda ko'rningmi? – Yo'q, men uni ko'rmadim. 10) Ular o'sha odamni ko'rganlarida, u sigaret va gugurt sotib olayotgan edi. 11) Ob-havo yaxshi bo'lganda, biz sayr uyushtirar edik. 12) Siz kecha kunduzi soat birda nima qildingiz? – Kecha biz kunduzi soat birda darsda edik. 13) Ular 15 daqiqa hoyuzda cho'milishdi. 14) Biz Rahimga bir necha bor qo'ng'iroq qildik, lekin hech kim javob bermadi. 15) Men uydan chiqqan paytimda, ko'chada hech kim yo'q edi. 16) Darsda biz har doim dariy tilida gaplashar edik. 17) Biz yo'lida ketardik (va ketardik), lekin shahar hali uzoq edi. 18) U har doim jigarrang

kostyum va oq ko'yakda bo'lardi. 19) Biz har nima qilsak ham, o'sha tog'ga chiqishga muvaffaq bo'lmadik. 20) Men bog'da aylanib yurgan paytimda, yong'ir boshlandi. 21) Avtobus necha marta to'xtadi? 22) O'tgan haftada ular hech qayerga borishmadni. 23) Bizning darslarimiz ertalab soat to'qqiz yarimda boshlanardi va kunduzi soat ikkida tugar edi. 24) Ular buterbrod yeishdi va meva sharbatini ichishdi. 25) Har kuni ertalabki sakkiz yarimda men avtobusga o'tirardim va ishga ketardim.

Ko'chirma va o'zlashtirma gap

Dariy tilida ko'chirma gap ham, o'zlashtirma gap ham **кеке** ke bog'lovchisi orqali bog'lanishi mumkin. **кеке** ke bog'lovchisi urg'u qabul qilmaydi va o'zidan oldingi yoki keyingi so'z bilan birgalikda talaffuz qilinadi. Ko'chirma gapdan oldin **кеке** ke bog'lovchisi tushib qolishi mumkin. Masalan:

مامور از من پرسید که اسم من چیست؟

'Xodim mendan ismim nimaligini so'radi' (*o'zlashtirma gap*)

مامور از من پرسید (که) اسمت چیست؟

'Xodim mendan so'radi: "Isming nima?"' (*ko'chirma gap*)

Eslatma. Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining ishlab chiqilmagani, ham ko'chirma, ham o'zlashtirma gap uchun **кеке** ke bog'lovchisining ishlatalishi mumkinligi ba'zan bunday gaplarni tarjima qilishda anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi, masalan:

‘Nabi’ نبی به من گفت که تو ناجور هستی ‘Nabi menga dedi: “Sen kasalsan”’

yoki ‘Nabi menga sen kasal (ekan)ligingni aytdi’.

Dariy tilida o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga to'g'ri keladi. Ergash gapdag'i fe'lning zamon turi bosh gapda ko'rsatilgan nutq paytiga ko'ra belgilanadi. Masalan:

احمد گفت که برادرش وقت ندارد

'Ahmad akasining vaqt yo'qligini aytdi' (*nutq paytida*)

احمد گفت که برادرش وقت نداشت

'Ahmad akasining vaqt bo'limganini aytdi' (*nutq paytidan avval*)

Agar bosh va ergash gapning egasi bitta shaxs bo'lsa, ega birinchi vaziyatda ko'rsatilib, ikkinchisida tushib qoladi, masalan:

‘Кариме گفت کе кар Ндард’

Agar o'zlashtirma gapda savol bo'lsa, gapda so'z tartibi so'roq gap shaklida bo'ladi, masalan:

ماهرم پرسید کе ما کجا بودیم؟

'Onam biz qayerda bo'lganimizni so'radi'

13-mashq. Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring va tarjima qiling:

1) اسحق بे من گفت: امروز ھوا خراب است. 2) آنها بے ما گفتند: ما دیروز میله داشتیم. 3) شما از من پرسیدید: سن تو چند است؟ 4) من از فاروق پرسیدم: در گلبهار چه کردی؟ 5) من به آنها گفتم: من تب دارم. 6) تو به آن مأمور جواب دادی: من از کابل هستم. 7) رحیم به معلم گفت: من دیروز کمی مريض بودم. 8) ما از غفور پرسیدیم: چرا بیکار هستی؟ 9) فریده از من پرسید: برادرم کجاست؟ 10) من از دوست پرسیدم: چه آوردی؟ او گفت: هیچ چیزی نیاوردم. 11) شما از من پرسیدید: کارهای تو چطور است؟ من جواب دادم: کارهایم بد توبه‌ت. 12) من از وهاب پرسیدم: صحبت شما خوب است؟ او گفت: صحبت کاملاً خوب است. 13) معلم از من پرسیدیم: امروز چند نفر غیر حاضر هستند؟ من جواب دادم: امروز تمام محصلین حاضر هستند.

14-mashq. Dars oxiridagi lug‘atdan foydalananib, qo‘shma fe’llarning ma’nolarini aniqlang:

اشتباه کردن، تکرار کردن، تشريح کردن، سوال کردن، اصلاح کردن، کمک کردن، تصحیح کردن، خبر داشتن، آمده شدن، صحبت کردن.

Matn

درس

امروز گروپ ما درس زیان دری داشت. پس از زنگ معلم ما به صنف درآمد. همه ما از چوکوهای پرخاستیم و معلم به ما سلام داد. بعدها ما دوباره به چوکی نشستیم و برای درس آمده شدیم.

معلم از ما پرسید که آیا امروز همه حاضر هستند؟ ما جواب دادیم که یک نفر غیر حاضر است. معلم علت آن را پرسید و ما در جواب گفتیم که آن محصل کمی مريض است. معلم پرسید که او چه مريضی دارد؟ ما گفتیم که به گمان ما آن محصل گریپ دارد.

بعد از آن درس شروع شد. اول ما کار خانه گی را تصحیح کردیم. ما به نوبت ترجمه های خود را میخواندیم. چون یک نفر میخواند دیگران گوش میگردند و غلطی میگرفتند.

بعد ما متن دری را خواندیم و به زیان ازبیکی ترجمه کردیم. اگر ما در خواندن و ترجمه اشتباه میکردیم معلم غلطی های ما را اصلاح میکرد. وقتی که تصحیح کار خانه گی تمام شد معلم به هر یکی از مانمره داد. چون تمام محصلین گروپ برای درس آمده بودند همه چهار یا پنج نمره گرفتند.

بعد از آن معلم برای ما یک قاعده نو گرامری را تشریح کرد. چون آن قاعده نهایتاً مشکل بود بعضی محصلان آن را نفهمیدند و از معلم تشریفات بیشتری خواستند. معلم یک بار دیگر تشریح قاعده را تکرار کرد و این بار همه ما آن را فهمیدیم.

بعداً مجملات ازبیکی را به زبان دری ترجمه کردیم. یکی از محصلان پیش تخته سیاه می آمد و ترجمة یک جمله را روی آن می نوشت. در آن وقت دیگران همان جمله را در کتابچه های خود ترجمه میکردند. وقتی که ترجمة آن جمله تمام میشد معلم از ما می پرسید که آیا ترجمة روی تخته درست است یا غلط؟ ما نظر خود را میگفتیم و اگر ترجمه به نظر ما صحیح نمیبود آن را به کمک معلم اصلاح میکردیم. بعد از آن محصل به چوکی خود مینشست و به جای او محصل دیگری پیش تخته سیاه می آمد.

وقتی که ما تمام مجملات را ترجمه کردیم معلم چند دقیقه با ما به زبان دری صحبت کرد. او از مسائلهای مختلف میکرد و ما به سوالهایش جواب میدادیم. معلم از جوابهای همه ما راضی بود. در ختم درس معلم به ما کار خانه گی داد، با ما خداحافظی کرد و از صنف برآمد. درس ما تمام شد.

Matnga sharh

1. بامان خدا va خداحافظ ‘سلام علیکم’ assalomu alaykum ‘xayr’ so‘zlariga -i (yá-ye masdari)ni qo‘sish orqali mavhum ot yasaladi va yasalmalar qo‘shma fe‘lning ot qismi tarkibida keladi:

سلام علیکی کردن	salâm ‘aléki kardan	‘salomlashmoq’
خداحافظی کردن	xodâhâfezi kardan	‘xayrlashmoq’
بامان خدایی کردن	baamânexodâyi kardan	

Shuningdek, غلطی گرفتن galati gereftan o‘zbek tiliga ‘xato(si)ni to‘g‘rilamoq’ deb tarjima qilinadi.

2. هر har ‘har’ belgilash olmoshi gapda aniqlovchi vazifasida keladi va doimo aniqlanmishdan oldin qo‘yiladi; هر har umuman izofa qabul qilmaydi. Masalan: هر شهر har şahr ‘har shahar’, هر روز har rôz ‘har kun/i’, هر محصل فلکولته har mohassel-e fâkulta ‘fakultetning har bir talabasi’.

هر har ‘har’ so‘zi orqali yasama olmoshlar hosil qilish mumkin: هر har ‘har kim’, هر کدام har kodâm ‘har kim’, ‘har qaysi’, هر چیز har čiz ‘har narsa’. Bu so‘zlar otlar o‘rnida qo‘llana oladi, shuning uchun old va ort ko‘makchilarни qabul qiladi. Masalan:

هر کس خبر دارد که کابل پایتخت افغانستان است

'Hamma (har inson) Kobul Afg'onistonning poytaxti ekanligini biladi' تعلم محصلان در صنف بوند. هر کدام برای درس آماده بود

'Hamma talabalar auditoriyada edilar. Har biri darsga tayyor edi'

هر يك har yak va هر kodam olmoshi odamlar jamoasini bildiruvchi aniqlovchi bilan kelishi mumkin, masalan:

هر يكى از اين محصلان 'bu talabalarning har biri'

هر کدام تان 'sizning har qaysingiz'

3. نمره nomra 'baho' (o'quv yurtida) so'zi matnda quyidagi fe'llar tarkibida kelgan:

نمره دаден 'baholamoq', 'baho (ball) qo'yemoq'

نمره گرفتن 'baho olmoq'

Konkret baholanganda, نمره 'baho' so'zi 'ball' ga to'g'ri keladi, masalan:

ده نمره 'o'n ball' (10 ballik sistemada)

پنج نمره 'besh baho', 'besh ball'

چند نمره? 'necha baho?', 'necha ball?'

من نمره زياد گرفتم 'Men yuqori baho (ball) oldim'

沐ム نمره كم داد 'O'qituvchi past baho (ball) qo'ydi'

4. ham- prefiksiga آن اين in va آن ko'rsatish olmoshlarini qo'shish orqali yasama ko'rsatish olmoshlari hosil qilinadi: همین hamin 'mana bu', 'mana shu', همان hamân 'anavi', 'o'sha'. Bunday hollarda ham- prefaksi in va آن olmoshlarini ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

5. Matnda keltirilgan ba old ko'makchili birikmalar:

به نوبت ba nawbat 'navbat bilan'

به گمان... ba gomân-e '...fikricha', 'taxminicha'

به نظر... ba nazar-e '...nazarida'

به کمک... ba komak-e '...yordamida'

به جای... bajâ-ye '...o'mida'

Misollar:

به نظرم اين غلط است 'Nazаримда, бу – xato'

به جای او شما мэрр Shид 'Uning o'miga siz tayinlandingiz'

6. xâstan 'so'ramoq' (iltimos yoki talab bilan murojaat) va porsidan 'so'ramoq' (savol bilan murojaat) fe'llarini farqlang:

من از لطيف قلم خواستم 'Men Latifdan ruchka so'radim'

‘Men Latifdan so‘radim: “Qayerda eding?” من از لطيف پرسىدم: كجا بودى؟’

15-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Ular ham o‘sha yerda yashaydilar.
- 2) Sen Ibrohim bilan so‘rashdingmi?
- 3) Siz necha baho oldingiz? – Afsuski, men uch baho oldim.
- 4) O‘qituvchi menga past baho qo‘ydi.
- 5) Biz do‘stlarimiz bilan xayrashdik va ketdik.
- 6) Seningcha, bu tarjima to‘g‘rimi? – Yo‘q, menimcha bu tarjima no-to‘g‘ri.
- 7) Talabalar doskaga navbat bilan chiqdilar.
- 8) Biz do‘konda bu odamni ko‘rdik.
- 9) Bu odamlar – o‘sha qishloqning dehqonlari va har birining oilasi bor.
- 10) Men akamning yordami bilan do‘kondan muzlatgich olib keldim.
- 11) Rauf mendan qalam so‘radi.
- 12) Bu talabalarning har biri yotoqxonada yashaydi.
- 13) Ular ba‘zida undan yordam so‘rar edilar.
- 14) Men matnni o‘qidim, Rahim esa meni to‘g‘riladi.

16-mashq.

- A. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini bering:

علت، آمаде، اشتباہ، سوال گردن، تصحیح.

- B. Quyidagi so‘zlarning antonimlarini bering:

ختم، سوال، درست، آسان، غیر حاضر.

17-mashq. matniga savollar tuzing va ularga javob bering.

18-mashq. Dariy tilida o‘tgan dars haqida hikoya tuzing.

19-mashq. Dariy tiliga tarjima qiling:

- 1) Men o‘z do‘stimdan dariy tilidan necha baho olganini so‘radim. Mening do‘stim besh olganini aytdi.
- 2) O‘qituvchi mendan bugun Ibrohim nega yo‘qligini so‘radi. Men bugun uning biroz tobi yo‘qligini aytdim.
- 3) Guruhning hamma talabalari darsga tayyor bo‘lganlari uchun o‘qituvchi hammaga yaxshi baho qo‘ydi.
- 4) Sen bilmaysanmi, Mannon qanday kasal? - Mannon gripp bo‘ldi, lekin isitmasi yo‘q.
- 5) Dariy tili darsida biz uy vazifalarini tekshirdik va o‘z xatolarimizni to‘g‘riladik. Keyin o‘qituvchi bizga yangi grammatik qoidani tushuntirdi va deyarli barchamiz uni (qoidani) tushundik. Bizdan faqat bittasi qoidani tushunmadi va o‘qituvchi qaytadan tushuntirdi.
- 6) O‘qituvchi bizning fikrimizni so‘raganda, nazarmizda, bu tarjima mutlaqo to‘g‘ri ekanligini aytdik.
- 7) Darsda o‘qituvchi turli xil savollar berdi, talabalar esa navbat bilan unga javob berishdi.
- 8) O‘qituvchi talabalardan birini doskaga chaqirganda, u talaba o‘midan turdi, doska yoniga keldi va bo‘r bilan doskaga gapning tarjimasini yozdi.

Lug'at

(ات) اشتباه	eštebâh xato	غير	ğayr-e-hâzer
اصلح	eslâh xatoni	حاضر	ishtirok etmagan, hozir
(ات)	tuzatish, isloh qilish	bo'limgan	
اگر	agar agar	قاعدہ	qâ'eda qoida
آمده	âmâda tayyor	(قواعد)	(qawâ'ed)
تر	tar hol	كمک	komak yordam
تشريع	tašrih tushuntirish	کی	kay qachon
تصحیح	tashih tuzatish	گاهی	gâh-e ba'zida
تکرار	tekrâr, takrâr	گذشته	gozašta o'tgan
	takrorlash	گرامر	gerâmar grammatika
تولد	tawallod	گرامری	gerâmari grammatikaga
	tug'ilish	گریب	oid gripp
ختم	xatm oxiri	گمان	gomân gumon, taxmin
زنگ	zang qo'ng'iroq	گوش	gôş quloq
سوال، سوال (ها)	sawâl, so'âl savol	گوش	gôş eshitmoq
(ات)		کردن	kardan
صحيت	sohbat suhbat	مریضى	marizi kasallik
عادتا	'âdatan odatda	مطلوب	matlab mavzu
علت (ها)	'ellat sabab ('elal)	(مطلوب)	(matâleb)
غلطى	ğalati xato	نوبت	nawbat navbat
		هرگز	hargez hech qachon

Hozirgi zamon negizi

Fe'lning hozirgi zamon negizi fe'llarning qoidali va qoidasiz (ba'zan to'g'ri /solim/ va noto'g'ri /noqis/ deb ham yuritiladi) bo'lishiga ko'ra turli usulda yasaladi. Shuning uchun lug'atlarda fe'l masdari bilan bir qatorda, uning hozirgi zamon negizi ham beriladi (bu, asosan, qoidasiz fe'llarga taalluqli).

Qoidali (yoki I guruh) fe'llardan, odatda, -*dan*, -*-tan*, -*-idän* (ادن) -*-estan*) morfemalarini olib tashlash bilan fe'lning hozirgi zamon negizi yasaladi, masalan:

آوردن <i>âwardan</i> 'keltirmoq'	-	اور <i>âwar</i>
خواندن <i>xândan</i> 'o'qimoq'	-	خوان <i>xân</i>
رسپىلن <i>rasidan</i> 'yetib kelmoq'	-	رس <i>ras</i>
فهمىدىن <i>fahmidan</i> 'tushunmoq'	-	فهم <i>fahm</i>
كشتىن <i>koştan</i> 'o'ldirmoq'	-	كش <i>koş</i>
شىفتەن <i>şokoftan</i> 'gullamoq'	-	شف <i>şokof</i>
فرىستالىن <i>ferestâdan</i> 'yubormoq'	-	فرست <i>ferest</i>
ايستاندن <i>istâdan</i> 'turmoq'	-	ايست <i>ist</i>
توانىستن <i>tawânestan</i> 'qila olmoq'	-	تowan <i>tawân</i>
دانىستن <i>dânestan</i> 'bilmoq'	-	دان <i>dân</i>

Eslatma. بىن -*-idan* morfemasi bilan tugallangan har qanday fe'l qoidali fe'ldir. Quyidagi fe'llar bu qoidadan mustasnodir:

بىن <i>didan</i> 'ko'rmoq'	-	بىن <i>bin</i>
شىنىد <i>şenidan</i> 'eshitmoq'	-	شۇ <i>şenaw</i>
چىدىن <i>çidan</i> 'termoq'	-	چىن <i>çin</i>

Qoidasiz (yoki II guruh) fe'llarning hozirgi zamon negizi turli usullar bilan yasalib, ma'lum bir qoidaga bo'ysunmaydi. Masalan, bunday fe'llarning ma'lum qismida harflar almashuvi yuz beradi:

خ <i>x</i>	-	ج <i>z</i>
آموختن <i>âmöxtan</i> 'o'rganmoq', 'o'rgatmoq'	-	آموز <i>âmöz</i>
ساختن <i>säxtan</i> 'qurmoq'	-	ساز <i>sâz</i>
گريختن <i>gorêxtan</i> 'qochmoq'	-	گريز <i>gorêz</i>

سوختن	<i>sôxtan</i> ‘yonmoq’, ‘yondirmoq’	- سوز <i>sôz</i>
ریختن	<i>rêxtan</i> ‘to‘kmoq’, ‘quymoq’	- ریز <i>rêz</i>
ختن - <i>xtan</i> bilan tugagan quyidagi fe‘llar bundan mustasnodir:		
شناختن	<i>şenâxtan</i> ‘tanimoq’, ‘bilmoq’	- شناس <i>şenâs</i>
فروختن	<i>forôxtan</i> ‘sotmoq’	- فروش <i>foruš</i>
پختن	<i>poxtan</i> ‘pishirmoq’	- پز <i>paz</i>

و u - (ى) â/y/

آسودن	<i>âsudan</i> ‘xotirjam bo‘lmoq’, ‘dam olmoq’	- آسای <i>âsây</i>
مروdon	<i>sorudan</i> ‘kuylamoq’	- سرای <i>sarây</i>
فرمودن	<i>farmudan</i> ‘buyurmoq’	- فرمای (ى) <i>farmâ(y)/</i>
نمودن	<i>namudan</i> ‘ko‘rimoq’	- نما(ى) <i>namâ(y)/</i>
ربودن	<i>rabudan</i> ‘tortib olmoq’, ‘o‘ziga tortmoq’	- ربا(ى) <i>rabâ(y)/</i>

Bundan mustasno:

بودن	<i>budan</i> ‘emoq’, ‘bo‘lmoq’	- باش <i>bâš</i>
------	--------------------------------	------------------

ف f - ب b

يافتن	<i>yofstan</i> ‘topmoq’	- ياف yâb, ياب yâf
تافتن	<i>toftan</i> ‘nur sochmoq’	- تاب tâb
کوفتن	<i>köftan</i> ‘urmoq’, ‘yanchmoq’	- کوب kôb
روفتن	<i>rôftan</i> ‘supurmoq’	- روب rôb
فتن - <i>ftan</i> bilan tugallangan quyidagi fe‘llar bundan mustasnodir:		
پذيرفتن	<i>paziroftan</i> ‘qabul qilmoq’	- پذير pazir
بافتن	<i>bâftan</i> ‘to‘qimoq’	- باف bâf
گفتتن	<i>goftan</i> ‘aytmoq’, ‘demoq’	- گو gô(y)
رفتن	<i>raftan</i> ‘bormoq’, ‘ketmoq’	- رو raw
گرفتن	<i>gereftan</i> ‘olmoq’, ‘ushlamoq’	- گير gir

ر r - ۆش

گنشن	<i>gozaştan</i> ‘o‘tmoq’	- گندر gozar
گذاشتن	<i>gozâştan</i> ‘qo‘ymoq’	- گذار gozâr
داشتن	<i>dâştan</i> ‘ega bo‘lmoq’	- دار dâr
پنداشتن	<i>pendâştan</i> ‘o‘ylamoq’	- پندار pendâr

کاشтн <i>kâštan</i>	‘ekmoq’, ‘haydamoq’ (<i>yerni</i>)	- کار <i>kâr</i>
-شтн - <i>štan</i>	bilan tugallangan quyidagi fe'llar bundan mustasnodir:	
نوштн <i>naweštan</i>	‘yozmoq’	- نویس <i>nawis</i>
گштн <i>gaštan</i>	‘aylanmoq’	- گرد <i>gard</i>
Риштн <i>rêstan</i>	‘(ip) yigirmoq’	- ریش <i>rêş</i>

Quyidagi fe'llarning ma'lum qismida esa fe'l negizidagi tovushlar almashuvi yuqorida ko'rsatilgan qoidadan mustasnodir:

کрдн <i>kardan</i>	‘qilmoq’	- کن <i>kon</i>
дадн <i>dâdan</i>	‘bermoq’	- ده <i>deh</i>
آمدن <i>âmadan</i>	‘kelmoq’	- (ای) <i>â/y/</i>
زден <i>zadan</i>	‘urmoq’	- زن <i>zan</i>
بردن <i>bordan</i>	‘olib bormoq’	- بر <i>bar</i>
بستн <i>bastan</i>	‘yopmoq’, ‘bog’lamoq’	- بند <i>band</i>
(بر) <i>(bar)</i>	<i>xâstan</i>	- (بر) خیز <i>(bar)xêz</i>
خواстн <i>xâstan</i>	‘xohlamoq’	- خواه <i>xâh</i>
شестн <i>šostan</i>	‘yuvmoq’	- شوی <i>šôy</i>
مردن <i>mordan</i>	‘o'lmoq’	- میر <i>mir</i> va b.

O'zbek tilida dariy tilidan farq qilib, fe'lning bitta negizi mavjud va u -moq affiksini olib tashlash bilan yasaladi. Mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari ana shu fe'l negiziga qo'shiladi (masalan: *o'qimoq*, *o'qidim*, *o'qi-sa kabi*).

1-mashq. Umumiy qoidalarga ko'ra quyidagi fe'llarning hozirgi zamon negizini yozing:

پرسیدн, بриден, باختн, خридн, баридн, آلодн, کشیدн, نامидн,
تاختн, مالидн, گرдидн.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li

مضارع اخباری *mozâre-e axbâri*

Hozirgi-kelasi zamon fe'li hozirgi zamon fe'l negizi oldiga مى *mê-* old qo'shimchasi va oxiriga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. O'tgan zamon fe'lida ishlataladigan shaxs-son qo'shimchalari bilan hozirgi-kelasi zamonda ishlataladigan shaxs-son qo'shimchalari faqat III shaxs birlikda (۴-ad) farq qiladi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining tuslanishida urg'u مى *mê-* old qo'shimchasiga tushadi.

نوشتن *naweštan* ‘yozmoq’ fe’lining tuslanishi

yoki	من مينويسим	<i>man ménawisam</i> ‘men yozyapman (yozaman)’
yoki	تو مينويسى	<i>tu ménawisi</i> ‘sen yozyapsan (yozasan)’
yoki	او مينويسد	<i>ô ménawisad</i> ‘u yozyapti (yozadi)’
yoki	ما مينويسيم	<i>mâ ménawisém</i> ‘biz yozyapmiz (yozamiz)’
yoki	شما مينويسيد	<i>šomâ ménawiséd</i> ‘siz yozyapsiz (yozasiz)’
yoki	آنها مينويسند	<i>ânhâ ménawisand</i> ‘ular yozyaptilar (yozadilar)’

Hozirgi-kelasi zamon fe’lining bo’l shakli *mē-* old qo’shimchasi oldiga urg’uli *na-* inkor yuklamasini qo’shish orqali yasaladi.

خواندن *xândan* ‘o’qimoq’ fe’lining tuslanishi

من نمى خوانм	yoki	<i>man námêxânàm</i> ‘men o’qimayapman (o’qimayman)
تو نمى خوانى	yoki	<i>tu námêxânî</i> ‘sen o’qimayapsan (o’qimaysan)
او نمى خواند	yoki	<i>ô námêxânâd</i> ‘u o’qimayapti (o’qimaydi)
ما نمى خوانим	yoki	<i>mâ námêxânèm</i> ‘biz o’qimayapmiz (o’qimaymiz)
شما نمى خوانид	yoki	<i>šomâ námêxânèd</i> ‘siz o’qimayapsiz (o’qimaysiz)
آنها مى خوانанд	yoki	<i>ânhâ námêxânând</i> ‘ular o’qimayaptilar (o’qimaydilar)

Eslatma. داشتن *dâštan* ‘ega bo’lmoq’ fe’li hozirgi-kelasi zamonda *mē-* old qo’shimchasiz tuslanadi: من کتب دарм *man ketâb dâram* ‘mening kitobim bor’, ما وقت ندارим *mâ waqt nadârem* ‘bizning vaqtimiz yo‘q’.

Agar hozirgi zamon fe'l negizi *ä* yoki *u* cho'ziq unlisi bilan tugasa, shaxs-son qo'shimchalari oldidan *ış* yâ orttirilib yoziladi.

من مى آيم من مى آيم *man mēâyam*

'men kelyapman (kelaman)'

تو مى آيى تو مى آيى *tu mēâyi* 'sen kelyapsan (kelasan)'

او مىايد او مىايد *ô mēâyad* 'u kelyapti (keladi)'

ما مىايم ما مىايم *mâ mēâyêm* 'biz kelyapmiz (kelamiz)'

شما مى آيد شما مى آيد *şomâ mēâyêd*

'siz kelyapsiz (kelasiz)'

آنها مى آيند آنها مى آيند *ânhâ mēâyand*

'ular kelyaptilar (keladilar)'

Prefiksli va qo'shma fe'llarda مى *mē-* old qo'shimchasi fe'l qismga qo'shiladi, masalan:

من برمىگىرم *man bârmêgardam* 'men qaytyapman (qaytaman)'

آنها نمى بىردارند *ânhâ nâmêbardârând* 'ular ko'tarmayaptilar
آنها بىر نمى دارند *ânhâ bârnâmêdârând*] (ko'tarmaydilar)'

من كار مېكتىم *man kâr mëkonam* 'men ishlayapman (ishlayman)'
آنها جواب نميدەند *ânhâ jawâb nâmêdehând* 'ular javob bermayaptilar
(bermaydilar)'

2-mashq. Fe'llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida tuslang:

A. Bo'lishli shaklda:

دېدىن، پرسىدىن، افتادن، خواستىن، فرستادن، خرىدىن، شىستىن، فەھىدىن،
نوشتىن، گۇشتىن، ياقتن، أوردىن، فروختىن، ماندىن، زدىن، بىرخاستىن،
درآمدنىن، بىرخوردىن، پاپىئىن شدىن، جواب دادنىن، مطالعه كردىن، جشن گرفتن،
تەعجىب نمودنىن، انتظار كىشىدىن.

B. Bo'lishsiz shaklda:

نىشەتىن، شناختىن، انداختىن، رسىدىن، سېرىدىن، ماندىن، بىردىن، گۇشتىن،
مردىن، نوشىتن، دانستىن، پوشىدىن، شىنىدىن، ساختىن، بىستىن، بىرگىشتىن،
برآمدنىن، دردادنىن، دروغ كېقتن، بالا شدىن، شروع نمودنىن.

3-mashq. Barcha shaxs-sonda tuslang:

(1) من كتاب مېخوانم. (2) من قىلم مى بىتىم. (3) من به فاكولته مېروم. (4)
من به خانه برمىگىرم. (5) من از زمين توب مېيردارم. (6) من در پوهنتون
تحصىل مى نمايم. (7) من شامل كار مېشوم. (8) من خط نەينويسم. (9) من

این جمله را نمیفهمم. ۱۰) من امروز از خانه نمیبرایم. ۱۱) من بخاری درنمیدهم. ۱۲) من انتظار اکبر را نمیکشم.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining ma'nolari

Dariy tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li quyidagi ma'no turlariga ega:

1. Nutq momentida bo'layotgan harakatni anglatadi:

تو کجا میروی؟ *Tu kojā mērawi?* ‘Sen qayerga ketayapsan?’

2. Uzoq davom etayotgan harakatni, doimiy jarayonni ifodalaydi:

ما هر سال په اردوگاه میرویم *Mâ har sâl ba ordugâh mērawêm*

‘Biz har yili lagerga boramiz’

من در پوهنتون تحصیل میکنم

Man dar pohantun tahsil mēkonam

‘Men universitetda o'qiymen’

3. Kelasida bo'ladigan harakatni ifodalaydi:

هفته آینده به کابل میرود *Hafta-ye âyenda ba Kâbol mērawad*

‘Kelası hafta Kobulga ketadi’

بودن *budan* ‘emoq’, ‘bo'lmoq’ fe'li hozirgi-kelasi zamonda

so'zlashuv tilida asosan quyidagi ikki ma'noda ishlatalidi, masalan:

من فردا در انسٹیتوت می باشم ‘Men ertaga institutda bo'laman’

در زمستان هوا سرد می باشد ‘Qishda havo sovuq bo'ladi’

Kitobiy uslubda esa nutq momentidagi holatni ham bildiradi, ya'ni fe'l bog'lamasi o'rnila qo'llanila oladi, qiyoslang:

کابل پایتخت افغانستان می باشد

‘Kobul Afg'onistonning poytaxtidir (bo'ladi)’

Eslatma. Ba'zan she'riyatda yoki folklorda hozirgi-kelasi zamon fe'lining old qo'shimchasi می باشد *mē-tushib qolishi mumkin.* Masalan:

دانان داند و پرسد ندانند ندانند و نپرسد

Dâna dânad wa porsad, nâdân nadânad wa naporsad

‘Dono biladi va so'raydi, nodon bilmaydi va so'ramaydi’

Qoidaga muvofiq shunday bo'lishi kerak edi:

دانان میدانند و میپرسد ندانان نمیدانند و نمیپرسد

Dâna medânad wa meporsad, nâdân namedânad wa nameporsad

4-mashq. O'qing va tarjima qiling:

الف - ۱) ما به چمن میرویم و گل میچینیم. ۲) من میدام که شما زیان ندی میخوانید. ۳) یوسف میگوید که دخترش امسال شامل مکتب موشود.

